

**Xurshida Qodirova**

# **O`ZBEK TILI**

Badiiy ta'lim yo`nalishdagi OTM talabalari uchun mo`ljallangan

**Toshkent – 2020**

**UDK: 610.125.20**

**KBK: 81.2(Ў36)**

O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir. Binobarin, tilga hurmat – elga hurmat, tilga e'tibor elga e'tibordir. Chunki til xalqimiz tarixi, xalqimiz boyligi, hayotimiz ko'zgidir. Mazkur «O'zbek tili» o'quv qo'llanmasi. Badiiy ta'lim yo'nalishidagi OTM talabalari uchun mo'ljallangan. Qo'llanmada nazariy bilimlar bilan amaliy bilimlar uyg'unlikda olib borildi. Asosiy diqqat-e'tibor, maqsadga to'la muvofiq, amaliyotga – so'zlashuv nutqiga – nutq o'stirish muammosiga qaratildi. Shunga ko'ra, qo'llanmaning asosiy qismini matnlar va tarjimalar tashkil etadi. Shuningdek, unda rusiyzabon talabalarga amaliyotda erkin foydalanishlari uchun faol ishlatiladigan ish hujjatlari ham taqdim etiladi.

**Taqrizchilar:**

**L.Raupova**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, filologiya fanlari doktori, professor

**G.Qarshiyeva**

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti, filologiya fanlari nomzodi, Tillar va adabiyot kafedrasida dotsenti

**A.Botirova**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, filologiya fanlari nomzodi

**X.Ismoilov**

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutii, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

**O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining  
2020 yil 30 iyundagi 359-sonli buyrug'iga asosan nashrga tavsiya etilgan**

**ISBN: 978-9943-602-86-1**

© «Navro'z» SeZd[kaf] 2020

## 1-DARS

### O`ZBEKISTON

#### *Og`zaki nutq:*

1991-yili O`zbekistonda ulkan tarixiy voqea sodir bo`ldi – mustaqillik e`lon qilindi. Shu paytdan boshlab bu muhim sana Respublika tarixi yilnomasiga kiradi. 1991-yil 31-avgustda O`zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi “O`zbekiston Respublikasining davlat Mustaqilligini e`lon qilish to`g`risida” Qaror, shuningdek, “O`zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to`g`risida” O`zbekiston Respublikasi Qonunini qabul qildi.

O`zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari VI sessiyasi 1991-yil 31-avgustda qabul qilgan Bayonotda, jumladan, bunday deyilgan: “O`zbekiston Respublikasining o`z tarkibidagi Qoraqalpog`iston Respublikasi bilan birga, hududi bo`linmas va daxlsizdir. O`zbekiston Respublikasining boshqa davlatlarga hududiy da`volari bo`lmay, u o`z hududi va uning tabiiy boyliklariga nisbatan oliy huquqqa egadir”.

Mustaqil O`zbekiston Respublikasi uchun navbatdagi ulkan tarixiy voqea 1992-yilning 2-martida sodir bo`ldi – 1945-yilda tashkil topgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Respublikamizni o`zining tarkibiga qabul qilganligi haqida qaror qabul qildi. Mustaqil Davlatlar Hamdo`stligiga kirgan boshqa davlatlar singari O`zbekiston ham jahonning ana shu eng mo`tabar tashkilotining to`la huquqli a`zosi bo`ldi.

Juda boy tabiiy resurslarga, katta iqtisodiy imkoniyatlarga ega bo`lgan O`zbekiston Respublikasi Mustaqillik e`lon qilinganidan keyin tabiiy boyliklarini o`zgalarning zug`umisiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini oshirish yo`lida xizmat qildirishga haqli bo`lib qoldi.

### **MEN NECHUN SEVAMAN O`ZBEKISTONNI**

*A.Oripov*

Men nechun sevaman O`zbekistonni?

Tuprog`in ko`zimga aylab to`tiyo!


Nechun vatan deya yer-u osmonni,

Muqaddas atayman, atayman tanho?  
Aslida dunyoda tanho nima bor,  
Paxta o`smaydimi o`zga elda yo?  
Yoki quyoshimi sevgimga sabab,  
Axir quyoshli-ku butun Osiyo?  
Men nechun sevaman O`zbekistonni?  
Bog`larin jannat deb ko`z-ko`z etaman.  
Nechun ardoqlayman tuprog`ini men,  
O`paman tuprog`ing bebaho, vatan.  
Aslida tuproqni odil tabiat,  
Taqsim aylagan-ku yer yuziga teng.  
Nechun u tuprog` deb yig`ladi Furqat,  
O, Qashqar tuprog`i, qashhoqmiding sen?  
Xo`sh, nechun sevaman O`zbekistonni?  
Sababini aytgin desalar menga,  
Shoirona go`zal so`zlardan oldin,  
Men ta`zim qilaman ona Vatanga.

***Yozma nutq:***

**1-mashq.** Matndan tayanch so`z va iboralarni ajratib yozing. Rus tiliga tarjima qiling.

**2-mashq.** Matndagi asosiy fikrni yozma ravishda ifodalang.

 **3-mashq.** Respublika baynalmilal madaniyat markazi haqida qisqa ma'lumot yozish.

*Grammatika:*

**O`ZBEK TILI TOVUSH TIZIMI**

**ALIFBO**

NOMI	HARF	NOMI	HARF
A	Aa	Re	Rr
be	Bb	Se	Ss
de	Dd	Te	Tt
E	Ee	U	Uu
fe	Ff	Ve	Vv
ge	Gg	Xe	Xx
he	Hh	Ye	Yy
I	Ii	Ze	Zz
je	Jj	o`	O`o`
ke	Kk	g`e	G`g`
le	Ll	She	Sh sh
me	Mm	Che	Ch ch
ne	Nn	Nge	Ng
O	Oo	tutuq belgisi, (apostrof)	‘
Pe	Pp		
Qe	Qq		

**Fonetika** – tovushlar tizimini o`rganuvchi fan. Unda nutq tovushlari va nutqda sodir bo`ladigan fonetik jarayonlar, bo`g`in, urg`u va ohang o`rganiladi.

Kelib chiqishiga ko`ra, o`zbek tili oltoy tillarining turk tillar guruhiga kiradi. Rus tili esa sharqiy slovyan tillariga tegishli. Tipologik nuqtai nazardan o`zbek tili agglutinatív, rus tili flektiv tillarga kiradi.

Bular quyidagilar bilan asoslanadi – o`zbek tilida rod kategoriyasi yo`q; o`zbek tilida H, Q, G, O kabi spetsefik harflar mavjud, Ё, Ш, Ц harflari nutqda bo`lsa-da, alifboda yo`q. Sababi o`zbek tili lug`at tarikibida boshqa tillardan o`zlashgan so`zlar mavjud, jumladan, shu harflar mavjud bo`lgan rus tilidan ham. Shu sababdan, o`zbek tilida ular ma`lum qoidalarga asosan yoziladi.

Ц	S	So`z boshida	<i>sirk, sisterna</i>
		Undosh harflardan keyin	<i>konsert, aksiya, ssenariy,</i>
		So`z oxirida	<i>shpris, kvars</i>
		Prefiksdan keyin	<i>antisiklon</i>
	Ts	Unli harfdan keyin	<i>konstitutsiya, glitsirin, gerbitsit</i>

O`zbek tili yumshatish belgisiga ega emas. Chunki, mental aholining nutq organlari bunga moslashmagan. Nutq organlariga tovush paylari, til, lablar, yumshoq tanglay, tilcha, halqum, tishlar, alveolalar, qattiq tanglay, yuqori jag` kiradi.

Ь	–	So`z oxirida	<i>Rol, fonar, nol, dekabr, yanvar</i>
		So`z o`rtasida	<i>Relyef, obyektiv,</i>

Shunigdek, bir tovushni anglatuvchi ikki belgili harflar ham mavjud. Ular o`rni kelganda ajratilmaydi, bo`g`in ko`chirilmaydi.

Ng	<i>Singil</i>	<i>Si-ngil</i>
	<i>Dengiz</i>	<i>De-ngiz</i>
Sh	<i>Peshayvon</i>	<i>Pe-shay-von</i>
	<i>Ashula</i>	<i>Ashu-la</i>
Ch	<i>Pichoq</i>	<i>Pi-choq</i>
	<i>Bichiqchi</i>	<i>Bi-chiq-chi</i>

**Eslab qoling:** *ng, sh, ch* harflari keyingi qatorga shu holicha ko`chadi yoki o`sha qatorida qoladi, ammo ajratilmaydi: *si-ngil, to-ngi, tong-gi, ich-ki, bur-chak, ish-ti-rok, sho-shi-linch.*

E, Ę, IO, Я harflariga ega rus tilidan o`zlashgan so`zlar, o`zbek tilida Y va E, Y va O, Y va U, Y va A harflari bilan yoziladi. Ammo o`zbek tili artikulyatsiyasi rus tilida qanday bo`lsa shunday ifoda etilishiga to`squinlik qiladi. Bu so`zlarni imlosida ayrim qoidalar qabul qilingan.

	E	Ę	IO	Я
Agar bu harflar ikki tovushni ifodalasa, ikki harf bilan yoziladi: Y+unli	<i>poyezd,</i>	<i>zayom</i>	<i>yumor iyul</i>	<i>yadro noyabr</i>
Agar bu harflar oldidan kelgan undosh tovush o`zbek tilida yumshoq talaffuzga ega bo`lsa, unda Y harfisiz unlining o`zi yoziladi	<i>faner</i>	<i>stajor</i>	<i>lustra salut</i>	<i>flaga shlapa</i>
Agar bu harflarning oldida turgan undosh o`zbek tilida qattiq talaffuz etilish xususiyatiga ega bo`lsa, uni yumshatish uchun unli harf bilan birga Y ham yoziladi		<i>aktyor</i>	<i>byuro</i>	<i>snaryad</i>
Agar bu harflarning oldidan yumshatish belgisi bo`lsa, unda Y tegishli unli bilan birga yoziladi	<i>interyer</i>			

Yana o`zbek tilida rus tilidagi ayirish belgisi (Ъ)ning muqobili bo`lgan tutuq belgisi (‘) ham bo`lib, u ham ayrim hollarda ajratish vazifasini bajaradi: *san`at, sur`at.*

Ammo unli harfdan so`ng qo`yilgan bo`lsa u o`z oldida turgan tovushni cho`zish xususiyatiga ega: *ma`no, Ra`no.*

Tutuq belgisining O` harfidan keyin kelgan o`zlashgan so`zlarda qanday yozish to`g`risida imlo qoidasi qabul qilingan. Bu holda unli harf

cho`ziq ifoda etilsa ham tutuq belgisi qo`yilmaydi: *mo`jiza, mo`tadil, mo`tabar.*

**5-mashq.** O`qing va yozilishiga e'tibor bering.

*Rangtasvir, sangina, haykaltaroshlik, bo`yoq, yodgorlik, vitraj, barelyef, proporsiya, sirkul, trapetsiya, byust, gravyura, illustratsiya, afisha, natyurmort, interyer, janr, jiyak, pastel, miniatyura.*

**6-mashq.** So`zlarni o`zbek imlosi qoidalariga amal qilib yozing:

*Акварель, миниатюра, мольберт, спектакль, горельеф, ню, экстерьер*



**7-mashq.** Matnni o`qing va tovushlarning talaffuziga e'tibor bering.

## MUSTAQILLIK BAYRAMI

1-sentyabrni mamlakatimizda yosh-u qari orziqib kutadi. Zero, bu – xalqimizning eng sevimli bayramlaridan biri. Ko`cha va xiyobonlar o`zgacha bezatilgan. Hammaning kayfiyati ko`tarinki, labida tabassum.

Bayram arafasida umumxalq hashari o`tkazilib, obodonlashtirish ishlari amalga oshiriladi. Katta-yu kichik bu xayrli ishga birdek bel bog`laydi.

Asosiy shodiyonalar poytaxtimizning bosh maydoni – Mustaqillik maydonida o`tkaziladi. Hamshaharlarimiz hamda Toshkent mehmonlari san`at ustalari ishtirokidagi konsertni tinglab tomosha qilish imkoniga ega bo`ladilar.

Qolaversa, yurtimizning barcha joylarida: mahalla guzarlari, bog`lar, sayilgohlarda bayram tadbirlari bo`lib o`tadi.

Mustaqillik O`zbekiston xalqining asriy orzusi. Shu bois bu kunni hamma birdek bayram qiladi.



## 2-DARS

### MILLIY BAYRAMLAR

#### *Og`zaki nutq:*

- 14-yanvar** Mustaqil O`zbekistonda ushbu bayram o`z qurolli kuchlarini tashkil etishga bag`ishlangan. 1992-yil
- Vatan himoyachilari kuni** 14-yanvarda mamlakat parlamenti mamlakat hududidagi harbiy o`quv yurtlari va boshqa harbiy shakllarining barcha qismlari va birlashmalarini O`zbekiston Respublikasi yurisdiksiya qaramog`iga o`tishi to`g`risida qarori qabul qilindi.1993-yilda 29-dekabrda 14-yanvar — Vatan himoyachilari kuni deb e`lon qilindi.
- 8-mart** O`zbekistonda ushbu bayram sevgi, mehrbonlik va go`zallik bayrami sifatida nishonlanadi, shuningdek, “onalar kuni” sifatida ham taniqlidir.
- Xalqaro xotin-qizlar kuni** 8-mart O`zbekistonda dam olish kuni deb belgilangan.
- 21-mart** Navro`z qadimiy milliy bayrami (fors tilidan tarjima qilindanda «yangi kun» ma`nosini anglatadi) 21-mart kuni nishonlanadi. Ushbu kun kecha bilan kunduzning tenglashgan paytidir. Ushbu bayramning kirib kelishi bilan ko`pgina o`zbek oilalari sumalak, halim, ko`k somsa, palov kabi turli milliy taomlarni tayyorlaydilar. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so`ng Navro`z bayramini nishonlash o`ziga xos tus oldi. Bu bayram barcha xalqlarning do`stlik va birlik ramziga ega bo`lgan umumxalq bayramidir.
- 9-may** 1999-yil 9-may kuni O`zbekiston poytaxtida
- Xotira va qadrlash kuni** Xotira maydoni ochildi va shu kundan buyon 9-may Xotira va qadrlash kuni deb nishonlanmoqda. Ushbu bayram keng ma`noga

ega bo`lib, u mustaqil O`zbekistonda asrlar davomida qahramon, o`lkamizni himoya qilgan, uning erkinligi, mustaqilligi va xalqining tinchligi uchun kurashgan vatandoshlar xotirasiga bag`ishlanish bilan bir qatorda u umumxalq xotirasi va insonni qadrlash kuni hamdir. Xotira va qadrlash kuni chinakam milliy-umumxalq bayramidir, bu kunlari kishilar uzoq-yaqinda yashovchi yaqinlari holidan xabar oladilar, katta yoshlilarni ziyorat qiladilar va ularga alohida hurmat ko`rsatiladi.

**1-sentabr  
Mustaqillik  
kuni**

O`zbekiston Respublikasining asosiy milliy bayrami — Mustaqillik kunidir. Milliy bayram do`stlik, xayriya va har tomonlama hurmatga tayangan o`zbek xalqining barcha orzularini namoyon etadigan bayramdir.

Ushbu bayramni O`zbekistonda istiqomat qilayotgan turli millat vakillari millati, dini va irqidan qat`i nazar O`zbekistonning barcha hududlarida faol nishonlaydilar.

**1-oktabr  
Ustoz va  
murabbiylar  
kuni**

Har yili O`zbekistonda Ustoz va murabbiylar kuni keng nishonlamoqda. Qadim zamonlardan ustozga bo`lgan chuqur hurmat va e`tibor saqlanib qolgan.

Maktab va o`quv muassasalarining o`quvchilari hayotning ilk bilimlarini bergan ustozlarga chuqur hurmat bilan munosabatda bo`ladilar. Ushbu kunda o`qituvchilarni minnatdorchilik bilan, gullar va sovg`alar bilan hayot yo`lida mashaqqatli mehnati uchun chin yurakdan tabriklaydilar.

**8-dekabr  
Konstitutsiya  
kuni**

O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Parlament tomonidan 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan. Ushbu bayram butun O`zbekiston bo`ylab

keng nishonlanadi.

## **Ramazon Hayiti**

Ushbu bayram Ro`za hayiti sifatida tanilgan va musulmon (Xijriy) kalendarining 9-oyiga to`g`ri keladi. Bayram 30 kundan iborat bo`lib, ruhiy hamda ma`naviy tozalanish hisoblanadi. Uning shartlari quyidagicha:

- kun chiqishdan to kun botganga qadar ovqat va suv iste`mol qilmaslik;
- yomon o`ylardan saqlanish;
- atrofdagilarga hurmatda bo`lish va ularga imkoniyat darajasida yaxshilik qilishdan iboratdir.

Ushbu shartlarni bajargandan so`ng uch kundan iborat bo`lgan Ramazon Hayiti boshlanadi. «Ramazon Hayiti» birinchi kuni dam olish kuni hisoblanadi.


## **Qurbon Hayiti**

Musulmonlar tomonidan nishonlanadigan dunyodagi eng katta diniy bayramlardan biridir. Bu bayramning negizi o`z o`g`lini Alloh yo`lida qurbon qilishga tayyor bo`lgan Payg`ambar Ibrohim (a.s.) bilan bog`liq bo`lgan tarixiy voqeaga taqaladi. Uning harakati Alloh tomonidan to`xtatilib o`rniga hayvon (qo`y, mol, tuya va boshqa jonliq) qurbon qilish buyuriladi. Shundan buyon imkoni yetadigan musulmonlar shukronalik sifatida bir yilda bir marta, ushbu bayramda jonliq so`yadilar. Uning go`shtidan qarindosh-urug`, qo`ni-qo`shni, muhtoj va yaqin olilalarga tarqatadilar, o`zlari ham iste`mol qiladilar. Bayram uch kun davom etadi va musulmonlar bu kunlarni oila va qarindoshlar davrasida o`tkazadilar. Bayram kunlari kishilar uzoq-yaqinda yashovchi yaqinlarining holidan xabar oladilar, muhtojlarga yordam beradilar. “Qurbon Hayiti”ning birinchi kuni dam olish kuni hisoblanadi.

**1-mashq.** Matnga munosabat bildirib soʻzlang.

*Yozma nutq:*

**2-mashq.** Matndagi atama va iboralarni koʻchirib yozing va maʼnosini izohlang.

 **3-mashq.** Biror milliy bayram, marosimlardan olgan taassurotlaringizni yozing.

### Mustaqil taʼlim

“Turli millatlarning urf odatlari” mavzusida referat yozish.

*Grammatika:*

## ORFOEPIYA VA ORFOGRAFIYA

**Orfoepiya** – talaffuz meyorlarini oʻrganuvchi fan. Orfoepiya soʻzlarning talaffuz qoidalarini, soʻzlardagi urgʻu holatini oʻrganadi.

Fonetika bilan orfoepiya oʻzaro bogʻliq.

Tovush bilan harfni farqlash lozim. Tovushni biz talaffuz etamiz va eshitamiz, harfni esa yozamiz va koʻramiz. Harf – nutq tovushlarini yozma ifodasi uchun ramziy, shartli belgi hisoblanadi.

► Rus tilidagi muqobil harflar oʻzbekcha talaffuzdan ancha farqli.

*Masalan:*

<i>ot</i>	От
<i>tom</i>	Том
<i>tok</i>	ток (электричество)
<i>son</i>	Сон
<i>don</i>	Дон

**1-mashq.** Quyidagi soʻzlarni toʻgʻri talaffuz qiling. Tarjimasini lugʻatdan topib ayting va yozing.

*Ur – oʻr – or, un – oʻn – on, uz – oʻz – oz, uch – oʻch – och, uq – oʻq – oq, toq – toʻq, turt – tort – toʻrt, tur – tor – toʻr, os – oʻs.*

## URGʻU

**Urgʻu** – bu soʻz tarkibida yoki butun bir soʻz birikmasida biror boʻgʻinning ovozni koʻtarish yoʻli bilan ifoda etilishiga aytiladi.

Soʻz **urgʻusi** hamda **gap urgʻusi** ( mantiqiy (gap ichida, jumlada)) farqlanadi.

**Soʻz urgʻusi** – bunda urgʻuli boʻgʻin urgʻusiz boʻgʻindan kuchli yoki dinamikligi, boʻgʻinning taʻkidlovchi xususiyatiga egaligi bilan ajralib turadi. Oʻzbek tilida urgʻu bogʻlangan, doimiy, oxirgi boʻgʻinga tushadi. Ammo urgʻu boshqa boʻgʻinga tushadigan soʻz va soʻz shakllari ham uchrab turadi.

Quyidagi oʻrinlarda urgʻu oxirgi boʻgʻinga tushmaydi:

Barcha buyruq-istak maylida	<i>gapir, boshla, olgin</i>
Soʻzga urgʻusiz qoʻshimcha qoʻshilganda	<i>ishchiman, yoshdir,</i>
Oʻzlashma soʻzlarda	<i>kassa, gʻolib, Gamlet, London</i>

Urg`u ma`no farqlash uchun ham xizmat qiladi:

<i>Atlas</i> (material)	<i>Atlas</i> (geografik)
<i>Akademik</i> (ilmiy unvon)	<i>Akademik</i> (sifat, daraja)
<i>Yigitcha</i> (yosh, kichraytirish shakli)	<i>Yigitcha</i> (holat)

**2-mashq.** Quyidagi so`zlarni kerakli bo`g`iniga urg`u qo`yib o`qing.

*Gapir* (говори), *boshla* (начинай), *Grafika*, *borgin* (иди же), *keling* (приходите), *Shishkin*, *kelsin* (пусть придет), *boray(in)* (пойду-(ка)), *Ayvazovskiy*, *keldi* (он пришел), *ketdi* (он ушел), *natura*.

**Gap urg`usi** yoki mantiqiy urg`u – ovoz kuchi bilan gapning biror bo`lagini ajratib talaffuz qilish. *Biz majlis o`tkazdik* darak gapida har bir so`z urg`u olishi mumkin.

Odatda mantiqiy urg`u kesimdan oldin turgan so`zga tushadi.

*Masalan:*

*Biz bugun kutubxonaga bordik.*

*Biz kutubxonaga bugun bordik.*

*Kutubxonaga bugun biz bordik.*



**3-mashq.** Mantiqiy urg`u hosil qilish uchun gaplarni qaytadan tuzing.

1. *Kecha institutimiz klubida katta konsert bo`ldi.* 2. *Dam olish kuni bizning klubimizda institut havaskorlari konsert berdi.* 3. *Biz ertaga ma`ruzalardan keyin muzeyga boramiz.*

**Orfografiya** (imlo) – yozuvda nutqdagi bir xil ifoda usullarini tartibga soluvchi qoidalar tizimidir. O`zbek imlosi morfologik-fonetik tamoyilga asoslanadi. Yetakchi tamoyil – morfologik, yordamchi tamoyil – fonetik.

Morfologik tamoyilda til birligi – morfema hosoblanadi, ya`ni so`zning ma`noli bo`lagi: bir xil morfemalar talaffuzining qanday bo`lishidan qat`iy nazar doim bir xil yoziladi, masalan, *kel-di*, *ket-di* (talaffuzda: *ket-ti*), *ot-dan* (talaffuzda: *ot-tan*).

Fonetik tamoyilda til birligi – ayni damda talaffuz etilayotgan tovush yoki tovushlar birikmasi hisoblanadi, masalan, *qishloq-ga* (qishloq-qa), *elak-ga* (elak-ka) va h.

► Talaffuzda yoki yozuvda sodir boʻlgan har qanday oʻzgarish **fonetik hodisalar** deyiladi.

*Masalan:*

Talaffuzda tushib qolishi	<i>Balan (baland)</i> <i>Do`s (do`st)</i>
Jarangli tovushlarning jarangsizlashishi	<i>Ketti (ketdi)</i> <i>Qochti (qochdi)</i>
Harf ortirilishi	<i>U+-ga – un<u>g</u>a,</i> <i>O`sha+-da – o`shan<u>d</u>a</i>
Harf oʻzgarishi	<i>Qishlo<u>q</u> – qishlog<u>i</u></i> <i>Bog` – bo<u>q</u>qa</i>
Shevada harf almashishi	<i>Y<u>o</u>ng`ir – yog`<u>m</u>ir</i> <i>Tu<u>p</u>roq – tur<u>p</u>oq</i>

**4-mashq.** Quyidagi soʻz shakllari qaysi tamoyil asosida yozilganligini ayting.

*Ko`kka, bog`ga, tikkan, yoqqan, ekkan, otgan, yotgan, botgan, singan, yiqilgan, yozdirgan, gapirtirgan, shoshgan.*



**5-mashq.** Quyidagi soʻzlarni qatnastirib, gaplar tuzib yozing.

1. *O`lmasning, sevimli, ukasi, Aziz.* 2. *Umarning, oti, singlisini, Oltinoy.* 3. *Obid, ko`p, hunar, o`rgandi, otasidan.* 4. *Ozoda, o`z, mehmonga, o`rtog`inikiga, bordi.* 5. *O`ktamxonning, o`ninchi, sinfda, ukasi, Umri, bilan o`qiydi.* 6. *O`z, narsalari, bilgan, Saodat, doim, o`rtoqlariga, o`rgatdi.*



**6-mashq.** Matnni o`qing. Fonetik hodisalar ro`y bergan soʻzlarni topib yozing va ularni qaysi tamoyil asosida yozilganini ayting.

O`zbekiston tasviriy va amaliy san`ati juda qisqa vaqtda rivojlanib, katta yutuqlarga erishdi. Respublikamiz rassomlari ko`pgina ko`rgazmalarda faol ishtirok etib, o`lkamizni dunyoga tanitdilar. Iskandar Ikromov, Chingiz Ahmarov, Malik Nabiyev, Mannon Saidov, Damir Ro`ziboyev, Ilhom Jabborov, Javlon Umarbekov, Bahodir Jalolov, Alisher Mirzayev, Akmal Ikromjonov, Ne`mat Hakimov, Osimxon Vosixonov, Temur Sa`dullayev, G`ofur Abdurahmonovlar O`zbekiston tasviriy va amaliy san`at sohasidagi o`rni beqiyosdir.



### 3-DARS

#### INSON VA SAN'AT

##### *Og`zaki nutq:*


Bu yorug` olamda san'at kabi sehrli va sirli hilqatni topmoq dushvordir. Zotan san'atni insonning o`zidan-da qadimiyroq, deydilar. Inson san'at bilan egiz qilib yaratilgan. U kuy bo`lib, ohang bo`lib, so`z bo`lib, rang bo`lib, mehr-muhabbat bo`lib hayotni charog`on aylab yurakda yashayveradi, dillarni dillarga payvand eta yuzaga chiqaveradi.

Azal-azaldan ko`hna sharq xalqlari san'atning tasviriy, amaliy turiga oshno bo`lganligi ma'lum. Biz bugun mashhur Leonardo Da Vinchi, Mikelanjelo, Pikassolarning san'atini e'tirof etganimiz holda sharq miniatyura asoschisi Kamoliddin Behzodga tasannolar aytamiz. Uning izdoshlari bo`lmish milliy tasviriy san'atimiz daholaridan O`rol Tansiqboyev, Rahim Ahmedov, Ne`mat Qo`ziboyev, Ro`zi Choriyevlarga tan beramiz. Hozirgi kunda esa Bahodir Jalolov, Javlon Umarbekov, Akmal Nur kabi tasviriy san'at namoyandalarining ijodlariga maftun bo`lamiz. Umuman, musavvir yaratgan buyuk asarlardan ilhomlangan har qanday san'at shaydosi suratning chuqur qalbiga qo`l solgan bo`ladi, demakki asar yaratguvchisining nozik siyratiga, ta'sirchan ko`ngliga nazar solgan bo`ladi. Nazarimizda, ijodkorning ko`z o`ngida gavdalanayotgan borliq o`zgacha aks etadi. Ranglar jilosidan bir qalqib so`ngan hislar tug`yonini jilovlay olmay, tushunib tushunmay, birmuncha mahzun, bir muncha jo`shqin tasvirlarga sho`ng`ib ketamiz. Ba`zan mayda detallarning aniqligidan, ba`zan uyg`unlikning dag`alligidan hayron-u lol bo`lamiz.

Aytishlaricha, mussavvir uchinchi ko`zga ega bo`lar ekan. Haqiqiy rassom siyrati toladek nozik, ba`zan xayolparast va ta'sirchan bo`ladi. Uning uchun sarhad bilmas "tun", "tong", "kun" tushunchalari "sehr", "mehr", "joziba" tushunchalari bilan hamohangdir. O`zi kashf etgan olamda yashagani yetmaganidek, o`z ruhiy holatigan gohida hayron, gohida sarson kezgan ko`ngil ko`chalarida ba`zan adashib, ba`zan shaxdam qadam bosadigan san'at ustalari buyuk asarlar yaratishga qodir

bo`ladi. Shuning uchun ham odatda oddiy odamlar ularning ayrim kamchiliklarini to`g`ri tushunadilar va kechiradilar. Ammo qalb kishisidan hech qachon yomonlik chiqmasligini biladilar. Biz ana shunday ilohiy xislat egalarini har qancha e`tirof etsak, shuncha oz. Zero, go`zallik dunyoni qutqaradi. Go`zallikni esa san`at ustalarigina o`z qarichida ilg`ab istifoda etadi.


 **1-mashq.** *Matnni o`qing, mazmunni to`liq tinglab tushuning.*

 **2-mashq.** *Matndagi atama va iboralarning ma`nosini izohlang.*

**3-mashq.** *Matnni ijodiy so`zlang.*

*Yozma nutq:*

**4-mashq.** *Dunyoda va O`zbekistondagi san`at namoyandalari haqida esse yozing.*

 **5-mashq.** *“San`at mening hayotimda” mavzusida taqdimot tayyorlang.*

*Grammatika:*

## **O`ZBEK TILIDA SO`Z YASALISHI**

So`z morfemalardan tarkib topadi. Morfema – so`zning ma`noli qismi. O`zak va qo`shimcha morfemalar farqlanadi.

**O`zak.** O`zak so`zning asosiy leksik ma`nosini ifodalaydi va tarkibida boshqa morfemalar bo`lmaydi. Rus tilidan farqli o`laroq o`zbek tilida o`zak har doim mustaqil qo`llana oladi.

**Qo`shimcha.** Qo`shimcha ikki xil vazifani bajaradi: **so`z yasash** va **shakl yasash**. So`z yasovchi qo`shimchalar so`zning lug`aviy ma`nosini o`zgartiradi.

*Gul* – ЦВЕТОК

*Gul-chi* – ЦВЕТОВОД

*Gul-la* – ЦВЕТИ

*Gul-don* – ВАЗА ДЛЯ ЦВЕТОВ

Shakl yasovchi qo`shimchalar so`zning shaklini o`zgartiradi. O`zbek tilida shakl yasovchi qo`shimchalarga kelishik, egalik, erkalash va kichraytirish hamda ko`plik qo`shimchalari kiradi: *kitoblarim*. *-lar* – ko`plik qo`shimchasi, *-im* – egalik qo`shimchasi.


*Gul* – birlik, bosh kelishik

*Gul-lar* – ko`plik, bosh kelishik

*Gul-ga* – birlik, jo`nalish kelishigi

**4-mashq.** Rus tiliga tarjima qiling, qo`shimchalarni aniqlab, turini ayting:

*Ishchi, ishlar, ishsiz, kitobcha, o`zbekcha, kuldon.*

 **5-mashq.** Berilgan so`zlarga o`zingiz bilgan va mos keladigan qo`shimchalarni qo`shib yozing.

*Suv, o`t, ot, tosh.*

**6-mashq.** So`z shakllarining ma`nosidagi farqni tushuntirib bering.

*Akamlar, akalarim. Opanglar, opalaring.*

**7-mashq.** So`zlarni tarkibi bo`yicha tahlil qiling.

*Mustaqillik, soddalik, birlashmoq, ishchi, o`quvchi, o`qituvchi.*

O`zbek tilida ko`pincha so`z yasashning quyidagi yo`llari qo`llaniladi:

**Qo`shimcha qo`shib so`z yasash** – аффиксация

## O`zklarni qo`shib so`z yasash – композиция

O`zbek tilida ot, sifat, fe'l va ravish so`z turkumlarini yasash mumkin. Qolgan so`z turkumlari so`z yasashda asos vazifasini bajarishi mumkin, ammo ular yasalmaydi.

Аффиксация	Композиция
<i>guldon</i> (ваза)	<i>guldasta</i> (букет)
<i>tog`li</i> (горный)	<i>tog`olcha</i> (алыча)
<i>bellash(moq)</i> (согязаться)	<i>belkurak</i> (лопата)
<i>qo`lla</i> (используй)	<i>qo`l qo`ymoq</i> (подписать)

O`zbek tilida so`zlar qurilishiga ko`ra 4 ta bo`ladi:

1. **Sodda so`z.** Простые.
2. **Qo`shma so`z.** Сложные.
3. **Juft so`z.** Парные.
4. **Takror so`zlar.** Повторные.

Sodda so`zlar bir o`zakdan tashkil topadi. Masalan, *ish* – работа, дело; *ot* – имя; *o`qi* – читай; *kitob* – книга. Ular **yasama** (производные) va **tub** (не производные) so`zlarga ajratiladi. Yasama so`zlar affiksatsiya yo`li bilan yasalgan so`zlardir: *gulla*, *yasha*, *ochiq*. Tub so`zlar faqatgina o`zakdan iboratdir: *gul*, *yosh*, *och*.

Qo`shma so`zlar ikki va undan ortiq so`zdan tarkib topadi, masalan: *belbog`* – пояс; *muzyorar* – ледокол; *oshqozon* – желудок; *ko`zoynak* – очки.


Juft so`zlar ikki turli xil o`zaklardan tashkil topadi, masalan: *ota-ona* – родители; *bola-chaqa* – дети; va umumlashtiruvchi ma`noni beradi.

Takror so`zlar ko`pincha sifatni bo`rttiruvchi uslubiy ma`noga ega. *katta-katta*, *tez-tez* и т.д.

### 8-mashq. Ajratilgan so`zlarning tuzilishiga ko`ra turini ayting.

1. Men maktabdosh do`stlarimning shirin-shirin suhbatlarini ko`p sog`inaman. 2. Haqiqiy inson o`z ota-onasini hurmat qiladi. 3. Muzyorar kema juda baland, o`n ikki qavatli uydek keladi. 4. Bizning uyimiz temir

*yo`l yaqinida joylashgan. 5. Kolesnikov bilan Sohibov o`qishga Yangiyo`l tumanidan kelishdi. 6. Mirzacho`l yildan yilga gullab-yashnamoqda. 7. Qoraqamishda yangi binolar qad rostlamoqda.*

 **9-mashq.** Quyidagi sodda, qo`shma va juft so`zlar ishtirokida 6 ta gap tuzing.

*Savat-savat, paxtazor, sinfdosh, yeryong`oq, mehmondo`st, to`q qizil, qo`l qo`ymoq, sotib olmoq, bir yuz sakson, bola-chaqa, kundan kunga.*

## 4-DARS

### O`RTA OSIYO MO`JAZ RANGTASVIRI

#### *Og`zaki nutq:*

Movaraunnahr mo`jaz rangtasvirining dastlabki namunalari Rashididdin Fazlullohning (1247-1298) “Tarix to`plami” (Jome’ ut-tavorix) nomli asarida aks etgan. XV asrdagi Sharq mutafakkirlaridan Firdavsiy, Navoiy, Sa’diy, Hofiz, Jomiy kabilarning kitoblari ham mo`jaz rangtasvir asarlari bilan bezatilgan. Bu asarlarda rassomlar ko`pincha o`sha davr muhiti va kiyimlari, xon saroyidagi voqealar, jang-u jadallar va uchrashuvlarni aks ettirgan.

Shunday asarlardan birqanchasi hozirgi kunda Istanbuldagi To`ppopu saroyi kutubxonasida saqlanmoqda.

Temur davri mo`jaz rangtasviriga doir asarlar ichida Jomiyning “Oltin zanjir” nomli kitobiga ishlangan suvratlar alohida o`rin tutadi. Mazkur asar Sankt-Peterburgdagi Saltikov-Shchedrin nomli kutubxonada saqlanmoqda. Unda tog`li joyda ov manzarasi aks ettirilgan.

Ulug`bek davrida musavvirlik qilib, mashhur bo`lganlar orasida Shahobiddin Abdulla va Zahridin Azharlar tilga olinadi, biroq ularning qanday asarlar yaratganliklari haqida ma`lumotlar yo`q. Ulug`bek davrida yaratilgan asarlardan biri Abdurahmon as-So`fiyning astronomik asariga ishlangan rasmlari diqqatga sazovordir. Unda bir qator yulduzlarning harakati tasvirlangan bo`lib, ular odam shaklida ifodalangan.

Alisher Navoiy davrida Hirotda san`at gullab-yashnay boshladi. Bu davrda Hirotda Kamoliddin Behzod ijod etdi. Kamoliddin Behzod uslubida ijod qilgan mashhur musavvirlardan biri Mahmud Muzahhibdir. Mahmud Muzahhib ijodida “Alisher Navoiy” portreti diqqatga sazovordir.

XVII asrda bir qator O`rta Osiyolik rassomlar Hindistonda ijod etishdi. Ular orasida Davlat Muhammad Nodir Samarqandiy ham bor. U Hind mo`jaz rangtasviri maktabini yaratishda muhim o`rin tutadi.

XIX asrda yashab ijod etgan Buxoro mo`jaz rangtasviri san`ati maktabi vakillaridan biri Ahmad Mahdumning (Ahmad Kalla) nomi

sharaflidir. Uning suvratlari orasida Bedil asarlariga ishlangan “Sevgi manzarasi”, “Sahrodagi Majnun” nomli rasmlari diqqatga sazovordir.

**1-mashq.** Matnni soʻzlab bering.

*Yozma nutq:*



**2-mashq.** Leonardo da Vinchi haqida taassurotlaringizni yozing.



**3-mashq.** Oʻzbek mumtoz rassomlaridan birini tasvirlang.

*Grammatika:*

## LEKSIKOLOGIYA

**Leksikologiya** – tilshunoslikning soʻz tarkibini oʻrganuvchi fan.

Oʻzbek tilining lugʻat tarkibi qadim turkiy, oʻzbek va oʻzlashma soʻzlardan iborat. Oʻzlashgan soʻzlarning aksariyati arab, fors, shuningdek, rus tillari yoki rus tili orqali yevropa tillaridan kirib kelgan.


Qadim turkiy til qozoq, qirgʻiz, turkman tillarining negizi hisoblanadi. U oʻzbek tilida uning yangi nomlari borligi va kam qoʻllanilishi bilan farqlanadi. Asosan, u badiiy adabiyotda, shevalarda, sheʼriyatda, yoshi katta avlod nutqida uchraydi. Shuningdek, juda kam hollarda yoshlarning ogʻzaki nutqida foydalaniladi. Masalan, *yogʻoch* (дерево), *kun* (солнце)

Oʻzbek tiliga koʻpmanolilik xos. Bir soʻzning maʼno doirasida qoʻllanish imkonining kengligi tilning qaysidir maʼnoda boyligidan darak beradi. Shuningdek, oʻzbek tilida tushunchani yangi nom bilan atashdan koʻra qoʻshimchalar qoʻshish orʻqali lugʻaviy maʼnoni oʻzgartirish imkoni kengligi bilan ajralib turadi. (Masalan, *ogohlantirmaganingizdandur-da – может из-за того что вы не предупредили?*) Bu tilning agglutinativligidan dalolat beradi.

*Masalan:*

<i>Gul</i>	Цветок
<i>Guldon</i>	Ваза
<i>Odam</i>	Человек
<i>Odamlar</i>	Люди

O`zlashgan so`zlar o`zbek tili lug`at tarkibining katta qismini egallaydi. Bu axborotning iqtisodiy-siyosiy globallashuvi bilan bog`liq. O`z nomi bilan nutqimizga kirib kelgan yangi tushunchalar tarjima qilinmaydi. Masalan, *marketing (bo`limi), WiFi, Paynet*.

 **4-mashq.** Matni oqing, rus tiliga tarjima qiling va tarixiy so`zlarni ko`chirib yozing.

Kamoliddin Behzodning ijodini Sharq va G`arbdagi ko`pgina buyuk kishilar yuksak baholaganlar. Xususan, uni “Sharq Rafaeli” deb atashgani bejiz emas.

Buyuk tarixchi Xondamir “Xabib-us-suyar” nomli asarida Kamoliddin Behzod haqida shunday deb yozgan edi: “Kamoliddin Behzod ajoyib va g`aroyib suratlarni zohir qiluvchi, hunar nodirliklarini bunyod etuvchi, Moniy kabi suvrat chizuvchi mo`yqalamli, olam musavvirlari asarlarini yo`qqa chiqaruvchi va misli yo`q barmoqlari bilan bani odam hunarmandlari tasvirlarini mahv qiluvchidir.” Shayboniyxon, Vosifiy va boshqalar, uni jonsiz narsa tasvirga jon bag`ishlovchi mo`yqalam sohibi deb ta`riflaganlar.

Behzod o`z asarlarining ko`p qismini o`z ona yurti – Hirotdan uzoqda, ya`ni Tabrizda yaratdi. Erondagi jang-u jadallar, alg`ov-dalg`ov va ur-yiqitlar Behzodning o`z ustozlari va yaqin do`stlaridan uzoqda yashashi uning hayoti va ijodiga salbiy ta`sir ko`rsatdi. Shuning uchun ham musavvir “Tuyalar jangi” nomli asarini yaratganda uning bir chekkasiga “Qalamishikasta, nomurod, faqir Behzod umri 70 dan oshganda ushbu ishga qo`l urdi”, deb g`am-anduh bilan imzo chekkan edi. Shunga



qaramasdan, Behzod Eronda kechirgan g'am-anduh, g'urbat-azoblari oldida chekinmadi, nafosat va go'zallik olamiga, tabiat, jamiyat va insonga bo'lgan kuchli muhabbat, uning ijodga bo'lgan jo'shqin ishtiyoqini doimo ilgari yetakladi.

## SO'ZLARNING SHAKL VA MA'NO MUNOSBATIGA KO'RA TURLARI

So'zlar shakl va ma'no munosabatiga ko'ra sinonim, antonim, omonim va paronimlarga ajratiladi.

**Sinonimlar** – ma'nosi yaqin so'zlar:

*kun, quyosh, oftob, shams, xurshid* – солнце

*katta, buyuk, ulkan, azim* – большой, крупный, великий, огромный  
*chiroyli, go'zal* – красивый

Juda kam hollarda bir tushunchaga bir necha marta nom beriladi. Har bir tushuncha bir nom bilan tug'iladi, sinonimik qatorni esa ma'nosi bir biriga yaqin so'zlar to'ldiradi. Ular tilda turli ma'no bo'yog'iga ega bo'lib, muayyan joyda istiqomat qiladigan odamlar nutqida, shevasida va yoshlar jargonida ishlatiladi. Shuningdek, o'zlashgan so'zlar ham, ushbu qatordan o'rin egallashi mumkin: *doktor, vrach, shifokor, tabib*.

**Antonimlar** – qarama-qarshi ma'noli so'zlar:

*katta* (большой) – *kichik* (маленький)

*do'st* (друг) – *dushman* (враг)

*qalin* (толстый) – *yurqa* (тонкий)

*uzun* (длинный) – *qisqa* (короткий)


Albatta, hamma so'z ham qarama-qarshi ma'noli juftiga ega emas, ammo ayrim bir biriga ters bo'lmagan so'zlar jumlada o'zaro qarshi ma'no berishi mumkinligi ham kuzatiladi. Ularni **kontekstual antonimlar** deyiladi: *Birni ko'rib shukur qil, mingni ko'rib fikr qil*.

**Omonimlar** – shakli bir xil va ma'nosi har xil so'zlar:


<i>o't</i> – трава	<i>ot</i> – имя	<i>to'p</i> – пушка	<i>ol</i> – возьми, бери
<i>o't</i> – огонь	<i>ot</i> – конь	<i>to'p</i> – кучка	<i>ol</i> – красный
<i>o't</i> – переходи	<i>ot</i> – брось, кинь	<i>to'p</i> – мяч	

Ko`p ma'noli so`zlar bilan omonimlarni adashtirib yubormaslik juda muhim. Omonimlar bu – turlicha sabablar bilan, har xil vaqtda, turli vaziyatlarda, ammo, bir xil nom bilan dunyoga kelgan tushunchalardir. Ko`p ma'noli (polisemantik) so`zlardan farqli o`laroq, ular bir biri bilan hech qanday o`zaro aloqaga ega emas.

### ko`p ma'noli (полисемия)



### omonim



**Paronimlar** – shakil yaqin (o`xshash) so`zlar.

*tana* – тело

*surat* – картина

*yondosh* – рядом

*ta'na* – упрёк

*sur'at* – темп

*yondash* – относиться

Rus adabiyotida ayrim hollarda so`zlarning noto`g`ri qo`llanilganligi sababli paronimlar paydo bo`lishi haqida ma'lumotlar bor. Shuningdek, ularning bir o`zakdan paydo bo`lishi haqida ham aytiladi (адресат – адресант, одеть – надеть). O`zbek tilida nafaqat bir o`zakli, balki, talaffuzda va yozuvda ham o`xshash bo`lgan so`zlarning hammasi paronim bo`lishi mumkin.

Ularni farqlay olmaslik va qo`llashda xato qilish nuqiy jarayon emas, balki mazkur tilning leksik meyorlarini yetarli darajada bilmaslik oqibatidir. Odatda xatolik notanish so`zlar bilan sodir bo`ladi. Globallashuvda bu jarayon jadallashadi va o`zlashgan so`zlar paronimlar qatoridan o`rin egallashi mumkin.

**5-mashq.** Berilgan so`zlarning sinonimlarini toping.

*do`st, ozod, ko`rkam.*

**6-mashq.** Berilgan gaplardagi antonimik hodisalarni toping va qaysi so`zlar kontekstual antonim munosabatda ekanligini ayting.

1. *Kattaga hurmatda, kichikka izzatda bo`l.* 2. *U goh kulib, goh yig`lab bo`lgan voqeani aytib berdi.* 3. *Yaxshi topib gapiradi, yomon qopib.* 4. *Ilmsiz bir yashar, ilmli ming yashar.*

**7-mashq.** Berilgan so`zlardan omonimlari bor so`zlarni ajrating va ular ishtirokida gap tuzing.

*bosh, tok, oyoq, soch, qo`l, kul.*

**8-mashq.** Berilgan paronimlarni tarjima qiling.

*Sharaf – sharob*

*Afzal – abzal*

*Enlik – ellik*

*Sog`liq – sovliq*

*Tanbur – tambur*

*Shitob – shtab*

*Teri – tire*

*Tarif – ta`rif*

## 5-DARS

### KAMOLIDDIN BEHZOD

#### *Og`zaki nutq:*

Kamoliddin Behzod – buyuk o`zbek musavviri. U 1455-yilda Hirotda kambag`al hunarmand oilasida tug`ilib, yoshligida yetim qolgan. Behzodning musavvirlikdagi iste`dodini payqagan Mikar naqqosh uni o`z tarbiyasiga olgan. Behzod musavvirlikni naqqosh Pir Said Ahmad Tabriziydan o`rgandi. Musavvirlardan Shoh Muzaffar, Qosim Ali, Mavlono Hakim Muhammad kabi Behzod ham Alisher Navoiyning rahnamoligidan bahramand bo`lgan. Ijodi 1470-yillarda boshlangan.

Alisher Navoiy va Sulton Husaynning vafotidan so`ng Hirotni Shayboniyxon, 1512-yilda esa Eron shohi Ismoil bosib oldi. Ko`p san`atkorlar Hirotdan chiqib ketdi. 1520-yillarning boshida shoh Ismoil Behzodni Tabrizga chaqirtirib, katta imtiyoz berdi. Shoh Ismoildan keyin uning o`g`li Taxmos taxtga chiqdi. Behzod Taxmosga musavvirlikni o`rgatadi. Lekin shoh Behzodning san`atini qadrlamadi. Rassom ona yurti Hirotda qaytdi. Shayx Sa`diyning “Bo`ston”iga ishlangan miniatyuralari (1478) musavvirning ilk asarlaridir. 1488-yilda Sulton Husayn buyurtmasi bilan u 4 ta miniatyura ishlagan. Behzod asarida hayot manzaralarini jo`shqin tasvirlagan. Turli ranglar bir-biriga mos, asarlaridagi shaxslar harakatchan, tabiatan jonli. Ilk asarlaridayoq Behzod mohir manzarachi rassom sifatida ko`zga tashlanadi.

Nizomiy Ganjaviyning “Xamsa”, Xisrav Dehlaviyning “Majnun va Layli” asariga ishlangan miniatyuralari butun dunyoga mashhur. Behzod ijodi o`z davridayoq rassomchilik maktabi bo`lib qolgan. Darvesh Muhammad, Maqsud Muzahhib kabi rassomlar uning maktabida ta`lim olganlar. Buyuk musavvir Kamoliddin Behzod 1535-yilda Hirotda vafot etgan.

**1-mashq.** Matnni kengaytirib soʻzlab bering.

*Yozma nutq:*



**2-mashq.** Buyuk rassom allomalarimizning roʻyxatini tuzish.

### Mustaqil taʼlim

*Mashhur rassom allomalardan biri haqida taqdimot tayyorlash.*

*Grammatika:*

### IBORA

**Ibora** – koʻpincha koʻchma maʼnoda qoʻllaniladigan turgʻun soʻzlar birikmasi. Ibora maʼno jihatdan bir soʻzga teng: *boshi osmonda* (xursand), *tarvuzi qoʻltigʻidan tushgan* (xafa). Ular bitta gap boʻlagi sifatida bitta vazifani bajarib, gap boʻlaklariga ajratilmaydi.

**3-mashq.** Quyidagi soʻzlardan oʻz va oʻzlashgan soʻzlarni ajratib yozing.

*A rgʻuvon, banoras, baxmal, geraldika, rangtasvir, kandakor, kartina, litografiya, pardoz, plakat.*



**4-mashq.** Iboralarning ruscha muqobilini toping. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

*Sanamay sakkiz demoq, chumchuq pir etsa, yuragi shir etmoq, yulduzni benarvon urmoq, yerga ursa koʻkka sakramoq.*

Shuningdek, iboralar quydagicha tasniflanadi:

*Sinonim iboralar:*

*Boshi koʻkka yetmoq, doʻppisini osmonga otmoq – радоваться.*

*Hafsalasi pir bo`lmoq, tarvuzi qo`ltig`idan tushmoq* – обидеться, растроиться.

**Antonim iboralar:**

*oq ko`ngil* (добрый) – *bag`ritosh* (злой)

*yerga ura ko`kka sakraydi* (озорной) – *suvga tushgan bo`lka nonday* (тихий).

**Omonim iboralar:** *boshiga ko`tarmoq* – 1) уважать, 2) шуметь

**5-mashq.** Lug`atdan foydalanib, berilgan iboralarga sinonim iboralarni va agar bo`lsa antonimlarini toping.

*Qo`y og`zidan cho`p olmagan, chumoliga ozor bermaydigan, ilonning yog`ini yalagan, kapalagi uchgan, boshi qotgan.*

## BIR MA`NOLI VA KO`P MA`NOLI SO`ZLAR

So`zlar bir yoki bir nechta ma`nolarda qo`llanilishi mumkin. Bir ma`noli so`zlarga atamalar, ismlarni kiritish mumkin: *ravish* (наречие), *chumchuy* (воробей).

Ko`p ma`noli so`zlar to`g`ri (прямое) va ko`chma ma`no(переносное)larga ega. Misol uchun, *Sinf keng va yorug`* – Класс просторный и светлый. *Sinf o`rnidan turdi* – Класс встал. Birinchi o`rinda *sinf* to`g`ri ma`noda, ikkinchisida esa ko`chma ma`noda qo`llanilgan.

Ko`p ma`noli so`zlar o`zbek tilining hamma gap bo`laklarida uchraydi va umumiste`mol so`zlarning aksariyati polisemantik so`zlardir.

Ma`no ko`chish yo`llari rus tili bilan aynandir. Hamma holatlarda ham ma`noning bir so`zdan boshqa so`zga ko`chishi mavjud.

**Metafora** (*grek. μεταφορά* — «ko`chirish», «ko`chma ma`no») – ko`chim, predmetning biror boshqa predmet bilan umumiy o`xshashligi asosida ko`chma ma`noda qo`llangan so`z yoki ibora. Masalan, *Qaldirg`och – bahor elchisi. Sizlar litseyimizning qaldirg`ochlari bo`lasiz.* Bunda o`xshashlik, qiyoslash asosida ma`no ko`chadi.

**Metonimiya** (*grek.* μετονομία – «qayta nomlash», от μετά – «ust» va ὄνομα/ὄνυμα – «nom») – ko`chim turi, bir so`zning u yoki bu predmet (makon, zamon va shu kabilar) bilan aloqasi bor boshqa predmat (hodisa)ni anglatgan so`z bilan almashgan so`z yoki so`z birikmasi. Masalan, *Do`kondan chiroyli piyolalar xarid qildik. Bir piyolagina ichib ko`ring.* Metonimiyani metaforadan farqlash lozim. Metonimiyada bog`liqlik, davomiylik asosida, metaforada esa o`xshatish asosida ma`no ko`chadi. Maxsus holatda metonimiya sinekdoxa hisoblanadi.

**Sinekdoxa.** (*grek.* συνεκδοχή) – ko`chim, ular orasidagi miqdoriy munosabatlar asosida bir hodisadan ikkinchisiga o'tishga asoslangan metonimiyaning bir turi. Butunning bir qismi yoki aksincha, butun guruh o`rniga uning vakili yoki aksincha, narsaning o`rniga uning idishi yoki aksincha va h. Masalan, *Qo`ldan kelmaydigan ishning o`zi yo`q. O`n qo`li – o`n hunar.*

Odatda sinekdoxada quyidagicha ma`no ma`no turlari bor:

1. Ko`plik o`rnida birlik: «Всѣ спит – и человек, и зверь, и птица». (Гоголь);
2. Birlik o`rnida ko`plik: «Мы все глядим в Наполеоны». (Пушкин);
3. Butunning o`rnida qism: «Имеете ли вы в чём-нибудь нужду? – В крыше для моего семейства». (Герцен);
4. Jins o`rnida tur: «Ну что ж, садись, светило». (Маяковский) (вместо: *солнце*);
5. Tur o`rnida jins: «Пуще всего береги копейку». (Гоголь) (вместо: *деньги*).

**Vazifadoshlik.** Predmet vazifasining o`xshashligi asosida vujudga kelgan ma`no ko`chishiga aytiladi. Masalan, *Navoiy tun bo`yi qalamini qo`ldan qo`ymadi. Rasmni yumshoq qalam bilan chizing.*

**6-mashq.** *Bosh, yoqa, kun, olma* so`zlarini to`g`ri va ko`chma ma`noda qo`llab gap tuzing.

**7-mashq.** O`qing va belgilangan so`zlarning qaysi ma`noda ekanini ayting. Ular ishtirokida gap tuzing.

*Koylak yoqasi, yo`l yoqasi. Baliq boshidan, ko`cha boshidan. Yetti kun, kun chiqdi. Ko`ylakning etagi, tog` etagi. Tilla bola, tilla soat.*

**8-mashq.** Matni o`qing. Monosemantik va polisemantik so`zlarni ko`chirib yozing.

Alisher Mirzayev tasviriy san`atni she`riyatsiz tasavvur qilib bo`lmasligini quyidagicha bayon etdi:

– Tabiatni shunday olib ko`chirib qo`yish qiyin emas. Unda badiiylik bo`lishi kerak, she`riyat bo`lishi kerak. Ko`rgan odam uni his qilishi kerak. Bu yerda o`tirgan shoirlar bizning do`stlarimiz. Mana shu do`stlik hech qachon yo`qolmasligini istar edim.

O`zbekiston Xalq shoiri Mahmud Toir:

– Darhaqiqat, biz har doim bir-birimizga muhtoj bo`lganmiz, – deya rassomning fikrini tasdiqladi. – Ilk ijod namunalarimni dastlab Alisher Mirzayevga ko`rsatish uchun olib borganimni hech qachon yodimdan chiqarmayman. O`shandan beri o`rtamizda mustahkam do`stlik o`rnatilgan. Biz bir she`r yozsak uning kartinasini musavvir kabi tasavvur etamiz.

Qalbdosh do`stlar bilan bo`lgan uchrashuv Milliy rassomlik va dizayn instituti tomonidan uyushtirilgan edi. Shoir va sozandalar misli akakalardek tasviriy san`at uyida yig`ilishdi.

She`riyatning o`ziga xos rangi bo`lganidek, rangning o`ziga xos kuyi bor, kuyning-da o`ziga xos rangi bor. Mushtarak uchlikning sarhadi bo`lmish qalbning sadosi ana shu uch qit`ada o`z aksini topgay. Aslida, bu uchlikning ko`ngli bitta. Zero, shoir aytganidek, eng yaxshi san`at asarini ko`rganimizda, yaxshi bir she`r o`qigandek bo`lamiz, yaxshi bir she`r o`qiganimizda yaxshi bir kuy eshitgandek, yaxshi bir manzarani tomosha qilgandek bo`lamiz.



## 6-DARS

### O`ZBEK TILI – DAVLAT TILI

#### *Og`zaki nutq:*

O`zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi davridan (1989-yil 21-oktyabr) O`zbekistonda lotin harflariga asoslangan o`zbek alifbosini qayta tiklash masalasi o`rtaga qo`yildi. Bu yuzasidan matbuotda bir yarim yilga yaqin erkin munozara bo`ldi.

Ko`pchilik lotin alifbosini qayta tiklashni ma`qul ko`rdi. Bu masala O`zbekiston Oliy Kengashi sessiyasida ham ko`rildi. 1993-yil boshida turkiy xalqlar uchun mushtarak alifbo tuzish yuzasidan ham ish olib borildi. O`zbek tili uchun tuzilgan alifbo O`zbekistonda 1940-yildan beri qo`llanib kelinayotgan kiril harflari asosidagi o`zbek alifbosining lotincha harflar bilan almashtirilgan ko`rinishi bo`lib qolgan. O`zbekiston Oliy kengashining XII chaqiriq 12-sesiyasida deputat P.Qodirovning yangi o`zbek alifbosini hozirlash yuzasidan olib borilayotgan ishning borishi haqida axboroti tinglandi. “lotin yozuviga asoslangan o`zbek alifbosini joriy qilish to`g`risida” 1993-yil 2-sentabrda qonun qabul qilindi. 1995-yil 6-mayda “Lotin yozuviga asoslangan o`zbek alifbosiga o`zgartirishlar kiritish haqida” Qonun qabul qilindi. 1995-yil 24-avgustda Vazirlar Mahkamasining “O`zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida”gi qarori e`lon qilindi. Lotin yozuvi asosidagi alifboning qayta tiklanishi o`zbek tilidagi tovushlarni aniqroq va to`laroq aks ettirish imkonini beradi.

**1-mashq.** Matndagi asosiy fikrni ajratib so`zlab bering.

#### *Yozma nutq:*


**2-mashq.** “Men o`zbek tilini o`rganyapman” mavzusida dialog tuzing va uni inssenirovka qiling.

🏠 **3-mashq.** Mutafakkirlaning til haqidagi fikrlaridan namunalar toping.

**Grammatika:**

## MORFOLOGIYA

Morfologiya gap bo`laklari va ularning Grammatik kategoriyalarini o`rganadi. O`zbek tiliga gap bo`laklari miqdori rus tili bilan bir xil.



Ot har ikki tilda ham uch xil grammatik kategoriyaga ega. O`zbek tilida rod kategoriyasi yo`q, ammo ot so`z turkumida egalik kategoriyasi mavjud.


O`zbek tilida sifat so`z turkumi faqatgina darajalanish kategoriyasiga ega va odatda, shaklini o`zgartirmaydi: *chiroyli uy* (красивый дом), *chiroyli xona* (красивая комната), *chiroyli ko`ylak* (красивое платье), *chiroyli gullar* (красивые цветы), ya`ni, otga singib ketadi. Rus tilida esa sifat so`z turkumi ot so`z turkumi bilan rod, son va kelishiklar borasida moslashadi, shuningdek, qisqa shakliga ham ega: красивый – красив.

Son so`z turkumi o`zbek tilida grammatik kategoriyaga ega emas.

O`zbek tilida 7 ta olmosh turi bor, rus tilida ular 9 ta.

Fe`l o`zbek tilida tur kategoriyasiga ega emas.

O`zbek tilida zamon kategoriyasi biroz qiyinroq, garchi fe`l zamonlari xuddi rus tilidagidek uchta bo`lsa-da, zamon shakllari ko`proq – to`qqizta.



Yordamchi soʻz turkumlari ikki tilda ham oʻz oʻrniga ega. Ammo, oʻzbek tilida предлог – old koʻmakchi yoʻq va uning oʻrnida rus tilidan farqli ravishda mustaqil qoʻzdan keyin keluvchi – koʻmakchi deb ataluvchi – послеслог qoʻllaniladi: *kabi* (как), *uchun* (для), *bilan* (с) va h.

Bundan tashqari oʻzbek tilida uchta maxsus soʻzlar guruhi bor:

**undov** (междометие)

**modal soʻz**  
(модальные слова)

**taqlidiy soʻz**  
(подражательные слова)

## OT SOʻZ TURKUMI

Ot soʻz turkumi shaxs, predmet, joy yoki zamoni atab keladi. Ular *kim?* (кто?), *nima?* (что?), *qayer?* (какое место?) soʻroqlariga javob beradi.

Oʻzbek tilida rus tilidan farqli oʻlaroq *kim?* soʻrogʻi faqat shaxslarga nisbatan ishlatiladi (odam, oʻqituvchi, Sanjar, Shirin va h.), *nima?* soʻrogʻi esa qolgan hamma otlar uchun qoʻllaniladi (hayvon, qumursqa va jonsiz narsalar).

Otning quyidagi turlari bor:.

**Atoqli otlar** – имена собственные: *Anvar, Zuhra, Mars*.

**Turdosh otlar** – имена нарицательные: *kitob, daftar, qalam*.

**Mavhum otlar** – абстрактные имена существительные: *doʻstlik* (дружба), *baxt* (счастье), *omad* (удача) и т.д.

**Jamlovchi otlar** – собирательные имена существительные: *xalq* (народ), *qoʻshin* (войско), *toʻda* (шайка, стадо) и т.д.

**4-mashq.** Mavhum otlarni ajratib yozing, ular ishtirokida gaplar tuzing.

*nomus, vijdon, goʻzallik, kalit, bilim, bolta, sogʻinch, gul, bogʻ, toʻgʻrilik.*

**5-mashq.** Atoqli otlarni bir ustunga, turdosh otlarni ikkinchi ustunga yozing. Istagan beshta gapingizni tarjimasi bilan yozing.

1. *Malika hozir kelib to`xtagan avtobusga chiqish uchun yugurib borardi.* 2. *Majlis raisi navbatdagi o`qituvchiga so`z berdi.* 3. *Ma`ruzadan so`ng hammamiz konsertga boramiz.* 4. *Metro bizni uyimizga 15 daqiqada olib boradi.* 5. *Hamma sayyoralardan Yerga eng yaqini Marsdir.* 6. *Alisher Navoiy o`zbek xalqining buyuk mutafakkiridir.* 7. *Anvarxon guruhimizning a`lochi talabalaridan.* 8. *Temurning dadasi fakultetimiz dekani.* 9. *Sirdaryo va Amudaryo Orol dengiziga quyiladi.* 10. *O`zbek tili o`qituvchimiz Kuba, Tailand, Hindiston va Arabiston to`g`risida qiziq narsalar so`zlab berdi.* 11. *Bizning guruhimizda Nodira, Nargiza, Sanjar, Behzod, Jasur kabi a`lochi talabalar o`qiydi.* 12. *Bahorning dastlabki kunlari kamdan kam bunday issiq bo`ladi.* 13. *Husayn qo`shinlari tunda Hirotni tashlab chiqa boshladi.* 14. *Ovchilarning chaqirganiga hech kim ovoz bermadi.*

#### **6-mashq.** O`zbek tiliga tarjima qiling.

1. *Мой брат ещё в детстве научился читать и писать.* 2. *Книга – друг человека.* 3. *В кружке по узбекскому языку часто проводятся дискуссии по прочитанным книгам.* 4. *Айбек – псевдоним писателя Мусы Ташмухамедова.* 5. *Поэтесса Увайси жила в XIX веке. Её звали Жахонотин. Увайси – это её псевдоним.*

Ot so`z turkumi o`zbek tilida uch xil grammatik kategoriyaga ega. Shulardan ikkitasi kelishik va son doimiy hisoblanadi, egalik muqim emas, ya`ni ot so`z turkumi har doim u yoki bu kelishikda va birlik yoki ko`plikda bo`ladi. Egalik ko`rsatilishi va ko`rsatilmaligi ham mumkin.

*Gul* – bosh kelishik, birlik

*Gulim* – bosh kelishik, birlik, 1-shaxs egaligi.

## OT YASALISHI

Ot soʻz turkumi oʻzbek tilida ikki xil yoʻl bilan yasaladi: qoʻshimcha qoʻshish va ikki va undan ortiq soʻzlarni qoʻshish yoʻllari.

Tilda eng faol qoʻshimchalar quyidagilar:

- chi:** *ishchi* (рабочий), *gilchi* (цветовод), *betonchi* (бетонщик);
- dosh:** *vatandosh* (соотечественник), *sinf-dosh* (одноклассник);
- dor:** *chorvador* (животновод), *aybdor* (виновник);
- lik:** *yaxshilik* (доброта), *yomonlik* (зло), *rostgoʻylik* (правдивость), *doʻstlik* (дружба).
- kor:** *raxtakor* (хлопкороб), *gʻallakor* (хлебороб);
- zor:** *raxtazor* (хлопково поле), *olmazor* (яблонево сад), *terakzor* (тополияная роща);
- goh:** *oʻyingoh* (стадион), *sihatgoh* (санаторий);
- chilik:** *raxtachilik* (хлопководство), *oʻrmonchilik* (лесоводство);
- xona:** *oshxona* (столовая, кухня), *korxonona* (предприятие);
- noma:** *taklifnoma* (пригласительный билет), *tabriknoma* (поздравление), *tavsifnoma* (характеристика);
- shunos:** *adabiyotshunos* (литературовед), *sanʻatshunos* (искусствовед);

Murakkab otlar quyidagi juftlar bilan yasalishi mumkin:

- ot+ot: *Osh+qozon* (желудок), *koʻz+oynak* (очки), *tosh+oyna* (трюмо);
- sifat+ot: *Koʻk+terak*, *Qizil+tepa*, *Issiq+koʻl*, *Oʻrta+Chirchiq*;
- son+ot: *toʻrt+burchak* (прямоугольник), *Toʻrt+koʻl*, *Besh+yogʻoch*.

Juft otlar sinonim soʻzlardan: *doʻst-yor* (друзья) yoki antonim soʻzlardan *ota-ona* (родители) tarkib topadi va koʻpincha jamlovchi maʼnoni beradi.

**7-mashq.** O`zbek tiliga tarjima qiling. Shu so`zlar ishtirokida 5-6 ta gap tuzing.

*Сварщик, языковед, искусствовед, арендатор, вишневый сад, лужайка, цыпленок, теленок, жеребенок, волчонок.*

**8-mashq.** Rus tiliga tarjima qiling.

*Qisqichbaqa, toshbaqa, uchburchak, ko`pburchak, kitobxon, soatsoz, bog`bon, oshpaz.*

**9-mashq.** Matni o`zbek tiliga tarjima qiling.

### НАША КВАРТИРА

Мы живем в многоэтажном доме. Наша квартира на третьем этаже. Она светлая и красивая. В квартире три комнаты. Большая комната – гостиная. В ней диван, шкаф. На стене висит коврик. По середине комнаты большой стол. На столе белая скатерть. Вокруг стола шесть стульев. Другая комната – моя спальня. Третья – детская. В этой комнате две кровати, шкафчик. Мне очень нравится наша квартира. Она уютная, чистая.

## 7-DARS

### O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT MUZEYI

#### *Og`zaki nutq:*

O‘zbekiston davlat san’at muzeyi O‘rta Osiyoda ilk bor tashkil etilgan badiiy muzey bo‘lib, 1918-yilda Toshkent shahrida Xalq universiteti muzeyi sifatida asos solingan. Keyinchalik Markaziy badiiy muzey, 1924-yildan Toshkent san’at muzeyi, 1935-yildan hozirgi nomda. Muzey Toshkentda yashagan knyaz N.K.Romanovning shaxsiy to‘plami (rus va G‘arbiy Yevropa rassomlari yaratgan portret va tarixiy kartinalar, grafika va haykaltaroshlik asarlari, badiiy mebel, chinni buyumlar va boshqalar) negizida vujudga kelgan. Turkiston o‘lkashunoslik muzeyining badiiy bo‘limidan va boshqa muzeylarning fondlaridan, shaxsiy to‘plamlardan san’at asarlari keltirilib boyitilgan. Muzeyda XIX asr rus rassomlarining nodir asarlari to‘plangan (I.Ye.Repin, V. A. Serov, I.I. Levitan, N.K.Rerix va boshqalar).

Muzeyda O‘zbekiston xalq amaliy san’ati, O‘zbekiston tasviriy san’ati, rus san’ati, G‘arbiy Yevropa san’ati, Xorijiy Sharq xalqlari san’ati bo‘limlari, xazina, ta‘mirlash ustaxonasi, fotolaboratoriya bor, lektoriy tashkil etilgan.

Muzey ekspozitsiyasi san’at janri va turlariga ajratilgan holda xronologik tartibda tuzilgan.

Muzey fondining katta qismini O‘zbekiston tasviriy san’ati asarlari tashkil qiladi: O‘.Tansiqboyev, A.Abdullayev, Ya.Abdullayev, Sh.Hasanova, Ch.Ahmarov, R.Ahmedov, N.Qo‘ziboyev, S.Abdullayev, R.Choriyev ijodi, tasviriy san’at taraqqiyotidagi ularning hissasi muzey ekspozitsiyalarida o‘z aksini topgan. Muzey, shuningdek, boy o‘zbek amaliy san’ati to‘plamiga ega: ganch, yog‘och va tosh o‘ymakorligi namunalari, zargarlik, gilamchilik, kashtado‘zlik, kulollikka mansub qimmatli buyumlar o‘zbek xalqining qadimiy va boy amaliy bezak san’ati haqida mukammal ma’lumot beradi.

Muzeyda G'arb (Italiya, Ispaniya, Germaniya, Niderlandiya, Fransiya, Buyuk Britaniya) va Sharq (Hindiston, Xitoy, Yaponiya, Vyetnam, Myanma) mamlakatlarning tasviriy san'at asarlari va amaliy san'ati namunalariga keng o'rin berilgan.

**1-mashq.** Matnga munosabat bildirib so'zlang.

*Yozma nutq:*



**2-mashq.** Jahonning mashhur muzeylari haqida qiziqarli ma'lumotlar tayyorlang.

### Mustaqil ta'lim

*O'zbekiston muzeylaridan biri haqida taqdimot tayyorlash.*

*Grammatika:*

## EGALIK QO`SHIMCHALARI

Egalik qo'shimchalari predmetning uchta shaxsning biriga tegishli ekanligini ko'rsatadi va otlarga quyidagicha qo'shiladi:

### **Birlik**

*ota-m* (мой отец)

*ota-ng* (твой отец)

*ota-si* (его отец)

*kitob-im* (моя книга)

*kitob-ing* (твоя книга)

*kitob-i* (его книга)

### **Ko`plik**

*ota-miz* (наш отец)

*ota-ngiz* (ваш отец)

*ota-si* (их отец)

*kitob-imiz* (наши книги)

*kitob-ingiz* (ваши книги)

*kitob-i* (их книги)

Egalik qo'shimchalari qo'shilishi bilan so'z o'zagida o'zgarish sodir bo'lishi kuzatiladi:



Ikkinchi bo`g`inda unli harf tushib qoladi:

<i>o`rin</i> (место)	<i>-im</i>	<i>o`rnim</i> (мое место)
<i>qorin</i> (живот)	<i>-i(-si)</i>	<i>qorni</i> (его живот)
<i>bo`yin</i> (шея)	<i>-ing</i>	<i>bo`yning</i> (твоя шея)
<i>bo`g`iz</i> (гортань)	<i>-im</i>	<i>bo`g`zim</i> (моя гортань)
<i>og`iz</i> (рот)	<i>-i(-si)</i>	<i>og`zi</i> (его рот)
<i>burun</i> (нос)	<i>-ing</i>	<i>burning</i> (твой нос)
<i>shahar</i> (город)	<i>-i(-si)</i>	<i>shahri</i> (его город)
<i>Singil</i> (младшая сестра)	<i>-ing</i>	<i>singling</i> (твоя младшая сестра)
<i>ko`ngil</i> (душа)	<i>-im</i>	<i>ko`nglim</i> (моя душа)

So`zning oxiridagi *q* hamda *k* harflari *g`* yoki *g* ga alanadi:

*Kerak – keragi* (*yo`q*) (нет необходимости).

*Qishloq – qishlog`i*.

Istisno holatlar ham mavjud, quyidagi so`zlarda o`zgarish kuzatilmaydi: *ishtirok* (участие), *idrok* (разум), *peshtoq* (фасад), *ishtiyoq* (страсть). Ba`zan 1-2 shaxs ko`plikda egalik qo`shimchasi tushib qolishi mumkin. Bu holda, albatta, tegishli kishilik olmoshi qo`llanilishi kerak: *bizning ko`cha, sizning maktab*.

**3-mashq.** O`zbek tiliga tarjima qiling.

*Мой сад, его младшая сестра, их места, его место, твой город, мой рот, моя комната, мой друг, мое ведро, твоя семья.*

**4-mashq.** O`qing. Tagiga chizilgan so`zlarning qaysi shaxsda ekanini ayting.

1. Yurtimiz boy va qadimiy tarixga ega. 2. Ona yurting omon bo`lsa, rang-u ro`ying somon bo`lmas. 3. Bizning ko`chada chiroyli uylar ko`p. 4.

*Mahallamiz kishilari juda ahil yashaydilar. 5. Vatan ostonadan boshlanadi.*

**5-mashq.** Soʻz shakllarini rus tiliga tarjima qiling.

*Eshigim, chirogʻim, qadamlar, oyimlarning, sinfingiz, qoʻllarim, tozaligi, charchogʻi.*

## OTLARDA TURLANISH

Otlarning kelishikda oʻzgarishi turlanish deyiladi. Oʻzbek tilida 6 ta kelishik bor:

- 1. Bosh kelishik** (Начальный падеж)
- 2. Qaratqich kelishigi** (Притяжательный падеж)
- 3. Tushum kelishigi** (Винительный падеж)
- 4. Joʻnalish kelishigi** (Направительный падеж)
- 5. Oʻrin-payt kelishigi** (Местно-временной падеж)
- 6. Chiqish kelishigi** (Исходный падеж)

**Bosh kelishik** otning bosh shakli hisoblanadi. Bu kelishikdagi soʻzlar *kim?* (кто?), *nima?* (что?) soʻroqlariga javob boʻladi. Mazkur kelishik hech qanday qoʻshimchaga ega emas: *moʻjiza* (чудо), *tarix* (история), *yechim* (решение) va h.

**6-mashq.** Atoqli otlardan turdosh otlar yasang.

*Yer, Navoiy, Bobur, Temur, Toshkent, Michurin.*

**Qaratqich kelishigi** -ning qoʻshimchasiga ega. Bu kelishikdagi soʻz boshqa narsaning unga tegishli ekanligini koʻrsatadi, yaʼni, oʻzidan keyin kelgan soʻzni oʻziga ergashtiradi:


*Karimning kitobi* – книга Карима

*kitob varagʻi* – страница книги.

Mazkur kelishikdagi soʻz *kimning?* (чей? кого?), *nimaning?* (чего?), *qayerning?* (какого места?) soʻroqlariga javob boʻladi..

Bu kelishikdagi soʻz qaratqich aniqlovchi hisoblanadi.

Qaratqish kelishigi **belgili** (оформленный) и **belgisiz** (неоформленный) boʻlishi mumkin. Quyidagi holatlarda belgisiz qaratqich kelishigi ishlatiladi:



**7-mashq.** Koʻchiring. Belgilangan soʻzlarning qaysi kelishikda ekanini aniqlang.

1. *Ajdodlar mardona ruhi senga yor.* (A. Oripov) 2. *Oʻzbekiston – ulkan imkoniyatlar mamlakati.* 3. *Otning yaxshisi uloqda bilinadi.* 4. *Toshkentning soʻlim xiyobonlari kishi diliga sokinlik baxsh etadi.*

**Tushum kelishigi.** Tushum kelishigidagi soʻzlar *-ni* qoʻshimchasini oladi va *kimni?* (кого), *nimani* (что?), *qayerni?* (какого места?) soʻroqlariga javob beradi. Shaxs, predmetning bevosita harakatga oʻtishini koʻrsatadi:

*Sheʼrni yod oldim* (я выучил стихотворение)

*Matnni tarjima qildim* (я перевел текст).

Tushum kelishigi ham **belgili** va **belgisiz** boʻlishi mumkin:

*kitobni oʻqimoq – kitob oʻqimoq*

Belgisiz tushum kelishigi, asosan, bir turdagi predmetni anglatganda qoʻllaniladi. Uni alohida taʼkidlashga ehtiyoj yoʻq:

*Murotali koʻchat oʻtqazardi.* – Муротали сажал саженцы.

*Bir kishi ariq qaziydi, ming kishi suv ichadi.* (Maqol) – Один поет арык, тысяча людей пьют из него.

Tushum kelishigidagi soʻzlar *sheʼriyatda -n* qoʻshimchasiga ega boʻlishi mumkin. *Har fasl oʻz ishin qilsin, Qishboy qishligin qilsin.* Bu kelishikdagi soʻzlar toʻldiruvchi hisoblanadi.

**8-mashq.** Quyidagi gaplarni o'z daftaringizga ko'chirib yozing, belgilangan so'zlarning qaysi kelishik shaklida ekanini aniqlang.

1. *Yaxshisi, bu uchrashuvni tezlashtirish kerak.* 2. *Bog'da olma, o'rik, shaftoli gulladi.* 3. *O'zbekistonning hayvonot olami rang-barang.* 4. *Do'kondan o'quv qurollari sotib oldim.*

**Jo'nalish kelishigi.** Jo'nalish kelishigidagi so'zlar harakat, joy, va zamonning predmetga yo'nalganligini ko'rsatib, *kimga?* (кому?), *nimaga?* (чему?), *qayerga?* (куда?), *qachonga?* (на какое время?) so'roqlariga javob bo'ladi. Masalan:

*O'zbek tili kitobimni kursdoshimga berdim.* (Книгу по узбекскому языку я отдал своему однокурснику)

*Misollarni avval sinf taxtasiga, so'ng daftarga yozdim.* (Примеры я написал сперва на доске, затем в тетрадь)

*Darsdan keyin kutubxonaga boramiz* (После занятий пойдем в библиотеку)

*Kafedra yig'ilishi chorshanbaga belgilandi* (Заседание кафедры назначено на среду)

Bu kelishik qo'shimchasini qo'shilganda quyidagi o'zgarishlar sodir bo'ladi:

Agar so'z *k* bilan tugasa, kelishik qo'shimchasi *-ka* shaklida talaffuz etiladi va yoziladi: *to'garakka* (в кружок) *chelakka* (в ведро), *tilakka* (пожеланию). Agar so'z *g* harfi bilan tugasa, kelishik qo'shimchasi bilan birgalikda ikkala *g* ham *k* bilan yoziladi: *barg+ga – barkka* (на лист). Agar so'z *q* harfi bilan tugasa, kelishik qo'shimchasi *-qa* shaklini oladi: *o'tloq+qa* (на лужайку), *qishloqqa* (в село), *buloqqa* (на родник).

**Eslatma:** Quyida berilgan imlo qoidalari barcha *g* harfi bilan boshlanadigan qo'shimcha va *g*, *k*, *g'*, *q* harfi bilan tugaydigan so'zlarga tegishli.

*ek+gan – ekan* (посеявший);

*eg+gan – eggan* (согнувший);  
*og'+gan – og'gan* (согнувшийся);  
*oq+gan – oqqan* (текущий) va h.

*Kimga? nimaga?* so`rog`iga javob bo`luvchi bu kelishikdagi so`zlar vositali to`ldiruvchi; *qayerga?* so`rog`iga javob bo`luvchi so`z orin holi; *qachonga?* so`rog`iga javob beruvchi so`z payt holi hisoblanadi.

**O`rin-payt kelishigi.** Bu kelishik harakatning o`rni va payti, predmet yoki shaxsning o`rniga ishora qiladi. Bu kelishikdagi so`z *-da* qo`shimchasini oladi va *kimda?* (у кого?, на ком?), *nimada?* (на чем?, в чем?), *qaerda?* (где?), *qachon?* (когда?) so`roqlariga javob bo`ladi. Masalan:

*Mening lug`at daftarim o`rtog`imda.* (Мой словарь у моего друга).

*Shunaqa ko`ylakni o`qituvchimda ko`rdim.* (Такую же сорочку я видел у своего преподавателя).

*U doim trolleybusda o`qishga keladi.* (Он всегда на учебу приезжает в троллейбусе).

*U ko`ylakda tug`ilgan.* (Он родился в рубашке).

*Bahorda dala ishlari qizib ketadi.* (Весной на полях кипит работа).

Bu kelishikdagi so`zlar gapda (*kimda?*, *nimada?* so`roqlariga javob bergan holda) vositali to`ldiruvchi, (*qaerda?* so`rog`iga javob berib) o`rin holi, (*qachon?* so`rog`iga javob berib) payt holi, shuningdek kesim ham bo`lishi mumkin.

**9-mashq.** Ko`chiring. O`rin-payt kelishigidagi so`zlarga qanday savol berilishini ayting. Rus tiliga tarjima qiling.

1. *Biz yozda ishlab chiqarish amaliyotida bo`lamiz.* 2. *O`zbekistonomizda xushmanzara joylar juda ko`p.* 3. *Istiqlol yillarida yurtimizda sportning barcha turlari jadal rivojlanmoqda.* 4. *Universitet birinchiligida kursdoshlarimiz faol qatnashishdi.*

**Chiqish kelishigi.** Chiqish kelishigidagi soʻzlar harakatning boshidagi oʻrni hamda paytini, shuningdek, predmetning tayyorlangan xom ashyosini koʻrsatadi. Ular *-dan* qoʻshimchasi bilan yasaladi va *kimdan?* (от кого? у кого?), *nimadan?* (из чего? от чего?), *qaerdan?* (откуда?), *qachondan?* (с каких пор?) soʻroqlariga javob boʻladi. Masalan:

*Uyat oʻlimdan qattiq* (Стыд страшнее смерти).

*Koʻzacha toza tuproqdan yasalgan* (Кувшинчик изготовлен из чистого грунта).

*Men bu haqda onamdan eshitdim* (Об этом я узнал от матери).

*Bugun biznikiga qishloqdan mehmonlar kelishdi* (Сегодня к нам приехали гости из деревни).

*Oʻqishlar dushanbadan boshlanadi* (Учеба начинается с понедельника) и т.д.

Bu kelishikdagi soʻzlar kesim, toʻldiruvchi, oʻrin va payt holi boʻlib kelishi mumkin. Baʼzan oʻzak yoki negiz jarangsiz tugagan soʻzlarda, kelishik qoʻshimchasi *-tan* boʻlib eshinishi mumkin, ammo har doim *-dan* yoziladi. Misol uchun: *Shu paytdan* (с этого времени), *uyatdan* (со стыда, стыдясь) va h. Soʻzlar *-dan*, shuningdek, *u* (он), *bu*, *shu*, (этот), *oʻsha* (тот) olmoshlari *-ga*, *-da* qoʻshimchalarini olganda, qoʻshimchalar oldidan *-n* harfi qoʻshiladi: *bunga*, *shunga* va h.

**10-mashq.** Rus tiliga tarjima qiling. Chiqish kelishigidagi soʻzlarga savollar bering.

1. *Janubdan kelgan shamol issiq boʻladi.* 2. *Biz bugungi tadbirdan juda mamnun boʻldik.* 3. *Uning atlasdan did bilan tikilgan koʻylagi oftobda tovlanadi.* 4. *Toshkentdan Samarqandgacha mashinada toʻrt soatcha yuriladi.* 5. *Men, odatda, uydan soat sakkizda chiqaman.*

## OTLARDA SON

Ot soʻz turkumi birlikda hech qanday morfologik koʻrsatkichga ega emas. Otlarda koʻplik quyidagi yoʻllar bilan yasaladi:

a) *-lar* qoʻshimchasi yordamida: *kitob-kitoblar, gul-gullar, bogʻ-bogʻlar* и т.д.

b) son yordamida: *oʻnta kitob, beshta viloyat, oʻttizta talaba* и т.д.

д) juft soʻzlar yordamida: *qop-qop un* (мешки муки), *toʻp-toʻp bolalar* (группы детей), *dasta-dasta gul* (букеты цветов) и т.д.

**Eslatma:** *-lar* qoʻshimchasi omonimik xususiyatga ega. Atoqli otlarga, faqat birlikda ishlatilgan otlarga qoʻshilganda turli modal maʼnolarni beradi.

Oʻzbek tilida ot soʻz turkumi quyidagi funksional shakllarga ega:

- kichraytirish: *-cha, -choq, -chak: uycha* (домик), *filcha* (слоник), *baliqcha* (рыбка), *qoʻzichoq* (ягненок), *kelinchak* (невестка).

- erkalash *-xon, -jon, -oy: oyijon* (мамочка), *Azizaxon* (Азизочка), *Hakimjon* (Хакимчик), *Halimaoy* (Халимочка) и т.д.

- egalik: *-niki: kitob Rustamniki*.

- chegaralovchi: *-gacha* (до): *markazgacha* (до центра), *uygacha* (до дома).

- hurmatlovchi: *-lar: dadamlar, oyimlar*

**11-mashq.** Rus tiliga tarjima qiling.

*Tonna-tonna paxta, akalarim, akamlar, kitobcha, toychoq, manzilgacha, mashina dadamniki.*

**12-mashq.** Yuqoridagi soʻz va birikmalar qatnashgan gaplar tuzing.

**13-mashq.** Oʻzbek tiliga tarjima qiling.

1. После уроков я поеду к бабушке. 2. В нашей группе учится 32 студента. 3. К празднику мы готовим ряд мероприятий. 4. Книга принадлежит учителю. 5. До города Газалкента 40 минут езды.



## 8-DARS

### O`ZBEKISTON YOSHLAR ITTIFOQI

#### *Og`zaki nutq:*

Mamlakatimizda O`zbekiston yoshlarini birlashtiruvchi nodavlat notijorat tashkilot tashkil etilgan bo`lib, u O`zbekiston “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati nomi ostida 2001-yilda yoshlar hayotiga kirib kelgan edi. 2017-yil 30-iyun kuni O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shafkat Mirziyoyevning “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyidagi nutqida mutlaqo yangi tashkilot – O`zbekiston yoshlar ittifoqini tashkil etishni taklif etdi va “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O`zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo`llab quvvatlash to`g`risida”gi farmonini e`lon qildi (05.07.2017). 30-iyun sanasi esa mamlakatimizda “Yoshlar kuni” deb belgilandi.

Ittifoqning to`liq nomi:

- davlat tilida kirill yozuvida – **Ўзбекистон ёшлар иттифоқи;**
- davlat tilida lotin yozuvida – **O`zbekiston yoshlar ittifoqi;**
- rus tilida – **Союз молодежи Узбекистана;**
- ingliz tilida – **Uzbekistan Youth Union.**

Ittifoqning asosiy maqsadi:

- ✓ yoshlarni mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik, siyosiy va iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish jarayonlariga jalb qilish;
- ✓ jamiyatda tinchlik va hamjihatlikni mustahkamlash jarayonlariga jalb qilish;
- ✓ O`zbekistonni jahonning rivojlangan mamlakatlari qatoriga kirishi jarayonlariga jalb qilish;
- ✓ yosh avlodning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini samarali himoya qilishni ta`minlash;
- ✓ yigit-qizlarning ma`naviy va kasbiy saviyasini yuksaltirish, ularning intellektual va ijodiy salohiyatini ro`yobga chiqarishga ko`maklashish.

Shuningdek, ijtimoiy hayotning turli jabhalarida fidokorona mehnat qilib kelayotgan, soha rivojiga o`zining munosib hissasini qo`shayotgan yoshlarga davlat va jamiyat oldidagi xizmatlari uchun e`tirof hamda rag`batlantirish maqsadida “O`zbekiston yoshlar ittifoqi mukofoti” ta`sis etilgan.

Mukofot sovrindorlariga eng kam ish haqining 30 baravari miqdorida pul mukofoti, statuetka hamda maxsus diplom topshiriladi.


Mukofot sovrindorlari Yangi yil bayrami arafasida tantanali ravishda taqdirlanadi.

**1-mashq.** Matnni o`qing, mazmunini ijodiy so`zlab bering.

*Yozma nutq:*

**2-mashq.** “Iqtidorli yoshlar” mavzusida matn tuzish.

**3-mashq.** “Mening tengdoshlarim” mavzusida dialog tuzish

 **4-mashq.** Yoshlar hayotidan qiziqarli hodisa va voqealar to`g`risida hikoya tuzish.

*Grammatika:*

## SIFAT

Predmet yoki shaxsning belgisini bildiruvchi so`z turkumiga sifat deyiladi. O`zbek tilida ular *qanday? qanaqa?* (какой?), *qaysi?* (который?) so`roqlariga javob bo`ladi.

Sifatlar o`zbek tilida quyidagi turlarga bo`linadi:

1. **Xususiyat bildiruvchi.** Ular shaxslarning ham predmetning ham xususiyatini bildiradi: *kamtarin* (скромный), *ayyor* (хитрый), *yuvosh* (смирный), *yaxshi* (хороший);

2. **Holat bildiruvchi:** *xursand* (веселый, радостный), *xafa* (грустный), *keksa* (старый), *sovuq* (холодный), *tinch* (спокойный, тихий);

3. **Shakl bildiruvchi:** novcha (высокий), yassi (плоский), gavgali (рослый);

4. **Rang-tus bildiruvchi:** pushti (оранжевый), zangori (голубой);

5. **Maza-ta'm bildiruvchi:** shirin (сладкий), pordon (горький), achchiq (острый), sho`r (солёный).

6. **Hajm-o`lchov bildiruvchi:** keng (широкий), tor (узкий), uzun (длинный), og`ir (тяжёлый);

7. **Hid bildiruvchi.** Ular ko`p emas: xushbo`y (приятный), badbo`y, sassiq, qo`lansa (неприятный).

**5-mashq.** Sifatning har bir ma'no turiga beshtadan misolni tarjimasini bilan yozing. Ularni qatnashtirib beshta gap tuzing.

**6-mashq.** O`zbek tiliga tarjima qiling.


1. Алишер Навои – выдающийся деятель узбекской классической литературы.

2. Улицы нашего города широкие и светлые.


3. Летом большой спрос на прохладительные напитки.

4. С утра подул приятный ветерок.

5. Мой старший брат – страстный болельщик «Пахтакор»а.

 **7-mashq.** Matnni rus tiliga tarjima qiling, mazmunini aytib bering.

Sharq mamlakatlari orasida O`zbekiston o`ziga xos boy tarixi, san'ati va madaniyati bilan alohida ajralib turadi. Bu o`lkaning ko`hna noyob me'moriy obidalari, eng yangi zamonaviy binolar chet mamlakatlarda doimo katta qiziqish uyg`otgan. Qadimgi qo`rg`onlardan topilgan osori atiqalarining bugungi kundagi namunalari millatimiz, madaniyatimiz ko`rki ekanligini jahonga ma'lum qilish va bunga yetarlicha asos borligini qayd etish asosiy vazifamiz.

 **8-mashq.** Matndagi sifatlarni ko`chirib yozing. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

## SIFAT YASALISHI

Sifat soʻz turkumi oʻzbek tilida ikki xil yoʻl bilan yasaladi: soʻz yasovchi qoʻshimchalar va oʻzaklarni qoʻshish yoʻli bilan.

Tilda eng faol qoʻshimchalar quyidagilardir:


- li:** *aqlli* (умный), *gulli* (цветочный), *qiziqarli* (интересный).
- siz:** *savodsiz* (неграмотный), *suvsiz* (безводный).
- chan:** *ishchan* (деловой), *uyatchan* (стеснительный).
- aki:** *yuzaki* (поверхностный), *ogʻzaki* (устный).
- ma:** *yozma* (письменный), *qovurma* (жареный).
- be-:** *beodob* (невоспитанный), *bebaho* (бесценный).
- ba-:** *badavlat* (богатый), *baodob* (воспитанный).
- ser-:** *sersuv* (многоводный), *serhosil* (плодородный).
- no-:** *notinch* (неспокойный), *noxush* (непритяный).
- gin:** *horgʻin* (усталый), *keskin* (резкий).
- choq:** *erinchoq* (ленивый), *maqtanchoq* (хвастливый).
- gir:** *oʻtkir*, *olgʻir* (хваткий), *sezgir* (чуткий).
- gi:** *kuzgi* (осенний), *bugungi* (сегодняшний).

Qoʻshma sifatlar quyidagi yoʻllar bilan yasaladi:

- 1) sifat + sifat: *och sariq*, *toʻq qizil*;
- 2) sifat + ot: *ochkoʻz* (жадный), *ochiq koʻngil* (добрый);
- 3) ot + feʻl: *muzyorar* (ледокол);
- 4) ot + ot: *havo rang* (голубой), *sheryurak* (храбрый), *toshyurak* (жестокий);
- 5) ravish + ot: *hozirjavob* (быстрый), *kamgar* (молчаливый).

## SAFAT DARAJALARI

Predmetlardagi bir xil sifatlarni qiyoslash sifat soʻz turkumi darajalari bilan ifodalanadi.



Oddiy darajada predmet belgisi boshqa predmet belgisi bilan qiyoslanmasdan ataladi. U sifatning bosh shakli hisoblanadi: *oddiy* (простой), *goʻzal* (красивый), *oq* (белый) и т.д.

Qiyosiy daraja belgining biror belgidan koʻproq yoki kamroq darajasini bildiradi. U ikki xil yoʻl bilan yasaladi: **-roq** qoʻshimchasi bilan: *oqroq* (белее), *kuchliroq* (сильнее), *tekisroq* (ровнее) va h. Soʻzlar bilan: *sal*, *biroz*, *xiyol* (немного, чуть): *sal baland* (чуть выше), *sal past* (чуть ниже).

Orttirma daraja belgining meyordan ortiq darajasini bildiradi. U ham ikki xil yoʻl bilan yasaladi:

1. **Juda** (очень), **eng** (самый), **gʻoyat(da)** (очень), **nihoyat(da)**, **behad** (безгранично) soʻzlari bilan: *juda yoqimli* (очень приятный), *behad shod* (безгранично радостный) и т.д.

2. Sifatning birinchi boʻgʻini yoki uning boshi mazkur sifatning oldidan qoʻshib juft holda aytiladi, bundan tashqari qoʻshilgan boʻgʻinga **p**, **m** qoʻshib yoki birinchi boʻgʻindagi boshqa tovush oʻrniga aytiladi: *qopqora* (черный), *yam-yashil* (очень зеленый), *dum-dumaloq* (круглый-круглый) va h. Shuningdek, orttirma darajani unli harfni meyordan ortiq talaffuz etish yoki undosh harfning ikki marta koʻp talaffuz etish yoʻli bilan ham yasaladi: *uzu-u-un* (yoʻl), *tekkis* (yoʻl) va h. Sifatlarning ayrim turi darajalanish xususiyatiga ega emas: *sirtqi* (заочный), *devoriy* (стенная) va h.

**9-mashq.** Berilgan sifatlarning qiyosiy va orttirma daraja shakllarini yozing. Shu soʻzlarni qatnashtirib gaplar tuzing.

*Sariq, qizil, kamtar, saxiy, toza.*

 **10-mashq.** Rus tiliga tarjima qiling.

*1. Oʻlkamizda saxiy kuz davom etmoqda. 2. Oq oltindan baland-baland xirmonlar uyulmoqda. 3. Tonggi sukunatni qushlarning chugʻur-chugʻurigina buzardi. 4. Bayramga bagʻishlangan devoriy gazetalar tanlovida biz gʻolib boʻldik.*

**11-mashq.** Oʻzbek tiliga tarjima qiling.


Сегодняшний, вчерашний, прошлогодний, завтрашний, вечерний, утренний, осенний, хмурый, грустный, веселый, беспечный.

## SIFATNING OTLASHISHI


**Sifatning otlashishi** – sifatlarning ot oʻrnida qoʻllanishi. Oʻzbek tilida sifatlarni turlanmaydi va koʻplik shakliga ega emas. Ayrim hollarda otlarga tegishli qoʻshimchalar bilan qoʻllanadi, mana shu sifatning otlashishi hisoblanadi: *Yaxshiga yondosh, yomondan qoch* (Буквально, будь с хорошим (человеком), остерегайся плохого).

**12-mashq.** Rus tiliga tarjima qiling.

*1. Oqlar boshlaydi va uch yurishda mot qiladi. 2. Yaxshilar koʻpaysin, yomon qolmasin. 3. Ahmoq oʻzini maqtaydi.*

 **13-mashq.** Soʻz birikmalarini rus tiliga tarjima qiling va ular ishtirokida gaplar tuzing.

*Navqiron shahar, zamonaviy inshootlar, antiqa taom, benihoya mamnun.*

 **14-mashq.** Quyidagi ranglarning izohiga qarab ruscha muqobilini toping.

<b>Oq</b> – paxta rangi	<i>Белый</i>
<b>Qora</b> – ko`mir rangi	<i>Черный</i>
<b>Samoniy</b> – somon rangi	...
<b>Zangori</b> – to`q osmon rangi	
<b>Havo rang</b> – osmon rangi	
<b>Sariq</b> – momaqaymoq (qoqi o`t) gulining rangi	
<b>Qizil</b> – anor gulining rangi	
<b>Kulrang</b> – yongan o`tindan hosil bo`lgan kul rang	
<b>Binafsha</b> – gunafsha gulining rangi	
<b>Yashil</b> – to`q barg rangi	
<b>Malla</b> – limon mevasining rangi	
<b>Moviy</b> (nilufar) – erta tongdagi sof osmon rangi	
<b>Mosh rang</b> – pishgan mosh donining rangi	
<b>Zarg`aldoq (noranj)</b> – apelsin, zarg`aldoq shaftoli rangi	
<b>Jigarrang</b> – mol jigaringa rangi	
<b>Qirmizi</b> – anor mevasi donalarining rangi	
<b>Shingob</b> – tilla rang	
<b>To`tiyo</b> – yorqin yashil, meditsinada ishlatiladigan zelonka rangi	
<b>Novvoti</b> – novvot rangi	
<b>Pistoqi</b> – kungaboqar pistasi mag`zining rangi	
<b>Pushti</b> – och zarg`aldoq rang	
<b>Lolaro`y</b> – lola gulining rangi	
<b>Sadaf</b> – oq sarg`ish	
<b>Lojuvard</b> – eng to`q zangori rang	
<b>Sabza</b> – erta bahorda yangi o`sib chiqqan o`t rangi	
<b>Bronza</b> – kumush rang	
<b>Nofarmon</b> – och binafsha rang	
<b>Noranjvash</b> – och apelsin rangi	
<b>Zumrad</b> – yashil yaltiroq tosh rangi	
<b>Zafaron</b> – to`q sariq rang	
<b>Gulgun</b> – shafaq rangi	

<b>Novshadil</b> – o`tkir yorqin yashil rang	
<b>Firuza</b> – yorqin zangori va yaltiroq tosh rangi	
<b>To`tigi</b> – zangori va yashil ranglar qo`shilmasidan olingan rang	
<b>Siylob</b> – simob rangi	
<b>Nilgun</b> – och jigarrang	



## 9-DARS

### DUNYONING ENG ZO`R UNIVERSITETLARI BESHTALIGI

#### *Og`zaki nutq:*

Bugungi kunda nufuzli oliygohda ta'lim olish har bir yoshning orzusiga aylangan. Ayniqsa, xorijiy mamlakatdagi eng zo`r universitetda o`qishni kim ham istamaydi. Dunyoda o`qitish saviyasi va obro`-e`tibori jihatidan biri biridan qolishmaydigan universitetlar juda ko`p. Quyida dunyoning eng yaxshi oliy o`quv maskanlari beshtaligini keltirib o`tamiz.

**1. Garvard Universiteti (Kembrij, Massachusets shtati, AQSH).** Garvard universitetiga 1636-yilda asos solingan. Ushbu universitetda dunyoning eng boy millat vakillari tahsil oladi. Jek Meyer rektorlik qilgan vaqtda universitet xazinasini o`n besh yil ichida 4,6 milliard dollardan 25,8 milliard dollargacha boyidi. Hozirgi kunda esa universitet 36 milliard dollarga egalik qiladi. Bu raqam kelajakda yanada kattalashishi kutilmoqda. Garvardning nufuzi uning boyligi bilan belgilanmaydi. Universitet 47 ta Nobel mukofoti laureatlari, 32 ta davlat rahbari hamda 48 ta jurnalist uchun beriladigan Palitzer mukofoti g`oliblarini yetishtirib bergan. Uning kutubxonasida tibbiyot, huquq, biznes va boshqa sohaga oid jami 6 million jild kitob saqlanadi.

**2. Kembrij universiteti (Kembrij, Buyuk Britaniya).** Dunyoning eng ko`hna universitetlaridan biri Kembrijga 1209-yilda asos solingan. G`arb ilm-fan taraqqiyotining asosi bevosita Kembrij bilan bog`liq. Yevropaning Frensis Bekon, Isaak Nyuton, Charles Darvin, Diziderius Erasmus kabi buyuk allomalari aynan shu universitetda ta'lim olgan. Fizika qonuniyati, kompyuter ilmining ilk asosi, biologik tajribalar Kembrijda yaratilgan. Universitetni tamomlagan olimlarning 80 nafari Nobel mukofoti laureati degan nomga sazovor bo`lgan. Kembrijda bugungi kunda 135 mamlakattan kelgan 18000 ta talaba tahsil oladi.

**3. Kolumbiya Universiteti (Nyu York, AQSH).** Dunyoning nufuzli universitetlaridan yana biri Kolumbiya universiteti boy tarixga ega.

Universitetning moddiy mablag'i 8,2 milliard dollarni tashkil etadi. Kutubxonasida esa 13 million jild kitob saqlanadi. Universitetining Nyu York shahrida beshta akademik shaharchasi va bitta kolleji mavjud. Universitetning tibbiyot fakulteti 1767-yilda ochilgan. Fakultetdan har yili 1400 nafar shifokor yetishib chiqadi. Kolumbiya universitetining Nyu Yorkdek ulkan shaharda yetakchilikni qo'lga olishi uning talabalariga shaharning yirik iqtisodiy, siyosiy va madaniy markazlariga ishga kirish imkonini beradi. Universitetni tamomlagan sakson ikki nafar talaba Nobel mukofotini qo'lga kiritgan.

**4. Oksford Universiteti.** Oksford universiteti tarixi o'n uchinchi asrga borib taqaladi. Universitet o'rta asrlardan buyon eng yuksak saviyadagi o'quv maskani bo'lib kelmoqda. Oksford nomini ko'pchilik bilim va tafakkur so'zlari bilan ma'nodosh sifatida ishlatadi. Chunki universitet nufuzi bo'yicha dunyoda eng yetakchi o'rinda turadi. 50 ta mamlakatda filiallari faoliyat yuritadi. Dunyo bo'yicha ingliz tilini o'rganayotgan kishilarning beshtasidan bittasi Oksford universitetida tayyorlangan darslik va o'quv-metodik qo'llanmalardan foydalanadi. Oksford universiteti talabalarining qariyb 40 foizi xorijlik hisoblanadi. Oksford professorlarining 80 tasi Qirollik Jamiyati a'zosi, 100 nafari esa Britaniya Akademiyasi a'zosi sanaladi.

**5. Moskva Davlat Universiteti.** Moskva Davlat Universiteti Rossiya poytaxti Moskvada joylashgan. Universitetda 40000 dan ziyod talaba ta'lim oladi. 5000 ta mutaxassis va 6000 ga yaqin professor ishlaydi. MDUga har yili 4000 ga yaqin xorijlik talaba o'qishga qabul qilinadi. Universitetning sakkizta yotoqxonadan iborat 1000 ta binosi bor. Kutubxonasida 9 million jild kitob saqlanadi. Ushbu kitoblardan 2 milliontasi xorijiy tillarda yozilgan. Universitetdan 11 nafar Nobel mukofoti laureati yetishib chiqqan. Mashhur siyosatchilardan Mixail Gorbachev, yozuvchilar Ivan Turgenev va Anton Chexovlar ham Moskva Davlat universitetida tahsil olishgan.



**1-mashq.** Matndagi atama va iboralarning ma'nosini izohlang.

**2-mashq.** Mavzuni reja asosida so'zlab berish.

## *Yozma nutq:*


🏠 **3-mashq.** Turli mamalakatlarning ta'lim tizimlari haqida ma'lumot tayyorlang.

🏠 **4-mashq.** Chet ellik talabalar hayoti aks ettirilgan badiiy asar yoki film haqidagi taassurotlarni yozing.

## *Grammatika:*

### **SON**

**Son** – miqdorni, shuningdek, predmetning sanoqda tartibini anglatadigan soʻz turkumi.



Miqdor son quyidagilarga boʻlinadi:

**Sanoq son** (счетные):

<b>Birliklar</b>	<b>Oʻnliklar</b>	<b>Yuzliklar</b>	<b>Mingliklar</b>
1 – bir	10 – oʻn	100 – yuz	1000 – ming
2 – ikki	20 – yigirma	200 – ikki yuz	2000 – ikki ming
3 – uch	30 – oʻttiz		
4 – toʻrt	40 – qirq		
5 – besh	50 – ellik		
6 – olti	60 – oltmish		
7 – yetti	70 – yetmish		

8 – sakkiz      80 – sakson

9 – to`qqiz      90 – to`qson

**Dona son.** Dona son sanoq sondan **-ta** qo`shimchasi bilan yasaladi va donalab sanash uchun qo`llaniladi: *bitta, ikkita, uchta* va h. Dona sondan keyin ko`plik qo`shimchasi qo`shilmaydi: *bitta kitob, yuzta kitob* va h.

**Taqsim son.** Taqsim son **-tadan** qo`shimchasi bilan yasaladi: *bittadan* (по одному), *ikkitadan* (по два).

**Chama son.** Chama son quyidagi qo`shimchalar bilan yasaladi:

**-tacha:** *o`ntacha* (около десяти), *yuztacha* (около ста);

**-lab:** *o`nlab* (десятки), *yuzlab* (сотни);

**-larcha:** *o`nlarcha* (десятки), *yuzlarcha* (сотни);

Juft sonlar ham chama songa kiradi: *o`n-o`n besh* (десять-пятнадцать) va h.

**Jamlovchi son.** Jamlovchi son **-ov, -ovlon, -ala** qo`shimchalari bilan yasaladi, faqat ikkidan yettigacha bo`lgan sonlarda: *uchov, uchovlon, uchala* (трое) va h.

**Kasr son.** Kasr sonning o`qilishi quyidagicha: bo`linayotgan son chiqish kelishigida, bo`lingan son bosh kelishikda:  $1/2$  *ikkidan bir*,  $3/4$  *to`rt dan uch*,  $0,5$  *nol butun o`ndan besh* va h. *Yarim* (0,5), *chorak* (0,25), *nimchorak* (0,12,5), so`zlari ham kasr son hisoblanadi.

**Tartib son.** Tartib son **-(i)nchi** qo`shimchasi bilan yasaladi: *birinchi* (первый), *yuzinchi* (сотый). Agar tartib son son bilan yozilsa, sondan keyin defis qo`yiladi: *1-maktab, 8-dekabr, 10-sinf*.

**5-mashq.** Ikki va uch sonlaridan sonning ma`no turlarini hosil qiling va ular ishtirokida gaplar tuzing.

**6-mashq.** Sonlarni so`z bilan yozing. Rus tiliga tarjima qiling.

*11-maktab, 6-kasalxona, XXI asr, 1991-yil, 100000-mahsulot, 1000,000-yo`lovchi.*

## VAQT HISOBI

12.10. – o`n ikkidan o`n daqiqa o`tdi.

12.30. – o`n ikki yarim.

11.50. – o`n daqiqasi kam o`n ikki.

Soatning birinchi yarmigacha bo`lgan vaqtni to`liq soatni chiqish kelishigi shaklida *soat* so`zidan keyin, so`ngra to`liqsiz soatning o`tgan daqiqasi bosh kelishik shaklida *o`tdi* (прошло) so`zi bilan aytiladi.


Soatning to`liqsiz ikkinchi yarmigacha bo`lgan vaqtni *soat* so`zidan keyin to`liq soatga yetmagan daqiqalarning miqdori, so`ngra *daqiqasi kam* birikmasi va to`liq soat aytiladi. Agar *soat* so`zi sonidan keyin tursa, u holda vaqtning davomiyligiga ishora qilingan bo`ladi:

Qiyoslang: *soat yetti* (время семь часов), *yetti soat* (в течении 7 часов).

**7-mashq.** So`z bilan yozing.

*10.15; 11.20; 12.40; 13.10; 22.45; 17.05; 18.55.*

**8-mashq.** Savollarga javob bering.

 1. *Siz har kuni soat nechada turasiz?* 2. *Soat nechada nonushta qilasiz?* 3. *Nechada o`qishga yo`l olasiz?* 4. *O`qishgacha necha soat (daqiqa) yo`l yurasiz?* 5. *O`qishdan nechada qaytasiz?*

**9-mashq.** O`z kun tartibingizni aytib bering.

## HISOB SO`ZLAR

Predmetning miqdoriy belgisini bildirgan sanoq sonlar, ba`zan hisob so`zlar bilan qo`llaniladi. Bu so`zlar aniq sanalayotgan predmetni emas, balki, uning qaysi turga, guruhga tegishli ekanligini ko`rsatadi. Bu so`zlar, son bilan predmetni anglatgan so`z o`rtasida qo`llanilib, uning og`irlik,

uzunlik, joylashgan o`rni kabi meyorlar bilan bog`liq o`lchamini anglatadi. Ko`pincha hisob so`zlar ot so`z turkumiga tegishli bo`ladi: *dona* (штука), *nusxa* (копия), *siqim* (горсть) и т.д.



**10-mashq.** Rus tiliga tarjima qiling.

1. *Bemorga uch mahal dori berib turasiz.*
2. *Atigi bir dona gul uzdim.*
3. *Uyimizda to`rt bosh qoramol bor.*
4. *Qo`lida bir dasta gul...* (S.Ahmad).
5. *Yaraqlagan bir juft kalishni menga uzatdi.*

**11-mashq.** O`zbek tiliga tarjima qiling.

Программа конференции аспирантов НИИД имени  
Камолиддина Бехзода.

21.01.03

10.00. Пленарное заседание.

12.30. Перерыв.

13.00-17.00. Работа в секциях.

21.02.03

10.00. Работа в секциях.

13.00. Перерыв.

13.30. Итоговое пленарное заседание.

## 10-DARS

### INSONIYAT TARIXI

#### *Og`zaki nutq:*

Soylar kelur kumush tog`lardan,  
Gul bo`ylari – chaman bog`lardan.  
Yer ko`ksidan oqar buloqlar.  
El naqlidan chaqar saboqlar.  
She`r quyilib yurakdan kelur,  
Ertak ezgu tilakdan kelur...

1

Juda qadim zamonda,  
Qobiliston tomonda  
Bir podsho o`tgan ekan  
Davron surib jahonda.  
Butun umrin kechirib  
Kayf bilan, safo bilan,  
Ishi bo`lmagan ekan  
O`tkinchi dunyo bilan.  
Yillar o`tib, nihoyat,  
Yoshi etgach bir joyga,  
Barcha ulamo ahlin  
Chaqiribdi saroyga.  
Debdi: “Olamga kelib  
Olam nedir bilmadim,  
Odam bo`lib yashadim,  
Odam nedir bilmadim.  
Qirq yil podsholik qilib  
Umrim o`tdi g`aflatda.  
Qolganini ilmga  
Sarf qilurman albatta.

Shuning uchun farmonim:  
Barcha bilimni to`plab,  
Odam ahli yaratgan  
Barcha ilmni to`plab,  
Insoniyat tarixin  
Jam qilib kitob yozing.  
Yozganda ham batafsil  
Va lekin shitob yozing”

2

Olampanoh podshoning  
Farmonin bajo etib,  
Qirq faslda qirq olim  
Qirq tuya kitob bitib,  
Karvon bilan podshoning  
Saroyiga eltmishlar.  
Ta`zim bilan keltirib  
Shohga taqdim etmishlar.  
Demishlar qullaringiz  
Yuraging qoni bu,  
Insoniyat tarixin  
Eng qisqa bayoni bu.  
Hayrat ichra debdi shoh:  
Ko`p yozibsiz bunchalar.  
Insoniyat tarixi  
Uzunmidi shunchalar?  
Kimga doctor shuncha gap,  
Sanjob qiling, ulamo,

Ko`pi bilan bir tuya  
Kitob qiling, ulamo.

### 3

Yana ulug` podshoning  
Farmonin bajo etib,  
Insoniyat tarixin  
Qirq bor muxtasar bitib,  
Qirq donishmand saf chekib  
Saroy tomon yurmishlar.  
Podshoning qarshisida  
Ta`zim qilib turmishlar.  
Olimlarga debdi shoh:  
Rahmat sizga, ulamo,  
Bularni ham o`qishga  
Umrin yetmaydi ammo.  
Shuning uchun, azizlar,  
Tafsilotni kam qiling.  
Bor ilmni yig`ing-u  
Bir kitobga jam qiling.

### 4

Qaytib yana qirq olim  
Qirq oy tun-kun o`ltirmish.  
Ular yana saf chekib  
Yo`l olganda shoh tomon,  
Shoh o`lim to`shagida  
Yotar ekan bu zamon.  
Kitobni ko`rib debdi:  
Rahmat sizga, ulamo.  
Bir kitobni o`qish ham  
Endi menga muammo.

Olimlarga boqibdi  
Podsho ma'yus ko`z bilan:  
"Mazmunin aytib bering  
Ikki og`iz so`z bilan.  
Eshitib o`lar bo`lsam  
Qolmas edi armonim".  
Olimlar donishmandi  
Shunda debdi: hoqonim,  
Odamlar tug`iladi,  
G`am chekadi, o`ladi.  
Insoniyat tarixin  
Mazmuni shu bo`ladi...




**1-mashq.** Matnni ijodiy soʻzlab bering.

### Mustaqil taʼlim

*Badiiy kitob oqish va taqdimot qilish*

**2-mashq.** Biror oʻqigan kitobingiz haqida fikr bildiring.


*Yozma nutq:*

 **3-mashq.** Oʻqilgan kitoblar roʻyxatini tuzing va ularga qisqacha taʼrif bering.

*Grammatika:*

## OLMOSH

Ot, sifat, son, va baʼzan ravish oʻrnida qoʻllaniladigan soʻzlar **olmosh** deyiladi. Oʻzbek tilida 7 ta olmosh turi bor:



Olmoshlar qaysi soʻz turkumi oʻrnida qoʻllanganiga qarab ham tasniflanadi. Masalan, kishilik olmoshlari ot oʻrnida qoʻllanadi, koʻrsatish olmoshlari sifat oʻrnida, tabiiy-ki, qaysi soʻz turkumi oʻrnida qoʻllangan boʻlsa, uning grammatik kategoriyalariga ham ega boʻladi. Kishilik olmoshlari kelishikda turlanadi, koʻrsatish olmoshi esa otlashishi mumkin va h.

**Kishilik olmoshlari.** Ular 1,2,3 shaxslarni ko`rsatadi va unga quyidagilar kiradi:

	Birlik	Ko`plik
1-shaxs	<i>Men</i> (Я)	<i>Biz</i> (Мы)
2-shaxs	<i>Sen</i> (Ты)	<i>Siz</i> (Вы)
3-shaxs	<i>U</i> (Он(а))	<i>Ular</i> (Они)

*Sen* kishilik olmoshi, ba`zan, ko`plik shaklida ishlatilishi mumkin – *senlar*. Bu holda hurmatsizlik anglashiladi: *Senlar hali ko`rasan(lar)*./Вы ещё увидите.

Ba`zan *biz* olmoshi ham *-lar* qo`shimchasini olishi mumkin. *Siz* kishilik olmoshi ko`plik ma`nosi bilan bir qatorda bir shaxsga nisbatan hurmat ma`nosini ham beradi. Ayrim hollarda, so`zlashuv nitqida, ushbu ma`nolarni farqlash uchun, unga *-lar* qo`shimchasini qo`shib aytiladi. *-ning, -ni, -niki* qo`shimchalarini *men* va *sen* olmoshlariga qo`shilganda bitta *n* tushib qoladi: *meniki, mening, meni. -ga, -da, -dan, -gacha* qo`shimchalarini *u* (shuningdek, *bu, shu, o`sha*) olmoshiga qo`shganda bitta *n* orttiriladi: *unga, bunda, o`shangacha* va h.

#### **4-mashq.** O`zbek tiliga tarjima qiling.

1. Я узнал о вашем приезде только что. 2. Мне тогда было лишь одиннадцать. 3. Ты получил мое письмо? 4. Выходные мы собираемся провести в горах. 5. А в какой группе учится она? 6. Ты передал ей мое приглашение. 7. Я рад встрече с вами.



#### **5-mashq.** Rus tiliga tarjima qiling.

1. *Mening katta akam hisobchi. U “Mikond” zavodida ishlaydi.* 2. *Karimning akasi undan uch yosh katta. Hozir u to`qqizinchi sinfda*

*o`qiyapti. 3. Sen yakshanbada nimalar qilmoqchisan. Ehtimol, biz bilan sayohatga borarsan?*

**O`zlik olmoshlari.** O`zbek tilida birgina *o`z* so`zining o`zi o`zlik olmoshi hisoblanadi. U kishilik olmoshining o`rnida ham qo`llanilishi mumkin. U holda egalik qo`shimchalariga ega bo`ladi: *o`zim* (я сам), *o`zing* (ты сам) *o`zi* (он сам) va h.

➤ Bu so`zning o`zi gapda aniqlovchi vazifasini bajaradi. *O`z uyim – o`lan to`shagim.* /Мой дом – моя крапость.

➤ Uchinchi shaxs ko`plikda *-lar* qo`shimchasini olishi mumkin, ammo u holda ko`pincha hurmat shaklini ifodalaydi: *Shoiramizning o`zlari ham tashrif buyurdilar.* /К нам пришла и сама поэтесса.

➤ Bu shaklni ikkinchi shaxsda ham qo`llash mumkin: *O`zlaridan ham bir eshitaylik.* /Давайте, и вас слушаем.

**6-mashq.** O`zlik olmoshini kerakli shaklda qo`llab, gaplarni ko`chiring.

1. ... *er bilsang, o`zgani sher bil (maqol).* 2. ... *uying – o`lan to`shaging (maqol).* 3. ... *chiqqan baloga, qayga boray da`voga (maqol).* 4. *Salimaning ... ham shu institutda o`qiydi.* 5. ... *qadrini bilmagan o`zganing ham qadrini bilmaydi.*




**7-mashq.** O`zbek tiliga tarjima qiling.

1. Мой друг купил себе новые книги. 2. Он взял с собой на отдых учебник. 3. Я не могу думать только о себе. 4. Это поручение я беру на себя. 5. Ты доволен своей сегодняшней работой. 6. Он явно улучшил свои результаты. 7. У нас в столовой самообслуживание.

**Ko`rsatish olmoshlari.** Ko`rsatish olmoshlari narsa va hodisani ko`rsatish, ta`kidlash uchun qo`llaniladi. O`zbek tilida eng faol ko`rsatish olmoshlari quyidagilardir:

<i>u, o`sha</i>	ТОТ, ТА, ТО, ТЕ
<i>bu, shu</i>	ЭТОТ, ЭТА, ЭТО, ЭТИ
<i>Mana</i>	ВОТ
<i>Ana</i>	ВОН
<i>mana bu, mana shu</i>	ВОТ ЭТОТ
<i>ana u, ana o`sha</i>	ВОН ТОТ
<i>bunday</i>	ВОТ ТАК (ТАКОЙ)
<i>shunday</i>	ТАК (ТАКОЙ)
<i>o`shanday</i>	ТАКЖЕ (ТАКОЙ)

Ko`rsatish olmoshlari ot, sifat va ravish o`rnida qo`llanadi.

 **8-mashq.** Ko`rsatish olmoshlarini yod oling. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

**9-mashq.** Rus tiliga tarjima qiling.

1. *Men bu yigitni yaxshi bilaman.* 2. *Bu uylar yangi qurilgan.* 3. *O`shanda bunday bo`lishini sira o`ylamagandim.* 4. *Shunday odamlar borki, ular bilan hech xayrlashging kelmaydi.* 5. *Tog` yonbag`irlari shunday go`zal-ki!* 6. *Ushbu kitobni menga o`qituvchim sovg`a qildilar.* 7. *Tohir shunday tez yurib ketdi-ki, Adham unga yeta olmadi.*

**10-mashq.** O`zbek tiliga tarjima qiling.

1. Такие вот дела. 2. Он такой веселый. 3. Октам спел эту замечательную песню как настоящий артист. 4. В этом саду очень много яблок. 5. Мы живем вон за тем садом.

 **11-mashq.** Rus tiliga tarjima qiling va yod oling.

1. *Hayot ona allasidan boshlanadi.* 2. *Ayol borki, olam munavvar.* 3. *Ayolsiz uy – jonsiz tana.* 4. *Jannat onalar oyog`i ostida.*

**So`roq olmoshlari.** Noma'lum, noaniq narsani aniqlash uchun qo'llaniladigan olmosh turi so`roq olmoshi deyiladi. Ularga quyidagilar kiradi:

*kim?* (кто?) (faqat shaxsga nisbatan);

*nima?* (что?)

*qayer?* (какое место?)

*qachon?* (когда?)

*necha?, qancha?* (сколько?)

*qanday? qanaqa?* (какой?) и др.

Ular qaysi so`z (so`z turkumi)ga javob bersa, o`sha so`z xususiyatlariga ega bo`ladi. Misol uchun: *kim? nima? qayer?* olmoshlari turlanishi, tuslanishi mumkin va egalik hamda ko`plik qo`shimchasini oladi:

*Darsda kimlar*

*qatnashmayapti?*

(Кого нет на занятии.)

*Kimda o`zbek tili*

*kitobi bor?*

(У кого есть книга по узбекскому языку.)

*U kiming bo`ladi?*

(Кем он тебе приходится?)

**12-mashq.** Savollarga javob bering, javoblaringizni rus tiliga tarjima qiling.

1. *Yig`ilishda kimlar qatnashdi?* 2. *Sizga o`zbek tilidan kim dars o`tadi?* 3. *Siz qanday musiqani yoqtirasiz?* 4. *U senga nimalar olib berdi?* 5. *Qodiriyning qaysi romanini bilasiz?* 6. *Siz qaysi futbol jamoasining muxlisisiz?*

 **13-mashq.** O`zbek tiliga tarjima qiling.

1. Где проживает ваша семья? 2. Как вы добираетесь до университета? 3. Сколько в этом семестре у вас предметов? 4. Как вчера прошли семинарские занятия? 5. С кем вы беседовали на лестнице? 6. Чем это вы так удивлены?

**14-mashq.** Quyidagi birikmalar ishtirokida gaplar tuzing.

*O`zbek tili darsi, o`quv xonasi, kitobxon bileti, katta tanaffus, ma`ruzalardan so`ng.*

**15-mashq.** O`qing otlarning qaysi kelishik shaklida ekanini ayting.

1. *Tog`ning ko`rki tosh bilan, odam ko`rki bosh bilan.* 2. *Bir kishi ariq qazydi, ming kishi suv ichadi.* 3. *Otning yaxshisi uloqda bilinadi.* 4. *Kattaga hurmatda, kichikka izzatda bo`l.*

**Belgilash olmoshlari.** Belgilash olmoshlari shaxs va predmetning guruhini anglatadi va ularni alohida ko`rsatadi. Ular so`roq olmoshlariga *har* so`zini qo`shish yo`li bilan yasaladi:

<i>har kim</i>	каждый
<i>har nima</i>	все, всякая вещь
<i>har qanday</i>	всякий
<i>har bir</i>	каждый
<i>har narsa</i>	всякая вещь

Quyidagilar ham belgilash olmoshi hisoblanadi

<i>hamma, barcha, bari</i>	все
<i>ba`zi, ayrim</i>	отдельный, некоторое

Mazkur *hamma, barcha, bari* olmoshlari jamlovchi ma`noga ega.

*Talabalarning hammasi malakaviy ishlarni muvaffaqiyatli himoya qildi.*/Все студенты успешно защитили квалификационные работы.

*Men bu kitoblarning barini o`qib chiqdim.*/Я прочел все эти книги.

**16-mashq.** Gaplarni rus tiliga tarjima qiling.

1. *Har kim ekkani o`radi (maqol).* 2. *Biz har yili yozda Chimyonda dam olamiz.* 3. *Men har bir ishni sinchiklab o`rganib chiqdim.* 4. *Har bir biletga uchta savol bor.* 5. *Bayramda hammamiz ishtirok etdik.* 6. *Har qachon, har yerda o`z burchingni yodda tut.*



**17-mashq.** Kerakli olmoshlarni qo`yib, gaplarni ko`chiring.

1. *Men ... bugun jo`nab ketyapman.* 2. *O`quvchilarning ... sayohatga yo`l olishdi.* 3. *Bugun sinfda ... navbatchi?* 4. *Siz ... taomni yaxshi ko`rasiz?* 5. *Dadamning kutubxonalarida ... kitoblar bor.*

So`zlar: *hammasi, shu, har qanaqa, qaysi, kim.*

**Bo`lishsizlik olmoshlari.** Bo`lishsizlik olmoshlari belgilash olmoshlarining aksi hisoblanib, hamma narsa va hodisalarga nisbatan inkor ma`nosini beradi. Ular so`roq olmoshlari va *bir, narsa* so`zlariga **hech** so`zini qo`shish orqali yasaladi:

<i>hech kim</i>	НИКТО
<i>hech nima</i>	НИЧТО
<i>hech narsa</i>	НИЧТО
<i>hech bir</i>	НИ ОДИН
<i>hech qanday</i>	НИКАКОЙ
<i>hech qachon</i>	НИКОГДА
<i>hech qayer</i>	НИ ОДНО МЕСТО

**Gumon olmoshlari.** Gumon olmoshlari narsa va hodisa haqidagi tasavvurning noaniqligini anglatadi. Ular ham so`roq olmoshlari bilan **-dir** yoki **alla-** qo`shimchalari yordamida yasaladi: *kimdir, allakim* – кто-то, *nimadir, allanima* – что-то, *qachondir* – когда-то va h.

Birgina *allaqachon* olmoshi bajarilgan harakat vaqtining noanoqligiga emas, balki uning qadimligiga ishora bo`ladi. *Men allaqachon she`rni yod olib bo`ldim.* /Я давно уже выучил стихотворение. **-dir** qo`shimchasi

olmoshga boshqa har xil qo`shimchalardan keyin ham qo`shila oladi:  
*kimningdir* – чей то, *nimaningdir* – что-то.

**18-mashq.** O`zbek tiliga tarjima qiling.

1. Когда-то здесь протекал большой арык. 2. Он очень хотел кого-то увидеть, с кем-то посоветоваться. 3. Вы хотели ему что-то передать? 4. Вас просит какой-то юноша. 5. В это время кто-то постучался в дверь.



**19-mashq.** Savollarga javob bering.

1. *O`zbek tilini qachondan beri o`rganasiz?* 2. *O`zbek tilidan birinchi o`qituvchingiz kim bo`lgan?* 3. *O`zbek shoirlaridan kimlarni bilasiz? Yozuvchilardan-chi?* 4. *Navoiyning "Hamsa"si qaysi dostonlardan iborat?* 5. *"Yulduzli tunlar" romanining muallifi kim?*



## 11-DARS

### ALISHER NAVOIY NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY KUTUBXONASI

#### *Og`zaki nutq:*

Kutubxona 1870-yili may oyida Toshkent ommaviy kutubxonasi sifatida ochilgan. 2200 tom dan (1200 nomdagi) ortiq adabiyotlar yig`ilib, kutubxona fondining asosi yaratildi.

1920-yili kutubxonaga Davlat kutubxonasi maqomi berildi va u keskin o`zgardi. 1925-yilga kelib kutubxonaning fondi 140 ming jildga yetdi.

Urushdan keyingi davrda kutubxonaning asosiy vazifasi kitob fondlarini to`ldirishdan iborat bo`lgan. Bu vaqtda Bolgariya, Vengriya, Germaniya Demokratik Respublikasi, Polsha, Ruminiya, Chexoslovakiya kabi davlatlardan kitoblar kela boshladi. Buyuk Britaniya, AQSH, Fransiya, Germaniya Federativ Respublikasi, Yaponiya va boshqa davlatlar bilan hamdo`stlik aloqalari yo`lga qo`yildi.

1948-yili kutubxonaga buyuk o`zbek shoiri Alisher Navoiy nomi berildi va 350 o`rinli o`quv zaliga ega bo`lgan uch qavatli yangi binoda ish boshladi.

1980-yillardan alohida e`tibor fondni o`zbek tilidagi adabiyotlar bilan to`ldirishga qaratila boshlandi. Ayni paytda ularning soni 600 mingdan ortiq bo`lib, o`zbek adabiyoti namoyandalari Alisher Navoiy, Furqat, Muqimiy, Zavqiy, Ibn Sino, Ulug`bek, Beruniy kabilar hamda respublikamizning zamonaviy olim va yozuvchilarining asarlaridan iborat.

Kutubxona tarixidagi navbatdagi muhim davr 2002-yildan boshlandi, O`zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining tashabbusi bilan Alisher Navoiy nomidagi O`zbekiston Respublikasi Davlat kutubxonasi bilan Respublika ilmiy-texnika kutubxonasini birlashtirilib, Respublika Vazirlar Mahkamasi huzurida Alisher Navoiy nomidagi O`zbekiston Milliy kutubxonasi tashkil etilib, 2002-yil 12-aprelda u "Milliy"lik maqomini oldi.

Kutubxona tarixidagi keyingi bosqich O`zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining tashabbusi bilan 2011-yili poytaxtimizda “Ma’rifat markazi” bunyod etilib, undan Alisher Navoiy nomidagi O`zbekiston Milliy kutubxonasining joy olishi buyuk mutafakkir bobomizga bo`lgan bugungi avlodlarning yuksak ehtiromi namunasi bo`ldi.


Davlat rahbarining 2012-yil 20-martda qabul qilingan Alisher Navoiy nomidagi O`zbekiston Milliy kutubxonasi tuzilmasi yangilandi, uning bo`limlari va xizmat ko`rsatish ishi takomillashtirildi, vazifalar ko`lami kengaytirildi.

**1-mashq.** Matndagi atama va iboralarning ma’nosini izohlang.

**2-mashq.** Matnga munosabat bildirib so`zlang.

*Yozma nutq:*

**3-mashq.** Universitet kutubxonasi haqida matn tuzing.

 **4-mashq.** Badiiy asarlarga bag`shlangan internet saytlarining ro`yxatni tuzing.

*Grammatika:*

## **RAVISH**

Ravish – harakatning, ba’zan predmetning belgisini, sifatini aniqlovchi so`z turkumi.



**Holat (tarz) ravishlari** *qanday?* – как?, *qanday qilib?*, *qay tarzda?* – каким образом? so`roqlariga javob bo`ladi va harakatning bajarish yo`lini ko`rsatadi. ularga quyidagilar kiradi:

<i>jim</i>	спокойно
<i>to`satdan</i>	вдруг
<i>tez</i>	быстро
<i>sekin</i>	медленно
<i>yayov</i>	пешком
<i>ketma-ket</i>	вслед
<i>astoydil</i>	от души

**Payt ravishi** *qachon?* – когда? *qachongacha?* – до каких пор? *qachondan (beri)?* – с каких пор? so`roqlariga javob bo`ladi. Harakatning bajarilgan vaqtini ko`rsatadi:

<i>bugun</i>	сегодня
<i>indinga</i>	послезавтра
<i>o'tgan yili</i>	в прошлом году
<i>oyda-yilda</i>	изредка
<i>kechasi</i>	ночью

**O`rin ravishi** *qayerda?* – где?, *qayerga?* – куда?, *qayerdan?* – откуда?, *qayergacha?* – до куда? so`roqlariga javob bo`ladi. Harakatning bajarilgan o`rnini ko`rsatadi:

*oldinda*      впереди

*olisda*        в дали

*olisdan*      издали

*yuqoriga*    вверх

**Maqsad ravishining** miqdori chegaralangan:

*ataylab*

*jo`rttaga*

*atay*

*atayin*

} нарочно, специально

Shuningdek, **sabab raishi** ham u qadar ko`p emas:

*noiloj*

*ilojsizlikdan*

*chorasiz*

*chorasizlikdan*

} находясь в  
безвыходном положении

**Miqdor ravishi** harakatning miqdoridan tashqari, predmetning miqdorini ham bildiradi:

*ko`p*            много

*kam*            мало

*ancha*         много

*jindak*        мало

**Daraja ravishi** ham harakatning, ham otning belgisini bildiradi:

*eng*            самый

*juda*           очень

*a`lo*            отлично

*zo`r*            прекрасно

## RAVISHLARNING YASALISHI

Tilda eng faol bo`lgan ravish yasovchi qo`shimchalar quyidagilar:

**-cha:**        *yaxshilikcha* (по-хорошему), *o`zbekcha* (по узбекски)

- larcha:** *bolalarcha* (по-детски), *mardlarcha* (мужественно)
- chasiga:** *dehqonchasiga* (по дехкански), *yigitchasiga* (по-мужски)
- siga:** *tikkasiga* (по вертикали), *ko`tarasiga* (оптом)
- ona:** *qahramonona* (героически), *do`stona* (дружески)
- lab:** *oylab* (месяцами), *yillab* (годами)
- an:** *majburan* (насильно), *tasodifan* (случайно)
- siz:** *to`xtovsiz* (бесперывно), *tinimsiz* (неустанно)

Qo`shma ravishlarni yasashda quyidagi so`zlar ishtirok etadi: **har, hech, bir:**

<u>har</u> qachon	всегда
<u>har</u> vaqt	всегда
<u>hech</u> mahal	никогда
<u>biroz</u>	немного
<u>bir</u> yo`la	сразу

**Yodda tuting:** Ayrim ravish turlari darajalarga ega:

*tez* → *tezroq* → *juda tez*  
*ko`p* → *ko`proq* → *juda ko`p*

Ravishlar ham ot so`z turkumi bo`lib kelishi mumkin:

*Ko`pdan quyon qochib qutulmas (maqol).* /Сила в единстве.

*Ko`pni ko`rgan ko`p biladi.* /Кто много повидал, тот много знает (буквально).

**5-mashq.** Gaplarni rus tiliga tarjima qiling. Ravishlarning ma`no turini ayting.

1. *Don daryosi jimgina oqardi.* 2. *Anvar ohista yiqildi.* 3. *Akam ozgina kech qoldilar.* 4. *Gapni oz so`zla ishni ko`p ko`zla.* 5. *U birpas jim qoldi.* 6. *Ilgari men o`zbek tilini bilmas edim.* 7. *Tonggi shabada dilga juda yoqadi.*

**6-mashq.** Ravishlar ishtirokida gaplar tuzing.

*Hozir, ertalab, tinmasdan, bexosdan, do`stona, ilojsiz.*

### **7-mashq.** O`zbek tiliga tarjima qiling.

1. Айбек спокойно воспринял эту новость. 2. Озода очень хотела поступить в университет. 3. Беседа продолжилась до самого утра. 4. Послезавтра мы все едем в горы. 5. Иногда мы собираемся со своими бывшими одноклассниками.



### **8-mashq.** Gaplarni rus tiliga tarjima qiling.

1. *U biroz o`ylanib qoldi-da, keyin uyi tomon yo`l oldi.* 2. *Yaxshilikcha kelmasang, o`zim seni sudrab olib kelaman.* 3. *Qayoqqa qaramang, xalqimiz fidokorona mehnat qilmoqda.* 4. *U o`zi ustida tinimsiz ishlaydi.*



### **9-mashq.** O`zbek tiliga tarjima qiling.

1. Неожиданно грянул гром, и пошел дождь. 2. В будущем году мы надеемся на большой урожай риса. 3. Ташкент всегда привлекал иностранных туристов. 4. Я никогда не видел такого прекрасного пейзажа. 5. Туристы очень интересовались историей города.



### **10-mashq.** Matnni o`qing va rus tiliga tarjima qiling.

O`zbekistonning mustaqilligi milliy tasviriy san`at taraqqiyotiga zamin yaratdi. Bu davrda tasviriy san`atning rangtasvir, haykaltaroshlik, grafika turlari, uning ko`pgina janrlari rassom va haykaltaroshlarning erkin ijodiy faoliyatlar keng tus oldi. Sobiq Ittifoq davrida ijodkorlar yagona sotsialistik realizm oqimida ijod qilgan bo`lsalar, hozir ular ham ikkilanmasdan o`zlarini qiziqtirirayotgan avangardizm, romantizm, impressionizm, abstraksionizm va boshqa qator oqimlarda va mavzularda yuksak badiiy saviyada asarlar yaratmoqdalar.

## 12-DARS

### ADABIYOT – MA’NAVIYATNI YUKSALTIRUVCHI MANBA

#### *Og`zaki nutq:*

Norvegiya kitoblar klubi 2002-yili 54 ta davlatdan eng mashhur yuzdan ortiq yozuvchilar orasida so`rovnoma o`tkazgan edi. Buyuk Britaniyaning “Guardian” gazetasi ushbu so`rovnoma asosida barcha zamonlarning eng yaxshi 100ta kitob nomini e`lon qilgan.

Dunyoning eng mashhur yozuvchilari fikriga ko`ra, ispan yozuvchisi Migel Servantesning “Don Kixot” romani barcha davrlarning eng yaxshi kitobi deb e`lon qilingan.

Ro`yxatdan eng ko`p angliyalik ijodkorlar asarlari o`rin olgan (14 ta). Fransiyalik yozuvchilarning 11 ta, rossiyalik adiblarning 10 ta, AQShlik yozuvchilarning 9 nomdagi kitobi ushbu reytingdan o`rin egallagan. Sharqning buyuk didaktik asarlari — Shayx Sa`diyning “Bo`ston”, Jaloliddin Rumiyning “Masnaviy” kitoblari, shuningdek, hindlarning “Ramayana” va “Mahabhorat” dostoni, “Ming bir kecha” ertaklari ham kiritilgan.

Google Analytics ma`lumotlariga ko`ra, 2017-yilda Ziyo.uz portaliga tashrif buyurganlar soni 4001426 nafarni ([www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)) tashkil etdi (kuniga o`rtacha 10963 kishi). Tashrif buyurganlarning 65 foizi O`zbekistondan. Rossiya (11%), Qozog`iston (6%), Tojikiston (4%), Qirg`iziston (3%), AQSH (2%), Turkiya (2%), Janubiy Koreya (1%) kabi 150 davlatdan muxlislar tashrif buyurgan.

O`zbek tilidagi eng katta elektron kutubxona — [Ziyouz.com](http://Ziyouz.com) kutubxonasida hozirda 10185 ta kitob mavjud. Ushbu ro`yxatda 2017-yil davomida portalimiz o`quvchilari tomonidan eng ko`p mutolaa qilingan kitoblar o`rin olgan:

#### **Eng ko`p o`qilgan kitoblar:**

1. Abdulla Qodiriy. O`tkan kunlar.
2. Tohir Malik. Shaytanat.

3. Pirmqul Qodirov. Yulduzli tunlar
4. Said Ahmad. Ufq
5. Alisher Navoiy. Layli va Majnun (nasriy bayoni)
6. Erkin Vohidov. Saylanma
7. Rashod Nuri Guntekin. Choliqushi
8. Abdulla Qodiriy. Mehrobdan chayon
9. O`tkir Hoshimov. Bahor qaytmaydi
10. Xudoyberdi To`xtaboyev. Sariq devni minib
11. Abdulhamid Cho`lpon. Kecha va kunduz
12. Lev Tolstoy. Urush va tinchlik
13. Oybek. Navoiy
14. Odil Yoqubov. Ulug`bek xazinasi
15. Paulo Koelyo. Al-Kimyogar
16. Fyodor Dostoyevskiy. Jinoyat va jazo
17. Abdulla Qahhor. Sarob
18. Artur Konan Doyl. Yo`qolgan dunyo

**1-mashq.** Mavzuga oid matnni o`qing, mazmunini to`liq tinglab tushuning.

**2-mashq.** Matndagi atama va iboralarning ma`nosini izohlang.

**3-mashq.** Matndagi asosiy fikrni ajratib so`zlab bering.

*Yozma nutq:*

 **4-mashq.** Mashhur adabiy qahramonlar haqida taqdimot tayyorlang.

 **5-mashq.** Adabiyot haqidagi hikmatli so`zlardan namunalar yozing.


*Grammatika:*

## FE'L

Harakat yoki holatni anglatuvchi so`zlar fe'l deyiladi.



Fe'ning bosh shakli **-moq** qo'shimchasini olgan **harakat nomi** hisoblanadi. Lug'atda barcha fe'llar shu shaklda beriladi. O'zbek tilida fe'ning boshqa ko'rinishlari bo'lmaydi va barcha fe'llar *nima qilmoq?* (что делать? что сделать?) so'rog'iga javob bo'ladi.



Otimli fe'llar harakatning boshqa predmetga bevosita o'tishini anglatadi va tushum kelishigi shaklidagi so'z bilan bog'lanadi.

O'timsiz fe'llar harakatning xolis bajarilganligini, holatni bildiradi.

**Qiyoslang:**

O'timli

*o`qimoq (kitobni)*  
*tikmoq (kostumni)*  
*bilmoq (qoidani)*  
*sevmoq (Vatanini)*

O'timsiz

*uchmoq*  
*turmoq*  
*yotmoq*  
*o`tirmoq*

**6-mashq.** Lug'atdan foydalanib fe'llarni tarjima qiling. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

*So`ramoq, kelmoq, olib kelmoq, kutmoq, topmoq.*



**7-mashq.** O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Выполнить задание. 2. Выучить правило. 3. Запомнить новые слова. 4. Перевести статью. 5. Знать употребление слов. 6. Ответить на вопросы.

🏠 **8-mashq.** Nuqtalar o`rniga mos fe'llarni qo`yib ko`chiring.

1. O`qimoq – ... . 2. Bilim ... – har bir insonning burchi. 3. Vatanni ... – iymondandir. 4. Malakali mutaxassis bo`lib ... – orzumiz. 5. Vatanga ... har bir fuqaroning burchi.

Fe'llar: *munosib bo`lish, olish, yuksalmoq, sevmok, yetishish.*

## FE'L YASALISHI

Fe'llar maxsus qo`shimchalar yordamida yasaladi va bir yoki undan ortiq so`zlarni qo`shish bilan yasaladi.

Eng ko`p ishlatiladigan qo`shimchalar quyidagilar:

-*la*: ishla, o`yla, oqla, moyla

-*a*: sana, ata, yasha, bo`sha

-(*a*)*y*: qoray, sog`ay, toray

-(*a*)*r*: ko`kar, qisqar, eskir

-*i*: chang`i, tinchi, boyi

-*illa*: g`izilla, chirilla

-*lan*: otlan, lazzatlan

-*lash*: maslahatlash, suhbatlash

-*sira*: suvsira, uyqusira

Bu yo`l bilan fe'l faqat boshqa so`z turkumlaridan yasaladi.

**9-mashq.** Fe'llarning yasalishini tushuntiring va ular ishtirokida gaplar tuzing.

*Xushlamoq, tuzlamoq, zaharlanmoq, do`stlashmoq, sarg`aymoq, ko`rishmoq, ikkilanmoq, birlashmoq.*

**10-mashq.** Berilgan so`zlardan fe'llar yasang, ular ishtirokida birikmalar tuzing.

*Odat, yod, shod, yig`i, tinch, oq, shir, toza.*

**11-mashq.** Nuqtalar o`rniga mos so`zlarni qo`yib yozing.

1. *Osmon tiniq ... shohi. Oq bulut kezar gohi.* 2. *... adibimiz Odil Yoqubov bilan uchrashuv bo`lib o`tdi.* 3. *Hozir ...da qayoqqa ham borardik.*

So`zlar: *ko`k, qorong`u, suyukli.*

## 13-DARS

### ME'MORCHILIK SAN'ATI

#### *Og`zaki nutq:*

San'at turlari ichida eng mukammali me'morchilik hisoblanadi. U qurilish, muhandislik, fan va san'at bilan uyg'un. Me'morchilik devor, shift, deraza va yana boshqa me'moriy unsurlar yordamida yaratiladi.

Eng sodda me'moriy inshoot bu – 4 tomonga qarama-qarshi o'rnatilgan to'rta ustun. Bu ustunlar tom bilan yopilsa, bino vazifasini bajaradi. Uning ichida odam istiqomat qiladi.

Me'morchilikda landshaft ham muhim ahamiyatga ega. Unda insonning harakatlanishi uchun qulay sharoit paydo bo'ladi. Geometrik mantiq bilan yaratilgan landshaft doimo kishilarning badiiy tafakkuri va estetik didining in'ikosi bo'lib xizmat qilgan.

Azaldan O'rta asr shaharlaridagi shohko'chalarning kesishuvi ramziy ma'noga ega bo'lgan. Bu odamzodning paydo bo'lishi bilan yuksak me'moriy mantiqqa ega bo'lganidan dalolat beradi. Ular fazodagi harakatni oldinga, orqaga, chapga va o'ngga taqsimlab, borliqning geosentrik modelini yaratishgan. Dastlab, odamlar yashayotgan joy – dunyo markazi ekanligi haqida tasavvurlar paydo bo'ladi. Musulmonlar uchun – bu Ka'ba, rimliklarda Kapitoliy yonbag'ri va boshqalar bunga yaqqol misoldir.

Me'morchilik taraqqiyoti natijasida ochiq va yopiq, ichki va tashqi fazoning qarama-qarshiligi yuzaga keldi. Inshootlarda chegaralilik, tugallanganlik yaratildi, mustahkamlandi.

Me'morchilik ham boshqa san'atlar kabi mental xususiyatga ega. Inson o'z shakllangan madaniyatga tobe' bo'lgan holda me'moriy borliq yaratadi. Shu nuqtay nazardan Yevropa va milliy me'moriy san'at ajratiladi. Har bir madaniyatning o'ziga xos me'moriy uslubi, xarakterli jihati mavjud. Masalan, Rossiyadagi keng maydonlar, G'arbiy

Yevropadagi ixcham, yopiq maydonlar bir-biriga zid me'moriy yondashuvdir.


Qadimgi me'morchilik o'z qoidalariga ega bo'lgan, ular o'lchov birligi sifatida metrdan emas, ustunning diametri yoki eshik, deraza kengligidan foydalanganlar.

**1-mashq.** Mavzuga oid matnni o'qiting, mazmunni to'liq tinglab tushuning.


**2-mashq.** Matndagi atama va iboralarning ma'nosini izohlang.

**3-mashq.** Matnga munosabat bildirib so'zlang.

*Yozma nutq:*

 **4-mashq.** O'zbekistonning qadimiy me'moriy obidalari haqida taqdimot tayyorlang.

**5-mashq.** O'zbekistonning milliy me'moriy uslubi haqida munosabat bildiring.

 **6-mashq.** "Zamonaviy inshoot qanday bo'lishi kerak" mavzusida esse yozing.

*Grammatika:*

## QO'SHMA FE'L

O'zbek tilida qo'shma fe'llar ikki tipga ega:

**1) ot+fe'l:**

*qaror qilmoq* (решить, постановить)  
*tavsiya qilmoq* (рекомендовать)

**2) fe'l+fe'l:**

Bu tipda birinchi fe'l rafishdosh shaklida

*taklif qilmoq* (пригласить, предложить)  
*ozod qilmoq* (освободить)  
*hayron bo`lmoq* (удивляться)

Bu tipda ko`pincha quyidagi fe'llardan foydalaniladi

*qilmoq, etmoq* (делать)  
*bo`lmoq* (быть)  
*qolmoq* (остаться)


Tarjima jarayonida go`yo ular tushib qolganday:

*jim bo`lmoq* (успокоиться)  
*xafa bo`lmoq* (обидеться)  
*xursand bo`lmoq* (радоваться)

**Yodda tuting:** Hamma qo`shma fe'llar o`zbek tilida ajratib yoziladi.

**7-mashq.** Rus tiliga tarjima qiling. Fe'llarning yasalishini tushuntiring.

1. *Turg`un uni begonaday qarshi oldi.* 2. *Men guruh sardori etib Aziz Ahrorovni saylashni taklif qilaman.* 3. *Kechirasiz, sizni xafa qilmoqchi emas edim.* 4. *Do`kondan anchagina narsa xarid qildik.* 5. *U singlisiga chiroyli ro`molcha olib berdi.* 6. *Salimga tug`ilgan kunida qo`l soat sovg`a qildik.*

 **8-mashq.** O`zbek tiliga tarjima qilib yozing. Qo`shma fe'llardan foydalaning.

1. ХакиМ изложил свою точку зрения. 2. Ты можешь перевести это на узбекский язык? 3. На нашем факультете организована работа кружка молодых поэтов и писателей. 4. На дом было задано выучить стихотворение Айбека «Наъматак». 5. Рекомендовано к печати научным Советом НИХД имени Камалиддина Бегзода.


**9-mashq.** Nuqtalar o`rniga tegishli fe'llarni qo'yib ko'chiring.

1. *Islom Karimov respublikamizning birinchi prezidenti bo'lib ...* . 2. *U 1917 yil 6-noyabrda Jizzax shahrida ...* . 3. *Sh.Rashidov buyuk shoir Alisher Navoiyga yuksak ehtiromda ...* . 4. *Uning yoshlik yillari endigina barpo bo'lgan sovetlar davlati davriga ...* .

Fe'llar: *bo'lgan, faoliyat yuritgan, to'g'ri keldi, tavallud topgan.*

### KO'MAKCHI FE'L

O'zbek tilida harakatning turli sifatini ko'rsatish, shuningdek, unga turlicha modal ma'no berish maqsadida ko'makchi fe'llar ishlatiladi. Hozirgi o'zbek tilida ko'makchi fe'l sifatida quyidagi fe'llar qo'llanilishi mumkin:



Qolaversa, ular o'z lug'aviy ma'nosini tamoman yoki qisman yo'qotadi. Ko'makchi fe'l bog'langan fe'l asosiy fe'l deyiladi va u har doim **-(i)b; -a(y)** qo'shimchasini olib ravishdosh shaklida qo'llaniladi.

Masalan:

*yoza olmoq*      **МОЧЬ ПИСАТЬ**

*o`qib chiqmoq* закончить читать

*aytib ko`rmoq* попробовать сказать

Bu shaklni qo`shma fe'l bilan almashtirib yubormaslik muhim.

*olib bermoq*  
(купить кому-то)

*olib ketmoq*  
(уносить)

Qoshma fe'l bir tugal harakatni bildiradi. Ko`makchi fe'lli shakl turli modal ma'nolarni beradi. Masalan, *olmoq* (братъ) fe'li.

-(i)b shakli bilan qo`llanganda harakat subyekt tomonidan bajarilganligiga ishora qiladi:

*yozib olmoq*  
(записать для себя)

*bilib olmoq*  
(узнать)

-a(-y) shakli bilan qo`llangan ko`makchi fe'l harakatning bajarilish imkoniga ishora qiladi (va "мочь" fe'li bilan tarjima qilinadi):

*yozsa olmoq*      *o`qiy olmoq*

*bermoq* fe'li harakatning boshqa subyekt uchun bajarilishini ko`rsatadi:

*yozib bermoq*  
(написать для кого-то)

*o`qib bermoq*  
(прочитать кому-то)


yoki asosiy fe'l bilan ifodalangan harakatning davomiyligiga ishora qiladi:

*yozavermoq*  
(продолжать писать)


*o`qiyvermoq*  
(продолжать читать)

Bu holda fe'l *ver* deya talaffuz etiladi va yoziladi.



 **9-mashq.** Soʻz qoʻshilmalarini ruz tiliga tarjima qiling. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

*Oʻqib boʻlmoq, sinib qolmoq, kutib yotmoq, tanib qolmoq, berib turmoq.*

 **10-mashq.** Oʻzbek tiliga tarjima qiling.

1. Я прочитаю тебе сказку. 2. Он все еще ждет своего преподавателя. 3. Я закончил читать роман Кадырий «Минувшие дни». 4. В коридоре я увидел своего старого знакомого. 5. Хозяева встретили нас очень тепло.

**11-mashq.** Matnni oqing hamda qoshma fe'llarni koʻchirib yozing.

Milliylik – muayyan xalqqa xos boʻlgan, uni boshqalardan farqini koʻrsatuvchi xususiyatlar majmui. Milliylikda millatning tarixi, qadriyatlari, anʼanalari, madaniyati, yashash tarzida yaqqol namoyon boʻladi. Hech bir xalq oʻzligini anglamasdan, milliy madaniyati, milliy qadriyatlarini asrab-avaylab, saqlamasdan turib, boshqa xalqlarning qadriyatlariga hurmat bilan qaray olmaydi. Mustaqil Oʻzbekistonning kuch-qudrati xalqimizning umuminsoniy qadriyatlariga sodiqligidadir.

## 14-DARS

### MILLIY TASVIRIY VA AMALIY SAN'AT

#### *Og`zaki nutq:*

Ko`p yillar davomida san`atshunoslar “tasviriy san`at” tushunchasiga “milliy” to`n kiydirmaslik kerak degan fikrda yashadilar. Shunday bo`lsa-da, dunyo tarixidagi ibtidoiy tasviriy san`at, xususan, g`orlarning devorlaridagi turli tasvirlar O`rta Osiyoda ham bo`lganligi ma`lum. Miloddan avvalgi III-IV asrlarga oid san`at asarlari, asosan, bino ichidagi devoriy rasmlar bilan bog`liq bo`lib, haykalchalar, naqshlar asosiy bezak manbalari sifatida xizmat qilgan.

O`rta asr Sharq mamlakatlarida tasviriy san`at sohasida kitob grafikasi bilan bog`liq miniatyura keng rivoj topgan. Har bir davrda jang-u jadallarni, shohlar hayotini, uchrashuvlar, tarixiy shaxslar siymosini tarix zarvaraqlarida muhrlash uchun rassomlar ijtimoiy hayotda muhim o`rin egallagan desak, mubolag`a bo`lmaydi. Demak, tushunchaning o`zini “milliy” emas deyilishiga sabab yo`q. U barcha xalq, elat va millat bilan barobar rivoj topgan ekan, “o`zbek” tushunchasi bilan tengdosh ifoda desak bo`ladi. Zero, o`zbek xalqining hunarmandchilikka bo`lgan moyilligi tasviriy san`at bilan hamohang.



Bugungi kunga kelib, tasviriy va amaliy san`at sohasida milliylik atamalarda emas, g`oyalarda, burilishlarda, innovatsion ijodlarda namoyon bo`lmoqda. Bugungi kunda, milliy istiqlol g`oyalari bilan sug`orilgan portret<sup>1</sup>, manzara va natyurmort<sup>2</sup>, tarixiy, turmush<sup>3</sup> va boshqa janrlarda milliylik va zamonaviylikning uyg`unligini yaqqol ko`rishimiz mumkin.

---

<sup>1</sup> Amir Temur, Alisher Navoiy, Jaloliddin Manguberdi, Kamoliddin Behzod, Nodirabegim, Bibixonim, Spitamen.

Ko`hna milliy amaliy san`atimiz ham mustaqillik yillarida anchagina taraqqiy topdi. Tarixiy siymolarning haykallari bunga yaqqol dalildir. Shu bilan bir qatorda, bu sohadagi innovatsion g`oyalar mamlakatning iqtisodiy va sayyohlik sanoati rivojiga hissa qo`shayotganligi quvonarli hol.

**1-mashq.** *Mavzuga oid matnni o`qing, mazmunini to`liq tinglab tushuning.*

**2-mashq.** *Matndagi atama va iboralarning ma`nosini izohlang.*


*Yozma nutq:*

🏠 **3-mashq.** *Milliy san`at namunalaridan biri haqida matn tuzing.*

🏠 **4-mashq.** *Ijod jarayonida eng ko`p foydalaniladigan milliy elementlar ro`yxatini tuzing va tavsiya qiling.*

**Grammatika:**

## FE`LNING VAZIFA UCHUN XOSLANGAN SHAKLLARI



<sup>2</sup> L.Salimjonova, A.Mo`minov, S.Abdullayev, I.Haydarov, O.Qozoqov, G`Abdurahmonov, A.Mirsoatov san`at asarlari

<sup>3</sup> B.Jalolovning “Oltin asr”, “Koinot ustunlari”, “Abadiyat gumbazi ostida”, S.Alibekovning “G`aroyib sharbat hidi”, J.Umarbekovning “Zilzila”, “Havorang musiqachilar”, B.Oxunovning “Buddaning tongi sayri” kabilar

## SIFATDOSH

**Sifatdosh** – predmet yoki shaxsning belgisini bildirib, fe'l va sifatning xususiyatlarini o'zida mujassam etgan fe'l shaklidir. O'zbek tilida sifatdosh quyidagi shakllarga ega:

**O'tgan zamon sifatdoshi** (причастие прошедшего времени) – **-gan** qo'shimchasi bilan yasaladi: *o'qigan* (читавший, прочитавший), *yo'zgan* (написавший) va h.

**Hozirgi zamon sifatdoshi** (причастие настоящего времени) **-a(-y)** qo'shimchali ravishdosh **-yotgan** qo'shimchasini olib, yasaladi: *kelayotgan* (идущий), *ishlayotgan* (работающий) va h.

**Hozirgi-kelasi zamon sifatdoshi** (причастие настояще-будущего времени) **-digan** qo'shimchasi bilan yasaladi: *ishlaydigan* (работающий или тот, который будет работать), *yo'zadigan* (пишущий или тот, который будет писать).

Sifatdosh **-ma** qo'shimchali inkor shakliga ega, bu qo'shimcha o'zak yoki negizdan keyin qo'shiladi:

*yo'zmagan*

(не написавший)

*yo'zmayotgan*

(не пишущий)

*yo'zmaydigan*

(не пишущий или тот, который не будет писать)

**Kelasi zamon sifatdoshi** (причастия будущего времени) **-(a)r** va **-mas** (inkor shakli) qo'shimchalari bilan yasaladi: *o'qir*, *yo'zar*, *o'qimas*, *yo'zmas*. Bu shakl amalda mustaqil qo'llanilmaydi, ammo zamon shaklini yasashda asos vazifasini o'taydi.

Sifatdosh sifat kabi ot so'z turkumi o'rnida qo'llanish xususiyatiga ega:

*Ko'p o'qigan ko'p biladi* (Читавший много знает много).

*Yurgan daryo, o'tirgan bo'ura* (пословица. Буквально: тот, который ходит - река, тот, кто сидит - коврик).

**5-mashq.** *Bilmoq* fe'lidan sifatdoshning barcha zamon bo'lishli va bo'lishsiz shakllarini yasang.

**6-mashq.** Rus tiliga tarjima qiling.

1. *Oqar suv doim toza va sovuq bo'ladi.* 2. *Ekinni erta ekkan, hosilni erta o'rar (maqol).* 3. *Imtihon topshiradigan talabalar ro'yxati e'lon qilindi.* 4. *Tuni bilan yoqqan yomg'ir tongga yaqin qorga aylandi.*



**7-mashq.** O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Собравшихся приветствовал ректор университета профессор Б.Кадыров. 2. Студенты, работающие над квалификационной работой, должны много читать, уметь анализировать. 3. У нас в университете много преподавателей, хорошо знающих иностранные языки. 4. Кто трудится честно, всегда в почете.



**8-mashq.** Matnni o'qing va sifatdoshlardan foydalanib matn doirasida savollar tuzing.

Hozirgi zamon jahon tasviriy san'ati tez va turli oqim hamda yo'nalishlarda rivojlanmoqda. Lekin bu jarayon hamma mamlakatlarda bir xil kechmoqda deb bo'lmaydi. Bir mamlakatda realizm, boshqasida impressionizm, yana boshqasida abstraksionizm shuhrat qozonmoqda.

Umuman esa XIX asr oxiri va XX asr tasviriy san'ati taraqqiyotida Fransiya, Meksika, AQSH, Ispaniya, Rossiya kabi mamlakatlar yetakchilik qilmoqdalar. Jahonning ilg'or tasviriy san'ati vakillaridan fransiyalik P.Gogen, O.Renuar, A.Matiss, O.Roden, Ispaniyalik P.Pikasso, Amerikalik R.Kent, Meksikalik D.Sikeyros, D.Rivera, Italiyalik R.Guttuzo, Rossiyalik I.Shishkin, S.Konenkov, I.Repin, I.Ayvazovskiy, O'zbekistonlik O'.Tansiqboyev, Ch.Axmarovlarni ko'rsatish mumkin. Bu va boshqa bir qator rassomlar tasviriy san'atining asosiy oqimlardan hisoblangan realizm, romantizm, impressionizm, formalizm kabi oqimlarda ijod qilmoqdalar.

## 15-DARS

### JAHON SAN'ATI TARIXI

#### *Og`zaki nutq:*

San'at juda qadim zamonlarda, mehnat jarayonining taraqqiyoti natijasida paydo bo`ldi. Quldorlik jamiyati vujudga kelishi bilan esa ijtimoiy taraqqiyotda katta o`zgarishlar sodir bo`ldi; aqliy mehnat jismoniy mehnatdan ajralib chiqa boshladi. Bu esa fan va san'at rivojida muhim ahamiyat kasb etdi.

Antik san'at asrlar mobaynida insoniyatni maftun etib, uni o`ziga jalb etib kelmoqda. Yevropa xalqlari shu san'at va madaniyatga, grek va rimliklar yaratgan ma'naviy boyliklarga murojaat qilib keldilar. Bugungi Yevropa san'ati va teatri, adabiyoti va falsafasi antik dunyoga suyanadi.

O`rta asrlarda me'morchilik yetakchi o`rinni egalladi. Bizgacha O`rta asrlar me'morchilik san'atining juda ko`p nodir yodgorliklari saqlanib qolgan. Qadimgi Rus san'ati bevosita o`sha davrlarda yashagan boshqa xalqlarning madaniyati va san'atining ta'siri ostida rivojlandi.

Uyg`onish davrida xalqchil asarlar yaratildi. Shu boisdan ham bu davr gumanizm asri, deb nom oldi. Go`zallik va garmoniyani real voqelikdan qidirish, real voqelikdan keng foydalanish shu davr taraqqiyotining mezonini belgiladi. Perspektiva, rangshunoslik, soya va yorug`, odam anatomiyasi va shunga o`xshash sohalarda katta yutuqlar qo`lga kiritildi.

XVII-XVIII asrda shahar loyihalashtirilishiga alohida e'tibor berila boshlandi, shaharda me'morchilik ansambllari paydo bo`ldi. Turmushda go`zal buyumlarga intilish kuchaydi. Tevarak-atrof go`zalligiga e'tibor berish, bog`-park san'atini maydonga keltirdi. U bilan birga dekorativ haykaltaroshligi ham rivoj topdi.

XVIII asrning oxiri XIX asrning boshlarida tanqidiy realizm rivojlandi. Rassomlar o`z asarlari bilan idealistik san'atga qarshi chiqib, aristokratiya parokandaliklarini tanqid qila boshladilar.

Har bir davrning o'z yo'nalishi va oqimi bo'lib, buyuk san'atning rang-barang ko'rinishi asrlar davomida turli sabablar bilan sayqallanib kelindi. Bugun ularning har birining o'z shinavandasi bor.


**1-mashq.** Mavzuga oid matnni o'qing, mazmunini to'liq tinglab tushuning.

**2-mashq.** Matndagi atama va iboralarning ma'nosini izohlang.

**3-mashq.** Matnni qisqartirib so'zlab bering.

*Yozma nutq:*

 **4-mashq.** Yevropa san'ati haqida ma'lumot tayyorlang.

 **5-mashq.** Jahon rassomlaridan birining faoliyati haqida taqdimot tayyorlang.

 **6-mashq.** Jahon tasviriy san'at ustalari ro'yxatini tuzing.

*Grammatika:*

## RAVISHDOSH

**Ravishdosh** – harakat yoki holatning belgisini bildiruvchi fe'l shakli.

O'zbek tilida quyidagi qo'shimchalar yordamida yasalgan bir nechta ravishdosh shakllari qo'llaniladi:

**-(i)b:** *so'rab* (спросив, попросив), *eslab* (вспомнив), *yig'ilib* (собравшись) va **b**. Bu shakl bir nechta vazifani bajaradi.

**-i(-a):** *o'ylay* (думая), *yura* (идя). Odatda bu ravishdoshlar takror qo'llanadi.

1. Harakatning belgisini bildiradi (bajarilish yo`li): *O`qituvchimiz doim kulib gapiradi.* (Наш учитель всегда говорит с улыбкой (улыбаясь)).

2. Asosiy fe`l bilan yordamchi fe`lni bog`laydi: *so`rab ko`r* (попробуй – спроси), *ishlab tur* (поработай пока) va h.

3. Tobe gap kesimi bo`lib, murakkab gap qismlarini bog`laydi: *Tuproqda tuz ko`payib, daraxtlar quriy boshladi* (Изда того, что в земле много соли, деревья начали сохнуть).

4. O`tgan zamon hikoya fe`lini yasalishida asos hisoblanadi.

Bu ravishdoshlarning inkor shakli quyidagi qo`shimchalar bilan yasaladi.

**-may, -masdan:** *o`ylab* (подумав), *o`ylamay, o`ylamasdan* (не подумав).

**-gach:** *kelgach* (придя), *yozgach* (написав), *bilgach* (узнав) va h.

Ular:

1. Vaqtni bildiradi: *Uyga kelgach, biroz dam oldim.* (Придя домой, немного отдохнул)

2. Sababni bildiradi: *Vaqt kech bo`lgach, hammamiz tarqaldik.* (Так как было поздно, мы все разошлись).

**-guncha:** *kelguncha* (до того, как пришел), *bilguncha* (до того, как узнал), *chiqquncha* (до того, как вышел) va h.

Bu shakldagi ravishdoshlar:

1. Bog`lanib kelgan fe`l bilan birgalikda harakatning paytini bildiradi: *Manzilga to yetib borguncha, qo`shiq menga abadiy hamroh.* (Пока я дойду до цели, песня мой вечный спутник (из песни)).

2. Murakkab qo`shma gapda tobe gapning kesimi hisoblanadi va taqqoslashni bildiradi. U holda fe`l bilan ifodalangan harakat tobe gapdagidan ko`ra bosh gapda afzallikka ega bo`ladi: *Tiz cho`kib yashaguncha, tik turib o`lgan yaxshi.* (Буквально: лучше стоя умереть, чем жить преклоняясь).



**-gani.** Buning yordamida ravishdosh maqsadni anglatadi: *ko`rgani* (чтобы новестить, увидеть), *bilgani* (чтобы знать), *o`qigani* (чтобы учиться) va h. Bu tipdagi ravishdosh inkor shakliga ega emas.



**7-mashq.** O`zbek tiliga tarjima qiling.

1. Окончив университет, я буду преподавать историю. 2. Вали, не слушая моих слов, продолжал свою работу. 3. Мы расстались, пожелав друг-другу счастливого пути. 4. Прочитав ваше письмо, я очень обрадовался. 5. Позавтракав, я начал собираться в дорогу. 6. Я сегодня еду навестить своего большого друга. 7. Я вернусь до того, как придет мама.



**8-mashq.** Rus tiliga tarjima qiling.

1. *Bo`taboy gapga tushuna olmay, Nizomiddinovga qaradi. (S.Ahm.)*  
2. *O`ynab gapirsang ham, o`ylab gapir. (maqol)* 3. *Mehmon kula-kula bo`lgan voqeani gapirib berdi.* 4. *Kitobni olib, Avazbek kutubxonadan chiqdi.* 5. *U orqasiga qaramay, yugurganicha ketib qoldi.*

**9-mashq.** Nuqtalar o`rniga tegishli qo`shimchalarni qo`yib gaplarni ko`chiring.

1. *Sobir o`rtog`idan uyga vazifasini so`ra..., daftarga yozib oldi.* 2. *Burhon yur...-yur... bir joyda to`xtadi.* 3. *Muqaddas o`yla... javob berdi.* 4. *Madina onasi ishdan kel... institutga ketdi.* 5. *Surayyo onasi kel... hamma ishlarni qilib qo`ydi.* 6. *Sirojning ukasi o`yna... ko`chaga ketdi.*

**10-mashq.** Berilgan fe'llardan ravishdosh yasab gap tuzing.

*Yur, bor, asra, uxla, sakra, tuna, qol.*

## HARAKAT NOMI

**Harakat nomi** – harakatning atamasi hisoblanib, harakat yoki holatni vaqtiga, shaxsiga va boshqalarga ishora etmay, uni atab keladi. Shuning uchun harakat nomi ot soʻz turkumining grammatik kategoriyalariga ega. U quyidagi qoʻshimchalar bilan yasaladi:

**-(i)sh:** *yugurish* (бегать, бег), *chekish* (курить, курение), *suzish* (плавать, плавание);

**-(u)v:** *o`quv* (учение), *so`rov* (анкетирование), *yoziuv* (письмо) va h.

Bu shaklga koʻpincha ot soʻz turkumi sifatida qaraladi, chunki oʻzbek tilida otning maʼnosi keng. Hatto ayrimlari ot soʻz turkumiga oʻtib boʻlgan: *saylov* (выборы), *o`quv* (учение) va h. Hamma feʼl ham bu shaklga ega emas.

**-moq:** *o`qimoq* (учиться), *bilmoq* (знать).

Yuqorida bu shaklning oʻzbek tilida feʼlning boshlangʻich shakli ekanligi haqida bayon etilgan edi.

Harakatning har uchchala shakli ham **-ma** inkor qoʻshimchasini qabul qila olmaydi. Zero ular maʼno jihatdan farqlanmaydilar, yagona **-maslik** qoʻshimchasi bilan yasaluvchi inkor shakliga ega: *o`qimaslik* (не ученье), *bilmaslik* (незнание, не знать) va h.

**Yodda tuting:** *a* va *i* bilan tugagan feʼllarga *v* yoki *q* bilan boshlanuvchi qoʻshimchalarni qoʻshganda tovushlar almashinuvi sodir boʻladi:

<b>a-o</b>	<b>i-u</b>
<i>so`ra – so`rov</i>	<i>o`qi – o`quv</i>
<i>sayla – saylov</i>	<i>to`qi – to`quv</i>
<i>yangra – yangroq</i>	
<i>sayra – sayroqi</i>	

Rus tilidan hamma feʼl asosli otlar oʻzbek tiliga harakat nomi shaklida tarjima qilinadi: чтение – *o`qish*.

**11-mashq.** Quyidagi fe'llardan har uchala qo`shimcha yordamida harakat nomi yasang. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

*Otlan, gaplash, tayyorla, ayt, kul, ber.*

 **12-mashq.** O`zbek tiliga tarjima qiling.

1. Нам нужно посмотреть эту статью. 2. Сегодня вы можете отдохнуть. 3. Я могу сейчас зайти к декану? 4. Я должен написать заметку в стенгазету. 5. Я люблю слушать музыку, петь, читать стихи. 6. Чтобы много знать надо много читать.

 **13-mashq.** Rus tiliga tarjima qiling.

1. *Aytish oson, bajarish qiyin (maqol).* 2. *Men o`qishga kirish uchun ikki yil urindim.* 3. *Kecha fakultetimizda shoirlar bilan uchrashuv bo`lib o`tdi.* 4. *Barvaqt yo`lga chiqishimiz zarur.* 5. *Xonada chekish mumkin emas.* 6. *Vatan saodati uchun yashash – oliy baxt.* 7. *Buni bilmaslik mumkin emas.*

**14-mashq.** Quyidagi birikmalar ishtirokida gaplar tuzing.

*Uyg`onish fasli, aytishim kerak, qizg`in bellashuv, qiziqarli uchrashuv, darsga kechikmaslik.*

## 16-DARS

### ATLAS VA ADRAS

#### *Og`zaki nutq:*

Qadimda o`zbek xalqining milliy matolari — atlas va adraslar ko`rkamligi hamda sifati bilan butun sharq-u g`arbda mashhur bo`gan. Afsuski, XIX asr oxir XX asrga kelib mamlakatdagi siyosiy tuzum tufayli mazkur an`ana unutib yuborildi. Shukrki, mana keyingi yillarda ko`pgina milliy hunarmandchilik yo`nalishlarimiz yana qayta tiklanganiday, atlas va adras to`qimachiligi san`ati ham yana ravnaq topa boshladi.

Marg`ilon azaldan atlas va adrasni tayyorlashning tarixiy markazi bo`lib kelgan. Yo`qolib borayotgan an`analarni tiklash va saqlash maqsadida 2007-yilda Marg`ilonda hunarmandchilikni rivojlantirish markazi ochilgandi.

Markaz atlas va adras to`qish hunarini asrash, rivojlantirish va ommalashtirish bilan shug`ullanadi. Markaz xodimlari bu qadimiy hunar bilan tanishishni istaganlar uchun mashg`ulotlar, ko`rgazma va yarmarkalar o`tkazishadi. Shuningdek, Marg`ilonda har yili “Atlas bayrami” an`anaviy to`qimachilik festivali bo`lib o`tadi.

YUNESKO o`zbek shoyi matolari – atlas va adrasni tayyorlash qadimiy texnologiyasini Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo`yicha ilg`or tajriba ro`yxatiga kiritgan.

“Atlas” so`zi arab tilidan tarjima qilinganda tekis, silliq degan ma`noni anglatadi. U tanda<sup>4</sup> ipi ham, arqoq<sup>5</sup> ipi ham tabiiy ipakdan to`qiladigan bir yuzlama silliq mato hisoblanadi.

Alohida ishlov berib atlasga jilo beriladi, shunga ko`ra u tovlanib turadi. Atlasning tabiiy ipakdan to`qilgan eng a`lo navi sakkiz tepkili xon atlas deb ataladi. Xon atlasning barcha siri uning tuzilish hamda to`qilish usulidadir.

---

<sup>4</sup> Вдоль натянутая нить длиной для изготовления ткани.

<sup>5</sup> Поперечные нити ткани, переплетающиеся с продольными, составляющими основ.

Adras 1920-yillarda Marg`ilon, Xo`jand, Buxoro, Samarqand va boshqa joylarda to`qilib, O`rta Osiyo bozorlaridan tashqari Afg`oniston, Xioy kabi qo`shni mamlakatlarda ham sotilgan.

Ipak matolar orasida eng mashhuri abrli<sup>6</sup> atlas va xon atlasdir. Ularning o`ziga xosligi – bezak va gullar matoga emas, balki o`rish ipining o`ziga chiziladi.

Atlasdan ayollar liboslari, ko`rpa, ko`rpachalar, erkaklar qiyig`i va boshqa buyumlar tikiladi.

Atlas va adrasning o`nlab turlari uchraydi. Bular quyidagilar: “Marg`ilon”, “Navro`z”, “Rasadxona”, “Bibixonim”, “Nog`ora”, “Kiprik”, “Qirolicha”, “Panja”, “Kelinchak”, “Qora atlas”, “Bargi karam”, “Chaqirim”, “Yahudiy nusxa”, “Namozshomgul”, “Shaxmat”, “Qora ko`zim”.

**1-mashq.** Mavzuga oid matnni o`qiting, mazmunni to`liq tinglab tushuning.

**2-mashq.** Matndagi atama va iboralarning ma`nosini izohlang.

<b>TANDA</b> Mato to`qish uchun uzunasiga, bo`ylama tortilgan ip.	<b>ТАНДА</b> [узб.] Вдоль натянутая нить длиной для изготовления ткани.
<b>ARQOQ</b> Gazlamaning o`rishi bilan ko`ndalanggiga kesishuvchi iplari.	<b>УТОК</b> Поперечные нити ткани, переплетающиеся с продольными, составляющими основ.
<b>ABR//ABRLI</b> [f. ابر – bulut] Matoga solingan naqsh (gul), mato tandasini bog`lab rang berish natijasida hosil bo`ladi.	<b>АБР//АБРЛИ</b> [n. ابر – облако] Узор наносимый на ткань, появляется в результате окрашивания ткани, перевязанной нитью вертикально.

<sup>6</sup> Узор наносимый на ткань, появляется в результате окрашивания ткани, перевязанной нитью вертикально.

## Yozma nutq:



**3-mashq.** “Xon atlas” mavzusida taqdimot tayyorlang.



**4-mashq.** Adras haqida ma'lumot tayyorlang.

## Grammatika:

### FE'L ZAMONLARI

Zamon kategoriyasi nutq jarayonidagi vaqtga munosabatni ifoda etadi. O'zbek tilida ush xil zamon shakli bor. Ularning har birining bir nechtdan shakllari mavjud.



### O`TGAN ZAMON

O'tgan zamon fe'li harakatning nutqdan oldin sodir bo'lganligini bildiradi.

O'tgan zamon o'zbek tilida quyidagi shakllarga ega:

#### Yaqin o'tgan

**zamon** (недавно  
прошедшее время)

Ba'zi adabiyotlarda bu shaklni **aniq o'tgan zamon** (очевидное прошедшее время) deyiladi, u harakatning ishtirokchisi yoki kuzatuvchisi bo'lgan odamning gapirishdan sal avval bo'lgan harakatini ko'rsatadi. Bu shakl asosga **-di** hamda shaxs son qo'shimchalarini qo'shish orqali yasaladi:

*tushundim*

Bunday fe'llarning inkor shakli **-ma** inkor qo`shimchasini zamon qo`shimchasidan oldin qo`shish yo`li bilan yasaladi:

*tushunmadim, tushunmadingiz*

**Uzoq o`tgan zamon**  
(давно прошедшее  
время)

Uzoq o`tgan zamon o`tgan zamon sifatdosh shaklidan so`ng **emoq** to`liqsiz fe'lini ergashtirib kelishi asnosida yasaladi. To`liqsiz fe'l deb atalishining sababi, u mustaqil qo`llanila olmaydi. U **emas, edi, emish, esa** shakllariga ega. **Emas** shakli inkor shaklini yasaydi:

*katta-katta emas*

**Esa** shakli bog`lovchilarga o`tgan. Boshqa shakllari turli ma'nolarni beradi. Rus tiliga **edi** shakli **был** so`zi bilan tarjima qilinadi:

*Karimning dadasi zo`r bog`bon edi.*

(Отец Карима был отличным садовником).

**O`tgan zamon hikoya fe'li** (форма  
пересказительного  
прошедшего  
времени)

Bu shakl asosga **(i)b** va shaxs son qo`shimchalarini qo`shish yo`li bilan yasaladi. Bunday fe'l eshitilganlik, ya'ni gapirayotgan odam harakatning ishtirokchisi yoki kuzatuvchisi bo`lmaganligi, faqat kechroq o`zgalarning axborotidan bilib olganligi ma'nosini beradi:

*Bir kuni Afandidan so`rashibdi: – Yoshingiz  
nechada?*

Однажды у Афанди спросили: – Сколько вам лет.

Tarjima jarayonida “оказывается, говорят, выходит” soʻzlari qoʻllaniladi.

**Oʻtgan zamon maqsad feʻli**  
(глагол намерения прошедшего времени)

Oʻtgan zamon maqsad feʻli harakatning oʻtgan zamonda boʻlgan bajarilish niyati, maqsadini bildiradi. Buning ustiga harakatning bajarilgan yoki bajarilmaganligini tushuntirmaydi. Bu shakl **-moqchi** qoʻshimchasidan soʻng **edi** toʻliqsiz feʻlini qoʻllash orqali yasaladi:

*Men sizga shuni aytmoqchi edim.*

Я вам хотел сказать именно это.

**Oʻtgan zamon davom feʻli**  
(продолжительное прошедшее время)

Uzoq davom etgan zamon shaklidagi feʻllar harakatning oʻtmishda koʻp bora yoki muntazzam bajarilganligini koʻrsatadi:

*Yoʻlchi chindan ham nay chalishni bilar edi va yaxshi chalar edi.*

Юлчи на самом деле умел играть на свирели и играл хорошо.

Oʻtgan zamonning bu shakli kelasi zamon sifatdosh shaklidan **(-(a)r; -mas** qoʻshimchalaridan) soʻng **edi** toʻliqsiz feʻlini ergashtirish usuli bilan yasaladi.

U harakatning oʻtmishda aniq vaqtda bajarilayotganligini anglatishi mumkin. Masalan:

*Men uyga kirganimda, buvim kitob oʻqib oʻtirar edilar.*



Когда я вошел в дом бабушка сидела читала.

Bu shakl har doim tugallanmagan ko`rinishda tarjima qilinadi. To`liqsiz fe'l qo`shib yozilishi mumkin, u holda *e* harfi tushib qoladi:

*borardim, bormasdim*

## HOZIRGI ZAMON

Hozirgi zamon fe'li nutqdan avval boshlangan, ammo hali tugamagan harakatni bildiradi, nutq paytida u to`xtagan bo`lishi mumkin.

O`zbek tilida hozirgi zamonning ikkita shakli bor:

### **Hozirgi zamon**

#### **davom fe'li**

(настоящее

продолжительное

время)

Hozirgi zamon davom fe'li **-yap** (**-mayap** inkor shakli) shaxs son qo`shimchalari ko`magida yasaladi.

*Men o`zbek tilini o`rganyapman*

*(o`rganmayapman).*

Я изучаю (не изучаю) узбекский язык.

Aytilganidek, nutq jarayonida harakat to`xtagan bo`lishi mumkin, ammo u davomiyligiga ega.

Shuningdek, o`zbek tilida hozirgi zamon davom fe'li **-yotib** (устаревший), **-yotir** (диалектальный) va **-moqda** qo`shimchalari bilan ham yasaladi. Lekin, birgina **-moqda** qo`shimchasi inkor shakliga ega emas.

**Yodda tuting:** Hozirgi zamon davom fe'li *tur*, *o`tir*, *yot* va *yur* holat fe'llaridan **-ib** qo`shimchasi yordamida yasaladi:

*turibman* (стою), *yotibdi* (лежит)

Inkor shakli sifatdoshga egalik qo`shimchasining qo`shilishi hamda *yo`q* so`zining qo`shilishi bilan vujudga keladi:

*O`tiribman – o`tirganim yo`q. Yotibdi – yotgani yo`q*

**Hozirgi-kelasi zamon fe'li**  
(настоящее-будущее время)

Hozirgi-kelasi zamon fe'li bir nechta ma'nolarni anglatadi. Bu shakl affiks **-a (-y)** qo`shimchasiga tushlangan ravishdosh bilan yasaladi:

*bilaman*

**-ma** inkor shakli bilan:

*bilmayman*

Bu shakl quyidagilar uchun xizmat qiladi:

1. Hozirgi zamoni anglatish uchun: *qush uchadi, kir yuvadi,*
2. Kelasi zamoni anglatish uchun: *keyin o`rganib ketadi*

## **KELASI ZAMON**

Kelasi zamon nutqdan keyin sodir bo`ladigan harakatni bildirib keladi.

O`zbek tilida ikkita kelasi zamon shakli bor:

**Kelasi zamon gumon fe'li**  
(Предположительное будущее время)

Kelasi zamon gumon fe'li kelajakda sodir bo`lishi mumkin bo`lgan harakatni anglatadi.

*Ertaga balki sayr qilgani borarmiz.*

Возможно, завтра пойдем на прогулку.

Bu shakl **-(a)r; -mas** qo`shimchasini olgan) kelasi zamon sifatdoshi bilan yasaladi.

*borarman, bormasman*

### **Kelasi zamon**

**maqsad fe'li** (Глагол намерения будущего времени)

Bu shakldagi fe'l aniq maqsad yoki u yoki bu harakatning sodir bo`lish taxminini ko`rsatadi. Kelasi zamon maqsad fe'li fe'l o`zagiga **-moqchi** va shaxs-son qo`shimchalarining qo`shilishi bilan yasaladi.

*olmoqchiman*

Inkor shakli **emas** so`zining qo`shilishi yordamida vujudga keladi:

*olmoqchi emasman, olmoqchi emassan*

**5-mashq.** Fe'llarni tegishli shaklda qo`llab, gaplarni ko`chiring.

1. Men Navoiy nomli 1-maktabni (bitirmoq). 2. Sayohatga (otlanmoq) do`stlarimizni vokzalgacha (kuzatib bormoq). 3. U shunday (berilmoq) (kuylamoq)-ki, hamma beixtiyor (jim bo`lib qolmoq). 4. Shahrimiz keyingi yillarda ancha (ko`rkamlashmoq).




**6-mashq.** Fe'llarni tegishli shaklda qo`llab gaplarni ko`chiring.

1. Abror bolaligida juda to`polonchi (bo`lmoq). 2. Toshkent shahridagi ko`plab uylar zilziladan keyin (qurilmoq). 3. Tog`amni ko`rgani kasalxonaga (bormoq). 4. Sizni bir (ko`rmoq) (demoq).

**7-mashq.** Berilgan fe'llarni o'tgan zamon davom fe'li shaklida qo'llab, gaplar tuzing.

*Qatnashmoq, bajarmoq, o'zlashtirmoq, ulgurmoq, o'rganmoq.*


**8-mashq.** *Bilmoq* so'zini yaqin, uzoq va o'tgan zamon davom fe'li shaklida qo'llab, gaplar tuzing.

 **9-mashq.** Birikmalarni rus tiliga tarjima qiling, ular ishtirokida gaplar tuzing.

*Ufqqa bosh qo'ymoq, olmosdan yasalgan varrak, musaffo bolalik, tasalli bermoq, supada o'tirmoq.*


**10-mashq.** Fe'llarni o'tgan zamon hikoya fe'li shaklida tuslang va ular ishtirokida gaplar tuzing.

*topmoq, solmoq, bilmoq, so'ramoq, yig'moq.*

 **11-mashq.** *Bilmoq* fe'lini o'tgan zamonning barcha shakllarida tuslang. Har bir zamon shaklida qo'llab beshta gap tuzing.

**12-mashq.** Gaplarni o'qing. Fe'llar qanday zamondagi harakatni ifodalashini tushuntiring.

*1. Men hozirgina yetib keldim. 2. Bobur o'n ikki yoshda Andijon taxtiga o'tiradi. 3. Bugun 62-poyezd bilan Buxoroga jo'nab ketyapman. 4. Kechqurun diskotekaga bordik. 5. Endigina oshni damlagan edim. 6. Sizni ko'rmasam, qaytib ketar edim.*

 **13-mashq.** *Kelmoq* fe'lini barcha zamon ikkinchi shaxs birlik shaklida qo'llab gaplar tuzing.

**14-mashq.** Gaplarni o`qing. Fe'llarning zamon shakli va ma'nosini ayting.

1. *Sohiba kecha biznikiga kelgan edi.* 2. *Shoir Muqimiy faqirlikda kun kechiradi.* 3. *Umr o`tar, vaqt o`tar, xonlar o`tar, taxt o`tar.* 4. *Qani, hammamiz dasturxon atrofiga keldik.* 5. *Karimning dadasi hozir chet elida ishlaydi.* 6. *Mehnat baxt keltiradi (maqol).*



**15-mashq.** Maqollarni o`qing. Rus tilidagi muqobilini toping.

1. *Erta ekkan, erta o`radi.* 2. *Zar qadrini zargar biladi.* 3. *Bola shirin, odobi undan shirin.* 4. *Qari bilganni pari bilmas.* 5. *Oy yoritadi, ammo isitmaydi.*

**16-mashq.** Berilgan fe'llarning zamonini ayting.

*Ishladi, kelgan edi, borgan emas edi, bormoqchi emas edim, kelmabdi, ishlayapti, ishlar, ishlamoqchi emas, ikkilanyapti.*

## 17-DARS

### XATTOTLIK SAN'ATI

#### *Og`zaki nutq:*

Naqqoshlik va xattotlik san'atining islom aqidalariga muvofiq keng yoyilganligi insonning ilohiy va dunyoviy go`zalliklardan bahramandlikka intilish maylidan dalolat beradi.

Avvallari kitoblar qo`lda ko`chirilar, bu mehnat turi san'at darajasiga ko`tarilgan edi. Go`zallik qonunlariga rioya qilib ishlangan qo`lyozma kitoblar «Nafis kitob» va xattotlik san'ati deb yuritilgan. Nafis kitob san'at turi sifatida kitobxonga estetik zavq bag`ishlashi lozim bo`lib, bu sohada mashhur xattotlar, naqqoshlar yetishib chiqqan edi. Mohir xattotlar va naqqoshlarning o`z usul va an`analari qaror topgan edi.

XIV-XV asrlarda nafis kitob va xattotlik san'ati yangi taraqqiyot bosqichiga ko`tarildi. Mashhur xattot Ali Tabriziy (1330-1404-y.) nasta'liq xatini kashf qildi. Bu uslub xatti kufiy, xatti shikasta, nasx va boshqa uslubdagi xatlar o`rnini keng egalladi. Nasta'liq uslubi Sulton Ali Mashhadiy tomonidan yanada takomillashtirildi. «Xatti hirotiy» nomi bilan mashhur bo`lgan bu uslub XX asr boshlarigacha davom etdi.

Sulton Ali Mashhadiy «Qubtat ul kuttob» («Kotiblar sardori») va «Sulton ul xattotin» unvoni bilan sharaflangan. Mashhur xattot, naqqosh, shoir bo`lgan Sulton Ali Mashhadiy ko`chirgan Nizomiy, Attor, Sa'diy, Jomiy, Navoiyning nafis kitoblari jahon kutubxonalarida hozir ham nodir san'at asarlari sifatida e'zozlanib saqlanadi.

Sulton Ali Mashhadiyning 1514-yilda yozilgan «Xattotlar va musavvirlar haqida risola»sida aytilishicha, husnixat (xattotlik) san'atining o`ziga xos maxsus maktabi bo`lgan. O`sha davrda zabardast ijodkorlar asarlari musavvirlar tomonidan bezatilib, uning matnlari husnixat orqali maxsus xattotlar tomonidan bitilgan.

Bu esa o`sha asarlarning xalq orasida keng tarqalishiga va sevib o`qilishiga sabab bo`lgan. Qo`lyozma devonlarni bezatishda qo`llaniladigan bezak va naqshlar turli-tuman bo`lib, har bir devon


tuzuvchining sahifalarga oro berishda o`ziga xos uslubi bo`lgan. Shu bois qo`lyozmalarni ko`chirish va ziynatlashda qo`llaniladigan naqsh va jilo turli-tuman ko`rinishda bo`lganligi sababli, har bir bezak xili alohida nomga ega bo`lgan. Sharq kitobati va me'morchiligida, asosan, «islamiy», «xitoyi» bezaklari ko`p ishlatilgan.

**1-mashq.** Mavzuga oid matnni o`qing, mazmunni to`liq tinglab tushuning.

**2-mashq.** Matndagi atama va iboralarning ma'nosini izohlang.

**3-mashq.** Matnni o`zgartirib so`zlab bering.


*Yozma nutq:*

 **4-mashq.** Xattotlik to`g`risida taqdimot tayyorlang.

*Grammatika:*

## FE'L MAYLLARI

Fe'l mayli – voqelikka bo`lgan harakat yoki holatning munosabatini bildiruvchi fe'ning grammatik kategoriyasi. O`zbek tilida 4 xil fe'l mayli mavjud.



**Xabar mayli.** O`tgan hamda kelasi zamon maqsad fe'llaridan tashqari hamma zamon shakllari xabar mayliga kiradi. Bu ikkisi esa maqsad mayliga tegishli. Xabar mayli gapirayotgan odamning harakatning o`tgan,

hozirgi va kelasi zamonda ekanligini haqiqat deb hisoblashini ko`rsatadi. Maqsad mayli biror harakatning bajarilish maqsadini ifodalaydi.

**Buyruq-istak mayli.** Bu mayl gapirayotgan odamning xohish-istagini bildiradi. Har qanday fe'lining asosi uning II shaxs birlikdagi buyruq shakli bilan barobar. Buyruq-istak maylidagi fe'l quyidagicha tuslanadi:

Birlik		Ko`plik	
I shaxs	<i>ayt+ay</i>	I shaxs	<i>ayt+aylik</i>
II shaxs	<i>ayt</i>	II shaxs	<i>ayt+ing</i>
III shaxs	<i>ayt+sin</i>	III shaxs	<i>ayt+sin(lar)</i>

#### Inkor shakli

Birlik		Ko`plik	
I shaxs	<i>ayt+ma+y</i>	I shaxs	<i>ayt+ma+ylik</i>
II shaxs	<i>ayt+ma</i>	II shaxs	<i>ayt+ma+ng</i>
III shaxs	<i>ayt+ma+sin</i>	III shaxs	<i>ayt+ma+sin(lar)</i>

Ikkinchi shaxsga nisbatan iltimosni yanada bo`rttirish uchun ba'zan -**gin** qo`shimchasi qo`shiladi: *aytgin, yozgin, bergin* va h. Ayim hollarda ko`plik hamda hurmat ma'nolarini farqlash maqsadida -**lar** qo`shimchasi qo`shiladi: *ayting* (*скажете* уважительная форма), *aytinglar* (обращение к нескольким людям).

**Shart mayli.** Shart mayli fe'li harakatning boshqa birov tomonidan bajarilishiga muhtoj harakatni anglatadi. Bu shakl fe'l asosiga -**sa** hamda shaxs son qo`shimchalarining qo`shilishi ko`magida paydo bo`ladi.

Birlik		Ko`plik	
1-shaxs	<i>kel+sa+m</i> (если приду)	1-shaxs	<i>kel+sa+k</i> (если придем)
2-shaxs	<i>kel+sa+ng</i> (если придешь)	2-shaxs	<i>kel+sa+ngiz</i> (если придете)
3-shaxs	<i>kel+sa</i> (если придет)	3-shaxs	<i>kel+sa (lar)</i> (если придут)

Bunday fe'lining inkor shakllari mayl qo`shimchasidan oldin qo`shiladigan -**ma** qo`shimchasi bilan yasaladi: *kel+ma+sa+m*,



*kel+ma+sa* va h. Fe'ning **kerak** so'zi bilan birga kelishi shart maylida taxminni anglatadi:

*borsak kerak* – возможно, поедем

*yomg'ir yog'sa kerak* – возможно, будет дождь

Fe'ning so'roq shaklidagi **mayli** so'zi bilan birga qo'llanilishi istak, iltimosni ifoda etadi:

*kirsam maylimi* – можно ли я войду

*so'rasam maylimi* – могу ли я спросить

**5-mashq.** O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Напиши-ка мне список присутствующих. 2. Учись как правильно говорить по-узбекски. 3. В субботу он пусть останется на дежурство. 4. Карим, будь добр, принеси мне чашечку чая. 5. Пусть брат на ужин приготовит плов.



**6-mashq.** Buyruq-istak maylidagi fe'llar ishtirokida gaplar tuzing.


**7-mashq.** Gaplarni rus tiliga tarjima qiling.

1. Agar dushman taslim bo'lmasa, uni yanchib tashlaydilar. 2. Bugun biznikiga kelsang, birga dars tayyorlardik. 3. Futbol o'ynamasam ham o'yin qoidasini yaxshi bilaman. 4. Havo issiq bo'lib tursa, ko'chat ekishni boshlab yuboramiz. 5. Izzat qilsang, izzat topasan (Maqol).



**8-mashq.** Maqollarni yod oling.

1. Shavla ketsa ketsin, obro' ketmasin. 2. Nima eksang, shuni o'rasan. 3. Katta arava qayoqqa yursa, kichigi ham shu yoqqa yuradi. 4. Bola kulsa, olam kuladi.


 **9-mashq.** Shart maylidagi fe'llar ishtirokida 5-6 ta gap tuzing. Ularni rus tiliga tarjima qiling.

**10-mashq.** O`zbek tiliga tarjima qiling.

1. Если будет время, зайдем навестить Карима. 2. Если не будет дождя, поедem в горы. 3. Если бы не ты, я бы не смог перевести эту статью. 4. Чем раньше ты придешь, тем лучше. 5. Как только он приедет, тут же начнем ремонт.

**11-mashq.** Maqollarni o`qing. Mazmunini rus tilida ayting.


1. *Gap bilan shoshma, ish bilan shosh.* 2. *Sanamay sakkiz dema.* 3. *Bir tup nok eksang, bir tup tol ek.* 4. *Bugungi ishni ertaga qo`yma.* 5. *Avval o`yla, keyin so`yla.* 6. *Tiling bilan dilingni bir tut.*

 **12-mashq.** Gaplarni rus tiliga tarjima qiling.

1. *O`zingni, o`z uyingni o`zing asra.* 2. *El-u yurt dardiga darmon bo`laylik.* 3. *Ertaga hamma hasharga kelsin.* 4. *Sen, yaxshisi, buguncha dam ol.* 5. *Gulnoraga ayt: tepaga qo`ng`iroq qilsin.* 6. *Qani, oldinga tushib ko`r-chi!*

## FE'L NISBATLARI

Nisbat kategoriyasi subyekt va harakat obyektiga nisbatan munosabatni ifodalaydi. Bu munosabatni fe'lning maxsus shakllari belgilaydi. Nisbatning o`zgarishi bilan obyekt bilan subyektdagi harakat ham o`zgaradi. O`zbek tilida beshta fe'l nisbatlari mavjud.



**Aniq nisbat** (действительный залог) nol ko`rsatkichga ega. Bu nisbat shaklini bildirayotgan harakatning subyekti – ega, obykti esa tushum kelishigidagi to`ldiruvchi bo`lib keladi:

*O`qituvchi yangi mavzuni tushuntirdi.*//Учитель объяснил новую тему.

**O`zlik nisbati** (возвратный залог) subyekt tomonidan bajarlayotgan harakat o`ziga qaytganini ko`rsatadi. U fe'l asosiga **-(i)l**, **-(i)n**, ba'zan esa **-(i)sh** qo`shimchalarining qo`shilishi bilan yasaladi.

<i>yuvmoq</i>	МЫТЬ	→	<i>yuvinmoq</i>	МЫТЬСЯ
<i>kiymoq</i>	ОДЕВАТЬ	→	<i>kiyinmoq</i>	ОДЕВАТЬСЯ
<i>kermoq</i>	ПОТЯНУТЬ	→	<i>kerishmoq</i>	ПОТЯГИВАТЬСЯ

**Majhul nisbat** (страдательный залог) obykti – ega, subyekti esa vositali to`ldiruvchi (gapda u tushib qolgan bo`lishi mumkin) bo`lgan harakatni ko`rsatadi.

*Xat yozildi.*//Письмо было написано.

Bu shakl o`zakka **-(i)l**; **-(i)n** qo`shimchalarining qo`shilishi asnosida yasaladi:

<i>qurildi</i>	построен
<i>solindi</i>	положен
<i>ko`rildi</i>	рассмотрен

**Birgalik nisbati** (взаимно-совместный залог) harakatning ikki va undan ortiq subyekt tomonidan bajarilganligiga ishora qiladi. U **-(i)sh** qo`shimchasi bilan yasaladi:

*ko`rishmoq*    видеться  
*yozishmoq*    переписываться  
*yuvishmoq*    помочь мыть

Bu shakl bir nechta subyekt bilan sodir etilganlini ko`rsatadi:

*Bolalar sayrga chiqishdi.*//Дети вышли на прогулку

Harakatni bajarishda bir subyekt ikkinchisiga yordam berganini ko`rsatadi:

*Hadicha onasiga kir yuvishdi.*//Хадича помогла матери стирать.

Mazkur **-(i)sh** qo`shimchasi **-lar** (ko`plik qo`shimchasi) ga nisbatan sinonimik munosabatda:

*o`qidilar* → *o`qishdi*  
*yozdilar* → *yozishdi*

**Orttirma nisbat** (понудительный залог) subyektning harakatni boshqa shaxs orqali bajarganligini ko`rsatadi. U fe'l asosiga **-t, -tir(dir), -gaz, -giz, -sat, -ar, -ir, -iz** qo`shimchalarining qo`shilishi yordamida vujudga keladi:

*yoz*    *yozdir*  
*ko`r*    *ko`rsat*  
*sana*    *sanat*  
*bit*    *bitir*  
*chiq*    *chiqar*  
*oq*    *oqiz*

*Salima yangi ko`ylak tiktirdi* – Салиме сшили новое платье. Bir so`z shaklida bir nechta nisbat qo`shimchalari bo`lishi mumkin, u holda

nisbatni hosil qiluvchi eng oxirgi qo`shimcha bilan baholanadi: *yuvintirishdi* – o`zaro qo`shma nisbatli fe'l залoга.

**13-mashq.** Gaplarni o`qing. Fe'llarning qaysi nisbatdaligini ayting. Rus tiliga tarjima qiling.

1. *Maktabimizda mingga yaqin o`quvchi o`qiydi.* 2. *Bu yil universitetga mingdan ziyod talabalar qabul qilindi.* 3. *Saida bilan Nozima derazalarni yuvishdi.* 4. *Biz maktab bog`iga terak nihollarini o`tqazdik.* 5. *Akam bu yil institutni bitiradi.* 6. *Shahodat shirin xayollarga berildi.* 7. *Tohir shu kuni uzoq yo`lga otlandi.*

**14-mashq.** Fe'llarning mumkin bo`lgan nisbat shakllarini yasang. Ular ishtirokida gaplar tuzing.


*Bil, o`qi, tushun, top, tani.*

 **15-mashq.** O`zbek tiliga tarjima qiling.

1. Мы договорились с Нигорой о встрече. 2. Мои родители живут в Самарканде. 3. Я познакомлю тебя со своими однокурсниками. 4. Газета напечатана в типографии университета. 5. Сегодня мои родители возвращаются из командировки. 6. Сегодня мы собираемся в университетском клубе. 7. Данияр очень грамотно написал свою квалификационную работу.

**16-mashq.** Maqollarning o`zbekcha muqobilini ayting. Fe'l nisbatlarini tushuntiring.

1. Друзья познаются в беде. 2. Знание – сила. 3. Яблоко от яблони не далеко падает. 4. Куда большая телега, туда и маленькая. 5. Семь раз отмерь, один раз отрежь.

 **17-mashq.** Fe'l nisbatlari yasalishiga doir misollar yozing.

## 18-DARS

### MARDLAR QO`RIQLAYDI VATANNI

#### *Og`zaki nutq:*

Qadimdan Ona – Vatan himoyasi yigit kishi uchun sharaflı kasb sanalib kelinadi.

Sharqda ham, G`arbda ham yurt osoyishtaligini muhofaza etishga, bu ishga o`zini bag`ishlaganlarga hurmat va e`tibor bilan qaraganlar. Bu o`rında Amir Temurning “Askarlari qudratli yurt boy bo`lur, boy yurtning askarlari qudratli bo`lur” degan so`zlarini eslash kifoya. Istiqlolga erishgan O`zbekiston ham o`z Harbiy doktrinasini qabul qildi. Qurolli kuchlarini tashkil etdi. O`zbekiston Qurolli kuchlari Quruqlikdagi qo`shinlar, Havo hujumidan mudofaa, Harbiy Havo kuchlari, Muhandislik qo`shinlari, Maxsus qo`shinlar va Milliy Gvardiyadan iborat Qo`shin turlarining har biri muayyan maqsadlarni ko`zlab, aniq vazifalarni hal etish uchun tuzilgan. Xalqimiz o`z himoyachilarini cheksiz hurmat qiladi. Hozirda harbiy xizmat, harbiy xizmatchilarning nufuzi, ijtimoiy maqomi ortib bormoqda. Minglab yoshlar o`zlarini sharaflı va o`ta mas`uliyatli kasb – zobitlikka tayyorlab, buyuk bobolarimiz Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Bobur, Pahlavon Mahmud, Muqannalar an`analari davomchisi bo`lishni orzu qilmoqdalar.




**1-mashq.** Matndagi atama va iboralarning ma`nosini izohlang.

**2-mashq.** Mashhur tarixiy jangchilardan misollar keltirib, ular haqida bilganlaringizni so`zlab bering.

#### *Yozma nutq:*

**3-mashq.** Tarixda o`z jasorati bilan nom qoldirgan qahramonlar haqida hikoya tuzing.

 **4-mashq.** Davriy ishlardagi maqolalar asosida fidoyiligi bilan tanilgan zamondoshlarimiz haqida ma'lumot tayyorlash.


### Mustaqil ta'lim

*“Vatanparvarlik nima” mavzusida esse yozish.*

**Grammatika:**


## YORDAMCHI SO'ZLAR

Yordamchi so'zlar mustaqil so'z turkumlarini grammatik aloqasi bo'lib xizmat qiladi.



## BOG'LOVCHI

**Bog'lovchilar** – bir turdagi dap bo'laklari yoki qo'shma gap qismlarining o'zaro aloqasi bo'lib xizmat qiladi.



Tobe bog'lovchilar o'zaro teng grammatik komponentlarni bog'laydi: bir xil gap bo'laklari, shuningdek, murakkab qo'shma gap qismlarini. Ular uch xil bo'ladi:

Teng bog'lovchilar

**biriktiruvchi  
bog'lovchilar**

**zidlov bog'lovchilari**

**ayiruv bog'lovchilari**

сочинительные  
союзы

*va* и  
*ham* тоже  
*hamda* и

противительные  
союзы

*ammo* но  
*lekin* } однако  
*biroq*

разделительные  
союзы

*yo* }  
*yoki* } или  
*yohud*  
*goh* }  
*dam* } то  
*ba'zan*

Ular odatda takror  
qo'llaniladi

Tobe bog'lovchilar gap bo'laklarini bog'lash bilan bir qatorda, ergashgan qo'shma qap qismlarini ham birlashtiradi. Ularga quyidagilar kiradi:

*-ki*  
*chunki*  
*negaki*  
*go'yo*  
*agar*  
*shuning*  
*uchun*  
*toki*

} ПОТОМУ ЧТО, ЧТОБЫ, ТАК КАК

**5-mashq.** Gaplarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Карим и Назир учатся в одной группе. 2. Ходить было трудно, так как шел дождь. 3. Не сетуйте на жизнь, ибо она полна тревог и забот. 4. То шел снег, то переходил в дождь. 5. Сегодня дежурят Икбол или Саида.



**6-mashq.** Gaplarni rus tiliga tarjima qiling.



1. *Adham goh kulib, goh yig`lab, bo`lgan voqeani aytib berdi.* 2. *Tohir yoki Anvar kelganida, shu ishni ularga topshirardik.* 3. *Shamol oldindan esardi, shuning uchun yurish qiyin bo`ldi.* 4. *Nodira ham, Noiba ham faqat a`lo baholarga o`qiydi.* 5. *Unga gaplarimni yetkazing, toki bekorga kutib yurmasin.*

## YUKLAMA

**Yuklama** – gapga yoki alohida so`zlarga turli qo`shimcha ma`no beradigan yordamchi so`z turkumi. Yuklama ikki guruhga bo`linadi:

Yuklama-so`z (слова-частицы):

<i>hatto</i>	даже
<i>faqat</i>	только
<i>xolos</i>	всего, только
<i>ham</i>	тоже
<i>nahot (ki)</i>	неужели
<i>xuddi</i>	точно

Yuklama-qo`shimcha (частицы-аффиксы):

<i>-mi</i>
<i>-chi</i>
<i>-a(ya)</i>
<i>-ki</i>
<i>-da</i>
<i>-oq</i>
<i>-(yoq)</i>

Yuklama so`z yoki gapga ta`kidlovchi, inkor etuvchi, chegaralovchi kabi ma`nolarni yuklaydi.

**1. So`roq va taajjub yuklamalari** (вопросительные частицы): ***-mi, -chi, -a, -ya.***

*Dadang keldilarmi?*//Отец приехал.

*Oying-chi?*//А мама?

*Oh, qanday so`lim kecha-ya!*//Ах, какой прекрасный вечер!

**2. Kuchaytiruv va ta`kid yuklamalari** (усилительные и утвердительные частицы): ***-ki, ham, -u, -uy, -da, -oq, -yoq, -ku, -kim.***

*bugunoq*//сегодня же

*aytdim-ku*//сказал же

*bitta ham (yo`q)*//ни одного (нет)

*yoзда ham*//даже летом

**3. Ayiruv-chegaralov yuklamalari** (разделительные и разграничительные частицы): **-gina, xolos, faqat**.

*faqat bitta*//только один

*ikkitagina*//всего два

*shu uchun xolos*//только для этого

**4. Inkor yuklamasi** (отрицательная частица) – **na**.

*Na sen kelding, na men bordim*//Ни ты не пришел, ни я не пошел.


**5. Aniqlov yuklamalari** (уточняющие частицы) **xuddi, naq**:

*Xuddi kechagiday*//Точно как вчера.

**-mi, -oq, -yoq, -gina** dan boshqa hamma yuklamalar defis bilan yoziladi. Aytilganlar esa qo`shib yoziladi. **-u(yu)** yuklamasi biriktiruv va zidlov bog`lovchilari o`rnida qo`llanilishi mumkin:

*ota-yu ona*//отец и мать

*yozdi-yu o`qimadi*//написал, но не прочел.

 **7-mashq.** Gaplarni rus tiliga tarjima qiling.

1. *Shu ham ish bo`ldi-yu!* 2. *O`tgan kuni xuddi shu yerda katta majlis qilindi.* 3. *Tog`larda hatto yoz oylarida ham yomg`ir yog`adi.* 4. *Sizni ranjitib qo`ymadimmi?* 5. *Seni bir dam tutmoqqa endi, na haqqim bor, na huquqim bor.* 6. *Men-ku bundan bexabar edim, sen-chi?* 7. *Ertagayoq Marg`ilonga jo`naymiz.*

## 8-mashq. O`zbek tiliga tarjima qiling.

1. А ты, ты- то о чем думал? 2. Тут же приехала машина скорой помощи. 3. Ведь мы с тобой не встречались целый год! 4. Даже летом он не снимал с головы свою шапку. 5. Наконец-то я увидел тебя!

### КО‘МАКШИ

Ko`makchi – ot so`z turkumi va uning o`rnida kelgan so`zni boshqa so`z turkumi, asosan, fe'l bilan bog`lovchi so`zdir. U otlar aro yoki subyekt bilan predikat o`rtasidagi shartli, sababli, makon va zamonli, yo`naltirilgan kabi munosabatlarni ifoda etadi.

Ko`makchilar o`zbek tilida quyidgilarga bo`lindi:

#### 1. Asl ko`makchilar (собственно послеслоги):

<i>bilan</i>	с
<i>uchun</i>	для
<i>kabi</i>	как
<i>singari</i>	как
<i>go`yo</i>	будто

#### 2. Ot ko`makchilar (отыменные послеслоги):

<i>tomon</i>	в сторону
<i>ilgari</i>	прежде
<i>yonida</i>	рядом
<i>ichida</i>	внутри, среди

#### 3. Fe'l ko`makchilar (отглагольные послеслоги):

<i>ko`ra</i>	по сравнению
<i>yarasha</i>	по

*boshlab* с, начиная  
*qaraganda* по отношению

Shuningdek ko`makchilar so`zlarning qaysi kelishik bilan qo`llanilayotganligiga qarab ham guruhlarga bo`linadi.

bosh kelishik bilan qo`llanadigan ko`makchilar:

<b><i>bilan:</i></b>	<i>non bilan</i>	с хлебом
	<i>akasi bilan</i>	со старшими братом
	<i>qo`li bilan</i>	руками, вручную
	<i>qalam bilan</i>	карандашом
	<i>kechasi bilan</i>	всю ночь
	<i>chiqishi bilan</i>	как только вышел
<b><i>uchun:</i></b>	<i>ukam uchun</i>	для моего младшего брата
	<i>yozish uchun</i>	для письма, чтобы написать
	<i>sovuqligi uchun</i>	так как было холодно
	<i>kelganingiz uchun</i>	за то, что пришли
<b><i>kabi:</i></b>	<i>olmos kabi</i>	как алмаз
	<i>men kabi</i>	как я
<b><i>sayin:</i></b>	<i>kun sayin</i>	с каждым днем
	<i>yil sayin</i>	с каждым годом
<b><i>sababli:</i></b>	<i>betobligi sababli</i>	так как был болен, из-за болезни
<b><i>orqali:</i></b>	<i>pochta orqali</i>	через почту
	<i>telefon orqali</i>	по телефону
<b><i>bo`ylab,</i></b>	<i>yo`l bo`ylab</i>	по дороге
<b><i>yoqalab:</i></b>	<i>daryo yoqalab</i>	вдоль по речке

qaratqich kelishigi bilan qo`llanadigan ko`makchilar:

<b><i>tomon:</i></b>	<i>uyiga tomon</i>	в сторону дома, домой
	<i>kechga tomon</i>	ближе к вечеру

<i>ko'ra:</i>	<i>shunga ko'ra</i>	ПОЭТОМУ
	<i>tuzilishiga ko'ra</i>	ПО СТРОЕНИЮ
	<i>ma'nosiga ko'ra</i>	ПО СМЫСЛУ
<i>qarshi:</i>	<i>shamolga qarshi</i>	ПРОТИВ ВЕТРА
<i>qarab:</i>	<i>qishloqqa qarab</i>	В СТОРОНУ СЕЛА
<i>qaramay, qaramasdan:</i>	<i>shunga qaramay</i>	НЕСМОТРЯ НА ЭТО

chiqish kelishigi bilan qo`llanadigan ko`makchilar:

<b>Yodda tuting:</b>	<i>so'ng, keyin:</i>	<i>shundan so'ng</i>	ПОСЛЕ ЭТОГО
	<i>burun, avval:</i>	<i>undan avval</i>	ДО ТОГО
		<i>bormasdan avval</i>	(прежде чем поехать, до того как поехать)

*bilan ko`makchisi biriktiruvchi bog`lovchilar o`rnida ishlatilishi ham mumkin.*

*Karima va Salima → Karima bilan Salima*



**9-mashq.** Gaplarni rus tiliga tarjima qiling.

1. *Biz o`z tariximiz bilan faxrlanamiz.* 2. *Asfalt xo`l bo`lgani uchun mashinalar sekin yurardi.* 3. *Aziza bu ko`ylakni ukasi uchun sotib olgandi.* 4. *Har kim mehnatiga yarasha daromad qiladi.* 5. *Daryo bo`ylab ohista suzib borardik.* 6. *Dengiz ko`lga qaraganda chuqur.* 7. *Biz uydagilar bilan telefon orqali gaplashdik.*

**10-mashq.** Ko`makchilar ishtirokida gaplar tuzing.

*Kabi, qaramay, burun, keyin, so`ng, ichida, oldida, yonida.*

**11-mashq.** O`zbek tiliga tarjima qiling.

1. Тахир ушел вместе с Бобуром. 2. Не смотря на дождь стадион был полон болельщиками. 3. Мне трудно писать чернилами, лучше

напишу авторучкой. 4. Как только я пришел домой, мать приготовила ужин. 5. Так как было пасмурно, мы отложили поездку в горы.



**12-mashq.** Maqollarni o`qing. Mazmunini tushuntirib bering.

1. *Tog`ning ko`rki tosh bilan, odam ko`rki bosh bilan.* 2. *Yaxshi bilan yursang yetarsan murodga, yomon bilan yursang, qolarsan uyatga.* 3. *Bellashsang, mard bilan bellash.*

## 19-DARS

### KAMOLIDDIN BEHZOD NOMIDAGI MILLIY RASSOMLIK VA DIZAYN INSTITUTI

#### *Og`zaki nutq:*

Mamlakatimiz tasviriy san'ati uzluksiz ta'lim tizimida badiiy ta'lim yo`nalishida mutaxassis tayyorlash bo'yicha yetakchi markaz hisoblangan maktab-internat, 3 ta kollej va Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti faoliyat yuritadi. Ushbu institutning o'z nomiga munosib ravishda milliylikni rivojlantirishga qaratilgan ta'limga tayanib ish ko'rishi ahamiyatga molik. Zero, u tasviriy va amaliy san'at, shuningdek dizayn yo`nalishi bo'yicha mutaxassis kadrlarni yetishtirib chiqaruvchi Markaziy Osiyoda yagona ixtisoslashtirilgan badiiy oliy ta'lim muassasasi.

Institut 1997-yilda Mannon Uyg`ur nomidagi Toshkent davlat san'at instituti (hozirda, San'at va madaniyat instituti)dagi Rassomlik fakultetining ajralib chiqishi bilan tashkil topgan edi.

Dastlab institutda 3 ta: "Rangtasvir", "Amaliy san'at" va "Gravfika" yo`nalishi mavjud bo`lib, keyinchalik "San'atshunoslik" va "Dizayn", "Menejment" hamda "Kasbiy ta'lim" yo`nalishlari ochildi.

Bugungi kunda institutda 4 ta fakultet – Tasviriy san'at, Amaliy san'at, San'atshunoslik va Dizayn faoliyat yuritmoqda. 16 ta kafedra institut talabalariga ta'lim jarayonini tashkil etmoqda.

Hozirda institut talabalarining umumiy kontingenti 1200 ga yaqin. Magistraturada 9 ta yo`nalish bo'yicha ta'lim beriladi. 200 dan ortiq professor-o`qituvchilar talabalarga o'z bilimlarini berishmoqda. Ular orasida akademiklar, xalq rassomlari, san'at va fan arboblari, fan doktor va nomzodlari, professor va dotsentlar faoliyat ko`rsatmoqda.

Ta'lim muassasasida realistik maktab an'analarini rivojlantrish va o`ziga xoslikni saqlab qolish maqsadida professor-o`qituvchilar tomonidan "Mahorat darslari" tashkil etiladi. So`ngi yillarda professor-o`qituvchilar


tomonidan o`quv-uslubiy qo`llanmalar, darslik va qo`llanmalarning yangi avlodi, katalog, multimediyalar, elektron darsliklar hamda boshqa axborot resurslari yaratilmoqda.

**1-mashq.** Mavzuga oid matni o`qing, mazmunni to`liq tinglab tushuning.

**2-mashq.** Matndagi atama va iboralarning ma`nosini izohlang.

**3-mashq.** Matni kengaytirib so`zlab bering.

*Yozma nutq:*


 **4-mashq.** Ilm maskani haqida taqdimot tayyorlash.

 **5-mashq.** Institutda o`tkaziladigan ma`naviy-ma`rifiy tadbirlardan reportaj tayyorlash.

*Grammatika:*

## SO`ZLARNING ALOHIDA GURUHLARI

O`zbek tilida so`zlarning uch xil alohida guruhlari bor:



## MODAL SO`ZLAR

Modal so`zlar aytilgan fikrga nisbatan gapirayotganning munosabatini ko`rsatgan holda, quyidagilarni ifidalaydi:



<u>ishonch:</u>	<i>albatta</i> (обязательно), <i>shubhasiz</i> (несомненно), <i>haqiqatan (ham)</i> (и вправду)
<u>shubha:</u>	<i>ehtimol</i> (возможно), <i>balki</i> (может быть), <i>aftidan</i> (по видимому), <i>chamasi</i> (кажется)
<u>maqsad, shart:</u>	<i>kerak</i> (надо), <i>lozim</i> (нужно), <i>zarur</i> (необходимо)
<u>inkor:</u>	<i>yo`q</i> (нет)
<u>pushaymon:</u>	<i>afsus, attang, esiz</i> (жаль, к сожалению)
<u>fikr manbasi:</u>	<i>menimcha</i> (по-моему)

## UNDOVLAR

Undovlar bu – turli his yoki xohish-istakni yetkazish uchun qo`llanilgan so`zlar: *e, eh, ey, oh, uh, o`ho`, voh* va h. Asosiy guruhni hayvonlarni chaqirish yoki haydash uchun xizmat qiladigan undovlar tashkil etadi: *tu-tu-tu, beh-beh, pish-pish, kisht, po`sht* va h.

## TAQLIDIY SO`ZLAR

Taqlidiy so`zlarga turli tovush hodisalarini, shuningdek, ayrim harakatlarga taqlidni so`z bilan ifodalash kiradi: *yalt-yult* (к сверканию), *taqur-tuqur* (к стуку колес), *lip* (к быстрому движению) va h. O`zbek tilida ko`p fe'llar aynan taqlidiy so`zlardan yasalgan: *pichirlamoq* (щептать), *taqillamoq* (стучать), *g`ichirlamoq* (скрипеть), *yaltiramoq* (сверкать), *qiqirlamoq* (хихикать) va h.

**6-mashq.** O`zbek tiliga tarjima qiling.

1. Ах, как мне нравится эта лилия! 2. По вашему, я ошибаюсь? 3. Несомненно, это был лучший матч «Пахтакор»а в этом сезоне. 4. Издали слышался скрип арбы. 5. Ох, как же я мог забыть. 6. Неужели, этого не может быть.

**7-mashq.** Berilgan undov, modal, taqlidiy so`zlar ishtirokida gap tuzing va rus tiliga tarjima qiling.

*Voy, voy-bo`, xayriyat, shekilli, taqir-tuqur, yalt-yalt.*

**8-mashq.** Rus tiliga tarjima qiling.

*Tarixchilarning bayon etishicha, sayyoramizdagi ilk hayvonot bog`i eramizdan avvalgi I asrda Rim imperatori Avgust buyrig`iga binoan tashkil etilgan. Unda yer yuzining turli burchaklaridan keltirilgan 3500 atrofida jonivor saqlangan.*



**9-mashq.** O`zbek tiliga tarjima qiling.

Национальный институт художеств и дизайна им. Камолиддина Бехзода является одним из самых молодых высших учебных заведений Республики Узбекистан. На рынке образовательных услуг страны он функционирует с **1997 года**, и был создан на базе художественного факультета Ташкентского государственного института искусств им. М. Уйгура (**1945 год**). Он и сегодня является единственным институтом в стране осуществляющим качественную подготовку высококвалифицированных специалистов – живописцев, художников-монументалистов, графиков, скульпторов, мастеров декоративно-прикладного искусства, дизайнеров, менеджеров по видам искусства, искусствоведов и музееведов для Республики Узбекистан и зарубежных стран.

## 20-DARS

### HAYKALTAROSHLIK

#### *Og`zaki nutq:*

Haykaltaroshlik — tasviriy san'atning turi bo`lib, tasvirlanadigan narsani hajmli, uch o`lchovli (uzunlik, kenglik, balandlikka ega) qilib aks ettirish tamoyiliga asoslangan san'at turi. Asosan, inson, qisman hayvon va qushlar, tabiat (manzara), narsalar (natyurmort) ifodalanadi. Haykaltaroshlik asarlari, asosan, 2 turga: hamma tomonidan ko`rish imkoni bo`lgani mukammal shaklli haykalga va bir tomondangina ko`riladigan relyefga bo`linadi. Haykalda kishining boshi, beligacha (byust), tizzasigacha, butun gavdasi (bularda muayyan shaxs aks ettirilgan bo`lsa — portret), ikki yoki bir necha kishi (muayyan shaxslar aks ettirilgan bo`lsa — guruh portret) ishlanishi mumkin. Relyefning hajmi va shakli uning o`rnatiladigan joyiga, qanday maqsadda xizmat qilishiga qarab tanlanadi, undan ko`pincha me'morchilik (friz, fronton, plafon va boshqalar)da foydalaniladi. Relyefning past (barelyef), baland tasvir (gorelyef), fonda o`yib ishlanadigan xillari bor.

Mazmuni va vazifasiga ko`ra haykaltaroshlik monumental haykaltaroshlik (yirik haykal, yodgorlik, memorial inshootlar — jamoat joylariga o`rnatiladi, yirik hajmda ishlanadi, muhim g`oyalar targ`ibotiga xizmat qiladi) va monumental bezak haykaltaroshlikka (binolar, turli inshootlarga, bog`, xiyobon, maydon, yo`l va boshqa joylarda muhitga moslab, bezak tarzida o`rnatiladi, hajmi har xil; badiiy favvoralar ham unga kiradi) bo`linadi. Dastgohli haykaltaroshlik (muzey, ko`rgazma zallariga, binolarning interyerlariga qo`yiladi, hajmi asliga yaqin yoki sal yirik; yaqindan ko`rinadi) va juda kichik haykaltaroshlik asarlari (sopol va chinni haykalchalar, shuningdek, plaketka (relyef, tasvirli plastinka) o`yib ishlangan shakllar, uy-ro`zg`or buyumlari, jihozlar, qurol va idishlardagi shakl-tasvirlar, zargarlikda relyef hosil qilib tayyorlangan bezaklar va shu kabilar)ga bo`linadi.

Monumental, monumental bezak, qisman dastgohli haykaltaroshlik asarlari aralash san'at turiga kiradi. Kichik haykaltaroshlik asarlari ko'pincha uy ichini bezaydi, jihoz, qurol, idish va boshqa buyumlarni badiiy buyumga aylantiradi. Haykaltaroshlikning bu turi juda qadim zamonlardan rivoj topgan.

Metall (bronza, mis, qalay, cho'yan, po'lat, alumin), gips, beton, shisha, plastmassa kabi materiallardan asar quyib, qoliriladi (boshqa materialdan tayyorlangan modeldan shakl-qolip quyiladi). Tayyor metallga zarb berib, ishlov berib, bog`lab ham haykaltaroshlik asari ishlanadi.

Tosh (marmar, granit, ohaktosh, qumtosh, bazalt, diorit va boshqalar), suyak, yog`ochni kesib, yo'nib, o'yib tasvir ishlanadi. Tosh shakl tayyor bo'lganda sayqal beriladi. Yog`och, odatda, nim rangga bo'yaladi.

Haykaltaroshlik tarixi qadimiy paleolit va neolit davrlardayoq sopol, suyak, shox, toshning yumshoq xillaridan hayvon, qush, kishilarning tasvirlari tayyorlangani ma'lum. Qadimgi Misrda toshdan ulkan sfinkslar ishlandi, fir'avnlarning katta haykal va relyeflari yaratildi. Ularda fir'avnning qudrati ifodalandi, ko'pincha ilohiylashtirib aks ettirildi. Qadimda ham, bugungi kunda ham haykaltaroshlik insonparvarlik g'oyalari xizmat qilmoqda.


**1-mashq.** Mavzuga oid matnni o'qing, mazmunini to'liq tinglab tushuning.

**2-mashq.** Matndagi atama va iboralarning ma'nosini izohlang.

**3-mashq.** Matnga munosabat bildirib so'zlang.

*Yozma nutq:*

 **4-mashq.** "Haykaltaroshlik" mavzusida esse yozing.

 **5-mashq.** Jahon haykaltaroshligi yutuqlari haqida taqdimot tayyorlang.

## *Grammatika:*

### **ATAMALAR VA ULARNING VUJUDGA KELISHI**

**Soʻzning leksik maʼnosi bu** – eshitganimizni tasavvur etgan narsa, yaʼni predmet, belgi, miqdor va h. U faqat mustaqil soʻz turkumlarigagina tegishli. Tilning yangi soʻzlar bilan boyishi doimiy jarayon hisoblanadi. Ijtimoiy hayotdagi hamma oʻzgarishlar tilda oʻz aksini topadi. Yangi tushuncha va atamalarning paydo boʻlishi – insonning faol faoliyati bilan birga sodir boʻluvchi tabiiy jarayon.

Ammo, odatda koʻp maʼnoga ega umumisteʼmol soʻzlarga qaraganda, qoidasiga koʻra, atamalar bir maʼnoli boʻladilar. Termin lotincha terminus soʻzidan olingan boʻlib chagara degan maʼnoni beradi. Termin deganda ilm, texnika yoki sanʼat sohasidagi qandaydir tushunchalarni anglatuvchi soʻz yoki soʻz birikmasi tushuniladi. Umumiy tildagi qisman koʻpmaʼnoli va hissiy boʻyoqdorlikka ega soʻzlardan farqli ravishda, atamalar ifodaviylikdan mahrum, bir maʼnolili va aniq qoʻlanish doirasiga mansubligi bilan xarakterlanadi.

Masalan: *Marina, natyurmort, dizayn, libos, janr.*


Yangi terminlarning paydo boʻlishida tilning leksik zaxirasini doimiy ravishda toʻldirib boruvchi bir qator hodisalar oʻz hissasini qoʻshadi. Notanish atamalarni tarjima qilish jarayoni yangi atamalarning paydo boʻlishiga olib keladi. Shubhasiz, eng keng tarqalgan usul oʻzlashtirish hisoblanadi, aynan shuning uchun, internatsionalizmning miqdori koʻp. Shuningdek, yangi atamalar tilning ichki resurslaridan ham paydo boʻladi. Masalan, mavjud umumisteʼmol soʻzlar yoki atamalar yangisining paydo boʻlishi uchun maʼnosi kengayadi. Masalan, *ot* (существительное), *ot* (имя). Yana yangi terminlarning kelib chiqish yoʻllaridan biri bu kalkalash usulidir. Bu usul, asosan, murakkab sostavli terminlarni tarjima qilish jarayonida qoʻllaniladi va har bir sostavning soʻzma-soʻz tarjima qilinishi bilan belgilanadi. Masalan, *ледокол* – *muzyorar*, *cold resistant* – *морозостойкий*.

Ixtisoslik atamaları maʼlum sohaning rivojlanishi bilan tadrijiy oʻzgaruvchan leksik-semantik guruhni tashkil etadi. Hozirgi kunda xalq

xo`jaligining deyarli hamma doirasi islohotlar bosqichida turibdi: mehnat tuzilishi o`zgarmoqda, yangi tushunchalar paydo bo`lmoqda, ishlab chiqarish texnologiyasi, texnik ashyo va qurilmalari yaxshilanmoqda. Axborot xuruji va internetning ta`siri to`g`risida esa gapirma ham bo`ladi.

**5-mashq.** O`qing, atamalarning qaysi sohaga tegishli ekanligini ayting.

*Molbert, lor, vaucher, logoped, solo, guash, tempera, akkreditatsiya, naqd, qo`shin, omonat, oktava, kirim, scalpel, etud, chiqim*

 **6-mashq.** O`z kasbingizga tegishli atamalardan misollar keltiring va izohlang.

 **7-mashq.** Matndan atamalarni ko`chirib yozing.

Realistik haykaltaroshlikni his etishning asosiy xususiyati – uch o`lchamlilik va haykaltaroshlik asarlarining hajmliligidir. Haykaltaroshlik asarini tomosha qilayotgan inson qanday uzoqlik, masofada turishi, uni his etish shartlari san`atkor tomonidan hisobga olinishi kerak.

Marmar, imkon boricha kuchsizroq yoritilgan interyerda havola etilishi lozim. Katta, ochiq maydonlarda esa bronza haykallarni o`rnatish maqsadga muvofiq. Bu yerda aniqlik, batartiblik muhimroqdir. Haykaltaroshlikning asosiy badiiy vositasi sharpa, ya`ni buyumning umumiy shtrixlari hisoblanadi. Ilk qarashda haykalning ma`lum masofada sharpasi qabul qilinadi, shuning uchun haykaltarosh ushbu muhim ifoda vositasiga batafsil ishlov berishi kerak.

Haykaltaroshlikni badiiy his qilishda rang muhim element sanaladi, u hajmlarning nisbatlari va kattaligini his qilishga bevosita o`z ta`sirini o`tkazadi. Haykaltaroshlikda rang tasvirlash emas, ko`proq to`g`irlash, tartibga solib turish vazifasini bajaradi. Rang – bir rangli shakl yuzasidagi nur-soya munosabatlaridan kontrastni yaratadi. Haykaltaroshlik ham grafika, rangtasvir singari realistik va avangard haykaltaroshlikka ajratiladi.

## 21-DARS

### LIBOS DIZAYNI

#### *Og`zaki nutq:*

Arxeologlarning fikricha, libos insoniyat rivojlanishi davrining ilk bosqichida paydo bo`lgan. Libos dekorativ-amaliy san`at buyumidir. Ob-havo ta`siri, hasharotlar chaqishidan saqlanish maqsadida, odamzod loy, yog`, o`simlik bo`yoqlari, keyinchalik tatuirovkadan foydalanib, o`z tanasini himoya qilgan.

XX asrda tikuv mashinasining keng tarqalishi tikuvchi ishini yengillashtirib, ular imkoniyatini ancha kengaytirdi. Bu davrda «yevropa» libos bichimi kirib kelishi bilan O`rta Osiyo xalqlarining an`anaviy libosi qadimiy ko`rinishidan birmuncha o`zgarsa-da, ularda urfiy elementlar saqlab qolingandi.

Bosh kiyim etnik xususiyatga ega bo`lib, u nafaqat xalqlar, balki undagi ma`lum hududlarda ham farqqa ega edi. Shunday bo`lsa-da, barcha xalqlarda salla, ro`mol ko`rinishidagi umumiy bosh kiyim uchraydi, lekin ularning o`lchamlari o`zaro farq qiladi.

Libos vaqti-vaqti bilan juda tez, ba`zida esa juda sekin, lekin doimo o`zgarib, rivojlanib kelgan. Libosdagi o`zgarishlar jamiyat o`zgarishlari, yangi gazlamalar yaratilishi va ishlab chiqarishning rivojlanishi bilan hamohangdir. Millatlar va davlatlararo aloqalar va savdo-sotiqalar rivojlanishi bilan, odamlarning kiyinish uslubi ham almasha boshladi.

Madaniyatshunoslarning fikricha, moda XII—XIII asrlarda vujudga kelgan, chunki bu davrga mansub baland shlapalar, uzun shleyflar, juda tor erkaklar shimlari va uchi yuqoriga egilgan poyabzallar qulay bo`lmasa-da, ularni kiyishgan va shu yo`l bilan ko`pchilikdan ajralib turishga intilishgan.

Modaning eng muhim xususiyati — uning tez-tez almashib turishi hisoblanadi. Yangi moda paydo bo`lishi bilan ma`naviy eskirgan libos va boshqa buyumlar o`zining estetik va moddiy qiymatini yo`qotadi.

Bugungi kunda iste'molchilar tomonidan libos, poyabzal va boshqa keng iste'mol mollariga juda katta talablar qo'yilmoqda, buyumlarning ko'rkamligi va qulayligi ularning eng asosiy xossalari bo'lib qoldi.

Libos shakli odam tanasining shakli bilan chambarchas bog'liq.

Tana proporsiyalari — bu tana va uning alohida qismlarining mutanosibligi hisoblanadi. Tananing to'g'ri proporsiyalari odamga estetik ko'rkamlik va garmonik barkamollik ko'rinishini baxsh etadi.

Azaldan tana proporsiyalarini aniqlashda tananing biron-bir qismi o'lchov birligi sifatida qabul qilingan va shu asosda tananing boshqa qismlari o'lchangan.

Libos, poyabzal va umuman libos badiiy va emotsional-g'oyaviy mazmunga ega bo'lgan holda, shuningdek, foydali va ko'rkam bo'lganidagina badiiy buyumga aylanadi.


**1-mashq.** Mavzuga oid matnni o'qing, mazmunini to'liq tinglab tushuning.

**2-mashq.** Matndagi atama va iboralarning ma'nosini izohlang.

**3-mashq.** Matndagi asosiy fikrlarni ajratib so'zlab bering.

*Yozma nutq:*

**4-mashq.** “Moda va ularga rioya qilish” mavzusida matn tuzing.

 **5-mashq.** O'zbekistonda libos dizayniga bo'lgan e'tibor to'g'risida esse yozing.

 **6-mashq.** Dunyoga mashhur modelyerlar ro'yxatini tuzish.



## **Grammatika:**


### **SINTAKSIS**

Sintaksis – soʻz birikmasi va gapni oʻrganuvchi tilshunoslik boʻlimi. Unda gapning shakl va turlari, soʻz birikmasining tuzilishi va gapda soʻzlarning bogʻlanishi oʻrganiladi. Sintaksisda soʻz ham oʻrganiladi, ammo u leksik birlik yoki nutq boʻlagi emas, balki unga u yoki bu soʻz turkumi sifatida qaraladi.

### **GAPDA SOʻZLARNING BOGʻLANISHI**

Oʻzbek tilida gapdagi soʻzlarning tartibi ham oʻziga xos. Feʼl, odatda, gapning oxirida, aniqlovchi doim aniqlanuvchi soʻz oldidan keladi va h. Koʻp hollarda ikki tilning qoidalari bir biriga oʻxshaydi, bu esa til oʻrganishda qulaylik yaratadi.

Oʻzbek tilida ikki xil sintaktik bogʻlanish farqlanadi:



### **TENG BOGʻLANISH**

Teng bogʻlanish bu – teng, sintaktik jihatdan mustaqil soʻzlarning bogʻlanishi. Tobe bogʻlanish quyidagilar yordamida amalga oshiriladi:

Teng bogʻlovchilar: *Akmal va Ozod, yozdi, lekin oʻqimadi,*

*Anvar yoki Oʻktam*

Teng bogʻlovchilar oʻrnida boʻri bilan qoʻzichoq (ВОЛК И  
qoʻllaniladigan soʻzlar: ЯГНЕНОК), *ota-yu ona, keldi-yu,*  
*ishlamadi*

Sanash ohangi: *olma, oʻrik, shaftoli*

Teng bogʻlanish bilan bogʻlangan soʻzlar bir xil soʻz turkumlari hisoblanadi.

*Bog`imizda atirgul, chinnigul, binafshalar o`sadi.*// В нашем саду растут розы, гвоздики, фиалки.

*Bugun Anvar yoki O`tkir navbatchilik qiladi.*// Сегодня дежурят Анвар или Уткур.

### 7-mashq. Rus tiliga tarjima qiling.


1. *Ona bilan bola – gul bilan lola* (maqol). 2. *Har birimiz a`lo o`qish va halol mehnatimiz bilan yurtimiz ravnaqiga hissa qo`shaylik.* 3. *Navoiy, Bobur, Ogahiy, Muqimiy g`azallarini sevib o`qiyman.* 4. *Tohir, Adham va G`ofur barcha fanlardan a`lo baholar olishdi.* 5. *Yig`ilganlarga palov va sumalak tortildi.*

### 8-mashq. O`zbek tiliga tarjima qilib, bog`lovchi vositalarni izohlang.

1. Чтобы хорошо знать узбекский язык много читаю, пишу и перевожу. 2. На собрании высказали свое мнение Акрам, Хадича и Наргиза. 3. В нашем университете работают факультеты практических психологов и повышения квалификации учителей. 4. Самир ушел в магазин со своим братом Акмалем. 5. Хлопок, пшеница, овощи – все это мы выращиваем в школьном опытном хозяйстве.

## TOBE BOG`LANISH

Tobe bog`lanishda bitta so`z **bosh so`z** (главное слово), ikkinchisi **ergash so`z** (придаточное слово) deyiladi. Tobe bog`lanish uch xil ko`rinishga ega.



**Moslashuv.** Moslashuvda tobe soʻz bosh soʻz qaysi shaxs va sonda boʻlsa oʻshanga moslashadi. Oʻzbek tilida moslashuv faqat ega va kesimlar aro boʻladi (chunki, bu predikativ munosbatga soʻz birikmasi safatida qaralmaydi), shuningdek, qaratqich kelishigidagi soʻz va unga tobe boʻlgan soʻz oʻrtasida yuzaga chiqadi: *kitobning varagʻi, dadamning xonalari*.

Oʻzbek tilida soʻzlar shaxs va sonda (har doim emas) moslashadi. Bu bogʻlanishga kelishik va egalik qoʻshimchalari xizmat qiladi. Ammo, ular tushib qolishi ham mumkin: *maktab bogʻi, bizning koʻcha, sizning mahalla*.

**Boshqaruv.** Boshqaruvda bosh soʻz ergash soʻzning maʼlum shaklga kirishini talab etadi. Boshqaruv ikki xil boʻladi::

1. Feʼl boshqaruvi (глагольное управление), bosh soʻz feʼl bilan ifodalangan: *gʻishtdan qurilgan, akasi bilan ketmoq*.


2. Ot boshqaruvi (именное управление), bosh soʻz feʼldan boshqa istalgan soʻz turkumi bilan ifodalanadi: *otdan baland hayvon, dengizdan chuqur koʻl, mehnatga yarasha daromad*.

Bogʻlanish vositasiga koʻra:

1. Kelishikli boshqaruv (падежное управление): *oʻqishga ketmoq, uydan baland*.

2. Koʻmakchili boshqaruv (послелоговое управление): *akasi uchun olmoq, daromadga qarab buromad*.

**Bitishuv.** Bitishuv bu – bosh va tobe soʻzlarning morfologik koʻrsatkichlarni qabul qilmaydigan tobe bogʻlanish usulidir. Oʻzbek tilida soʻz tartibi muhim ahamiyatga ega. Tobe soʻz har doim bosh soʻzdan oldin keladi: *issiq non* (горячий хлеб), *shirin soʻz* (ласковое слово). Agar soʻz tartibi buzilsa, sodda qisqa gap boʻlib qoladi. Qiyoslang:



O`zbek tilida bitishuv quyidagilar o`rtasida bo`lishi mumkin:

sifat va ot:	<i>chiroyli gul</i>
ot va ot:	<i>temir eshik</i>
son va ot:	<i>birinchi muhabbat</i>
olmosh va ot:	<i>hamma</i>
	<i>o`quvchilar</i>
sifat va ot:	<i>o`qigan bola</i>
ravish va ot:	<i>ko`p kitoblar</i>
ravish va fe'l:	<i>sekin gapirmoq</i>
sifat va fe'l:	<i>yaxshi tanimoq</i>
ravishdosh va fe'l:	<i>kulib gapirmoq</i>

**9-mashq.** Rus tiliga tarjima qiling. So`zlarning bog`lanishiga e`tibor bering. So`z birikmalarini ko`chirib yozing.

1. *Salima ukasini bolalar bog`chasiga olib ketdi.* 2. *Men kitobni bir kechada o`qib bitirdim.* 3. *O`zbekistonda chiroyli joylar ko`p.* 4. *Shahrimizga har kuni minglab sayyohlar kelishadi.* 5. *Tongda boshlangan qor kechga borib ham tinmadi.*




**10-mashq.** O`zbek tiliga tarjima qiling.

1. *Моя старшая сестра работает директором школы.* 2. *В заводской библиотеке много книг узбекских авторов.* 3. *Наш город всегда славился своим гостеприимством.* 4. *Наталья и Андрей уехали отдыхать в горы.* 5. *Наш край богат хлопком, шелком.*

**11-mashq.** Birikmalarni rus tiliga tarjima qiling. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

*O`ylab gapirmoq, shoshib kirib kelmoq, shu kecha, yo`qolgan kitob, shoshilinch xabar.*

 **12-mashq.** O`zbek tiliga tarjima qiling.

1. Он немного задумался над ответом. 2. Я приехал скорым поездом. 3. Мне однокурсники подарили серебряные часы. 4. Наши спортсмены тщательно готовятся. 5. Ахрор любит классическую музыку.

## 22-DARS

### NAQQOSHLIK SAN'ATI

#### *Og`zaki nutq:*

O`rta Osiyo naqqoshlik san`ati qadimdan dunyoga mashhur. Yuksak did bilan ishlangan naqshlar bizni doim hayratga solib kelgan. Bu go`zal naqshlar ajoyib naqqoshlar tomonidan yaratilgan bo`lib, asrlar davomida bunyod topdi, rivojlandi.

Naqsh – arabcha «tasvir», «gul» degan ma`noni anglatadi. Shuningdek, qush, hayvon, o`simlik, geometrik shakllar va boshqa elementlarni ma`lum tartibda takrorlanishdan hosil qilingan bezakdir.

Naqqoshlik har bir davlatning o`ziga xos muhitiga; geografik o`rniga, o`simlik dunyosiga ko`ra rivoj topdi.

O`zbek naqqoshlari, asosan, ko`k (lojuvard), zangori (havo rang, moviy), yashil, sariq, qizil, oq, qora ranglar bilan naqsh ishlaydilar. Naqqoshlikning usul va uslublari avloddan-avlodga o`tgan (masalan, bo`yoq tayyorlash, oldin naqshning asosiy chiziqlarini chizib zaminni bo`yab olish va hokazolar), lekin yozib qoldirilmagan. Ustaning naqsh ishlash sirlarini faqat shogirdlarigina yaxshi bilganlar.

XV asr boshlarida yozilgan «Tasviriy ish ustalari kasb uyushmasining nizomi» nomli risola o`ziga xos axloqiy qoidalar majmuasi bo`lib, unda naqqoshlik ustalari Ubayd Buxoriy, Abdusalol Toshkandiy, Jaloliddin Andijoniy kabi hassos san`atkorlar nomlari hurmat va ehtirom bilan tilga olinadi, naqqoshlik san`ati O`rta Osiyo hududida keng tarqalib, xalq tomonidan bu san`at turi nihoyat darajada e`zozlangani to`g`risida ma`lumotlar beriladi.

Naqqoshlik san`ati «Nizomi»ning yozilishi va bizgacha yetib kelishi bu san`at turining uzoq tarixini, unga izchil amal qilinganini, u binolar va kitoblarni badiiy bezashda, o`ymakorlikda keng o`rin egallaganligidan dalolat beradi.

Naqqoshlar naqsh tushiriladigan joyning nihoyatda silliq bo`lishiga alohida ahamiyat beradilar, bu – naqshning jozibador chiqishiga, bo`yoq

tejalishiga imkon bergan. Naqqoshlarning mehnat qurollari, asosan, naqsh chizmasi, turli hayvonlarning mayin junidan tayyorlanadigan katta-kichik mo`yqalamlar, chizg`ichlardir.

Naqsh tayyor bo`lgandan so`ng bo`yalib va o`chib ketmasligi uchun uni loklaganlar. Lokni, asosan, ustalarning o`zlari tayyorlaganlar. Hozir esa naqqoshlar fabrikada tayyorlangan moyli bo`yoqlardan, tez quruvchi emal bo`yoqlardan foydalanadilar. Daraxt, marmar, ganchga murakkab guldor bo`rtmalar o`yish, yog`och bezash va naqshinkor panjaralar ishlash sohasidagi nodir asarlar me`morchilik bilan bog`liq monumental amaliy bezakli san`at doirasida yaratilmoqda.

**1-mashq.** Mavzuga oid matni o`qing, mazmuni to`liq tinglab tushuning.


**2-mashq.** Matndagi atama va iboralarning ma`nosini izohlang.

**3-mashq.** Matni o`zgartirib so`zlab bering.

*Yozma nutq:*

 **4-mashq.** Naqqoshlik haqida taqdimot tayyorlang.

 **5-mashq.** Naqqoshlik san`atining namoyandalari ro`yxatini tuzing.

 **6-mashq.** Naqqoshlik tarixi haqida matn tuzing.

## Grammatika:

### GAPNING IFODA MAQSADIGA KO`RA TURLARI

Gapning ifoda maqsadiga ko`ra gaplar uchga bo`linadi.



**Darak gap.** Darak gap biror narsa, hodisa kabilardan xabar beradi.

*Yusufxonning ilmiy faoliyati uning shuhratini olamga yo`ydi.*//Научная деятельность Юсуфхана прославила его на весь мир.

**So`roq gap.** So`roq gap gapirayotgan odamning suhbatdoshidan nimanidir bilib olishga qilgan harakatida namoyon bo`ladi. O`zbek tilida ular uch xil yo`l bilan yasaladi:

1. So`roq yuklamalari yordamida:

*Sen institutda o`qiysanmi?*//Ты учишься в институте?

*Akang-chi?*//А твой старший брат?

*Shu kichkina bola-ya?*//Этот маленький мальчишка?

2. So`roq olmoshlari yordamida:

*Kim she`rni yoddan aytib beradi?*//Кто прочитает стихи наизусть?

*Bozordan nimalar olmoqchisiz?*//Что вы собираетесь купить на базаре?

3. So`roq ohangi yordamida:

*Soat besh bo`ldi.* → *Soat besh bo`ldi?*//Время – пять часов. →  
Время – пять часов?




**Buyruq gap.** Buyruq gap turli xohish-istaklarni ifoda etadi: buyruq, iltimos, tahdid va h. Bu gaplarning kesimi odatda buyruq maylidagi fe'l bilan ifodalanadi:

*Sen gaplarimga xafa bo'lma.//Ты не обижайся на мои слова.*

Ifoda etish maqsadiga ko'ra gap turlari undov yoki oddiy ohangda talaffuz etilishi mumkin. Undov gaplarning oxirida undov belgisi qo'yiladi. Undov bilan aytilgan so'roq gaplarning oxirida ikki belgi – undov hamda so'roq belgilari qo'yiladi:

*Shu kichkina bola-ya?!//Этот маленький мальчишка?!*

 **7-mashq.** Matnni o'qing, gaplarni ifoda maqsadiga ko'ra turlarga ajrating.

## POMIDOR

*Erkin Malik*

Otaning kuyovi dehqonchilik bilan shug'ullanardi. Bir kuni qish chillasida o'g'ilchasi bilan pomidor ko'tarib kelib qoldi.

– Parnikdan, – dedi zavqlanib, – to'rt dona qizaribdi, oldini sizlarga olib keldim, oyim bilan yeb duo qiling.

Ota kuyovining dehqonchiligiga baraka so'rab duo qildi. Keyin hadyadan ikkita kattasini chetga ajratib, kampiriga dedi:

– Shuni suvxaltaga sob qo'ysinlar, qo'shni o'rtog'imning sal tobi qochib turibdi, yangilik, zora og'ziga yoqsa...

– Doda? – dedi halidan beri jim o'tirgan nabira tilga kirib.

– Labbay, toychog'im?

– Pamildorining kattalarini buvim bilan o'zila yemaysizlarmi?

Ota nabiraning mehribornligidan xursand bo'lib, kuldi-da:

– Unaqa qila olmaymiz-da bolam, – dedi.

Nabira hayron bo'ldi:

– Nega unaqa qila olmaysiz, bobo?

– O`zinning ziyrak bolam, – dedi bobo uni bag`riga tortib, – u qulog`ing bilan ham, bu qulog`ing bilan ham eshitib ol, bolam. Payg`ambarimiz (alayhissalom): “Sizlardan birortangiz to o`zi yaxshi ko`rgan narsani birodariga ham ravo ko`rmagunicha komil mo`min bo`la olmaydi”, deganlar. Sen bolam, to`g`ri aytding, hamisha mevaning kattasi shirin bo`ladi. Lekin biz yaxshisini o`zimiz yeb, yomonini boshqalarga bersak, unda yomon odam bo`b qolamiz, uqdingmi?

– Bobojon, menam endi o`rtoqlaringa eng yaxshi ko`rgan narsalarimni beraman, bo`ptimi?

– Bo`pti, bolam, hamisha shunday qil.

**8-mashq.** Gaplarni o`qing. Ifoda maqsadiga ko`ra turuni aniqlang.

1. *Nima, siz biz bilan ketmaysizmi?* 2. *Mehmonlar kelishdi?* 3. *Bugun O`zbekistonda hamma bir maqsad bilan yashaydi.* 4. *Tohir o`pkasini qo`ltiqlab kirib keldi.*



**9-mashq.** Rus tiliga tarjima qiling.

1. Bolalar, yo`l harakati qoidalariga rioya qiling. 2. Mazkur buyruqning bajarilishi ustidan nazorat prorektor K.K.Mirsolihov zimmasiga yuklatilsin. 3. Umumiy tilshunoslik kafedrasi o`qituvchisi Z.K. Ikromova sirtqi bo`lim bo`yicha dekan o`rinbosari etib tayinlansin. 4. Mayli, men boraqolay, vaqt ham kech bo`lib qoldi. 5. Bahodir, o`zbek tili kitobingni berib tur-chi?

## 23-DARS

### BO`LAJAK KASBIM

#### *Og`zaki nutq:*

Buyuk yozuvchilardan biri shunday degan edi: «Hayotda o`zingiz shunday kasbni tanlang-ki, u sevimli bo`lsin, shunda siz bir umr ishga bormaysiz». Darhaqiqat, agar kishi o`z sevgan kasbida ishlayotgan bo`lsa u hech qachon ertalab o`zini ishga ketayapman, deb hisoblamaydi.

Bugun dunyo bo`ylab qanchadan-qancha kishi zavod-fabrikalarda, idoralarda, avtomobillarda, ish maydonlarida ish vaqtining tezroq tugashini intizorlik bilan kutib, tushlik vaqtining tezroq kelishi ilinjida soatga ma'yus termulib o`tirishadi. Bu toifadagi kishilar, o`z hatti-harakatlaridan ma'lumki, o`zlari yoqtirgan mashg`ulotni o`z kasblari sifatida tanlashmagan. Ya'ni, ular o`zlariga yoqmaydigan kasb bilan shug`ullanuvchi kishilardir.

Ba'zilar «Kishi bajarayotgan ishidan katta daromad olsa bo`ldi-da, kasb kishiga katta pul keltirsa bo`lgani, uning qilayotgan ishi o`ziga yoqishi ikkinchi darajali», deb hisoblashadi. Ammo hech bir kishi kasbidan zavqlana olmas ekan, o`zi bajarayotgan faoliyati orqali katta daromadga erisha olmaydi.

Ertami, kechmi, har qanday insonni “kelajakda qaysi kasbni egallasam ekan?”, degan savol qiynaydi. Bu masala nafaqat endi oliy o`quv yurtiga kirayotgan yoshlar uchun, balki ma'lum sabablarga ko`ra nufuzliroq, ko`proq haq to`lanadigan ish topishni istagan katta yoshdagi kishilar uchun ham dolzarb muammoga aylanadi. Quyida dunyodagi eng ko`p haq to`lanadigan kasblar reytingi keltiriladi.

1. Xirurg
2. Psixiatr
3. Anesteziolog
4. Uchuvchi
5. Stomatolog

6. Muhandis
7. Huquqshunos
8. Marketolog
9. IT-mutaxassis
10. Seleksioner

Ko`rib turganingizdek, eng yuqori haq to`lanadigan kasblar turli-tuman va bu kasb egalarining har biri nafaqat ko`ngli tusagan ish bilan shug`ullanish, balki o`z kasbi orqasidan yaxshi daromad olish imkoniyatiga ega.

Dunyoning hech bir mamlakatida bizning davlatimizdagidagi kabi uzluksiz va bepul ta'lim tizimi shakllanmagan. O`zbekiston Respublikasida 12 yillik ta'lim ixtiyoriy - majburiydir.

Har bir o`g`il qizning kasb-hunarli bo`lishi, ularning zamon talablariga mos yetuk shaxslar bo`lib yetishishi davlat ahamiyatiga molik masaladir. Har yili davlat byudjetidan o`rta maxsus ta'lim muassasalari uchun juda ko`p mablag` ajratiladi. Davlatimiz tomonidan har bir o`g`il-qizning kasb-hunarga ega bo`lishi uchun barcha sharoitlar yaratib berilmoqda.

**1-mashq.** Mavzuga oid matnni o`qing, mazmunini to`liq tinglab tushuning.

**2-mashq.** Matndagi atama va iboralarning ma'nosini izohlash.

**3-mashq.** Matnga munosabat bildirib so`zlang.

*Yozma nutq:*



**4-mashq.** Kasb tanlovi to`g`risida esse yozing.



**5-mashq.** Kasb-hunar mavzusida o`zbek maqollardan namunalari yozing.

🏠 **6-mashq.** Mutaxassislikka oid terminlar lug`atini shakllantiring.


**Grammatika:**

## GAP BO`LAKLARI

Gap bo`laklari bu – gapda biror vazifani bajaruvchi va aniq bir so`roqqa javob beruvchi so`z yoki so`z birikmasi. Masalan,

*Bugun biz maktab bog`ida ishladik.*

“Biz” so`zi *kim?* degan so`roqqa javob bo`ladi va kim haqida gap ketayotganligini ko`rsatadi. “ishladik” so`zi *nima qildik?* degan so`roqqa javob bo`ladi va ega haqida hukm chiqaradi va h.



## BOSH BO`LAKLAR

Ular gapda asosiy fikrni biladiradi.

**Ega.** Gapning asosiy bo`lagi bo`lib, kim yoki nima haqida gap ketayotganligini ko`rsatadi. O`zbek tilida ular turli so`z turkumlari bilan ifodalanishi mumkin:

Ot bilan: *O`qituvchimiz qiziq bir voqeani aytib berdi.*

Olmosh bilan: *Bu – mening Vatanim.*

Sifat bilan: *Oqlar boshlaydi va ikki yurushda mat qiladi.* (Белые начинают и делают мат в два хода.)

Son bilan: *Ikki – to`rtning yarmi?*

Sifatdosh bilan: *Ko`kka boqqan qoqilar.* (maqol) (Буквально: смотрящий в небо споткнется.)

Harakat nomi bilan: *O`qish – yuksalish.*

Taqlid so`z bilan: *Uzoqdan otlarning dupuri eshitildi.* (Издали слышался топот лошадей.)

Ibora bilan: *Uning oyoq olishi bizga yoqmadi.* (Нам не понравилось его поведение).

**Kesim** – grammatik jihatdan egaga tobe bo`ldan gapning bosh bo`lagi. Uning ikki turi bor: **fe`l kesim** – fe`lning turli shakllari bilan ifodalanadi va **ot kesim** – boshqa so`z turkumlari bilan ifodalanadi. Shuningdek, **sodda kesim** va **murakkab kesim** farqlanadi. Kesim o`zbek tilida barcha so`z turkumlari bilan ifodalanadi:

Ot bilan: *Toshkent – chiroyli shahar.*

Sifat bilan: *Hayot naqadar go`zal!*//Жизнь так прекрасна!

Son bilan: *Bizning uyimiz – yettinchi.*//Наш дом – седьмой.

Olmosh bilan: *Hamma gap – shu.*//Вот весь разговор.

Ravish bilan: *Aytish oson, bajarish qiyin.*//Сказать легко, сделать трудно.

Fe`l bilan: *Men o`zbek tilini yaxshi bilaman.*

Modal so`z bilan: *Bugun yig`ilish bor.*

Ibora bilan: *U nima deyishini bilmay, tilini tishladi.*//Он прикусил язык, не зная что сказать.

**7-mashq.** Gaplarni o`qing, kesimni aniqlang, ifodalanishini tushuntiring.

1. *Aqldan ortiq boylik yo`q (maqol).*
2. *Bahorda kunlar iliy boshlaydi.*
3. *Salim, menga kitobingni berib tur.*
4. *Aytmoqchi bo`lganim mana shular.*
5. *Orzuim yaxshi muhandis bo`lish.*
6. *Mana bu yigit sportchi.*
- 7.

Toxirning hamma ishi aniq va puxta. 8. Salima xabarni eshitib, boshi ko`kka yetdi.

### **8-mashq.** Bosh bo`laklarni aniqlang.

1. *Bugun kursdoshlarimiz Samarqandga jo`nab ketishadi.* 2. *Yurtimizda chiroyli joylar ko`p.* 3. *Men bahor faslini yoqtiraman.* 4. *Ikki karra ikki – to`rt.* 5. *Ko`pni ko`rgan ko`p biladi (maqol).* 6. *Saodat bo`lgan voqeani kula-kula gapirib berdi.*

## **IKKINCHI DARAJALI BO`LAKLAR**

Ikkinchi darajali bo`laklar bosh bo`laklar – ega va kesimni izohlash uchun xizmat qiladi.

**Aniqlovchi** ot yoki otlashgan so`zni ifodalab keladigan har qanday gap bo`lagining belgisiga ishora qiladi. O`zbek tilida u uch xil ko`rinishga ega:

### **sifatlovchi**

(качественное)

Sifatlovchi aniqlovchi predmetning belgisini bildirib, quyidagilar bilan ifodalanadi:

✓ sifat: *Yurtimizda chiroyli joylar ko`p.*

✓ ot: *Bolaligim – oltin davrim.*

✓ son: *Birinchi uyda yashaymiz.*

✓ olmosh: *Bu o`lkada har narsa bordir.*

✓ sifatdosh: *O`ylagan ishlarim amalga oshmadi.*

### **qahatqich**

(притяжательное)

Qaratqich aniqlovchi bir predmetning boshqasiga tegishli ekanligini ko`rsatadi va o`zbek tilida faqat qaratqich kelishigidagi so`z bilan ifodalanadi

*Yurtimiznyng suvi – zar, tuprog`i – gavhar.*

### **izohlovchi**

(изъяснительное)

Izohlovchi aniqlovchi predmetni yangi nom bilan ataydi:

*Vatan – ona so`zi naqadar laziz*

**To`ldiruvchi** – harakat yo`nalgan predmetni anglatuvchi ikkinchi darajali bo`lak. U ikki xil bo`ladi:

**vositasiz** (прямое)

Vositalisiz to`ldiruvchi harakatning predmetga bevosita yo`nalganligini ko`rsatadi va tushum kelishigi (винительный падеж) shaklida bo`ladi *Ko`rgan eshitganni yengibdi.*//Слышавший переспорил видившего.

**vositali** (косвенное)

Vositali to`ldiruvchi harakatning obyektga bilvosita yo`nalganligini bildiradi va u jo`nalish, o`rin-payt, chiqish va ko`makchi bilan kelgan bosh kelishigidagi so`zlar bilan ifodalanadi

*Dekan davlat attestatsiyasi haqida gapirdi.*//Декан говорил о государственной аттестации.

**Hol** bu – harakatning xususiyat (obraz)ini – o`rni, sharti, muhiti, vaqti, maqsadi, sababi, miqdori va darajasini aniqlovchi ikkinchi darajali bo`lak. O`zbek tilida holning quyidagi turlari bor:

**1. Vaziyat holi** harakatning bajarilish yo`lini anglatadi va *qanday?* (как?), *qanday qilib?* (каким образом?) so`roqlariga javob beradi. Ravish, ravishdosh hamda sifatdosh bilan ifodalanadi: *U juda chiroyli yozadi. O`qituvchimiz doim kulib gapiradi.*

**2. O`rin holi** harakatning bajarilgan o`rnini bildiradi va *qayerga?* (куда?), *qayerda?* (где?), *qayerdan?* (откуда?), *qayergacha?* (до какого места?) so`roqlariga javob bo`ladi: *Universitetgacha tramvayda yarim soat yuraman.*

**3. Payt holi** harakatning bajarilgan vaqtini bildiradi va *qachon?* (когда?), *qachondan (beri)?* (с каких пор?), *qachongacha?* (до каких



пор), *qachonga?* (на какое время?) so`roqlariga javob beradi: *Majlis dushanbaga belgilandi.*

**4. Sabab holi** harakatning bajarilish sababibi ko`rsatadi va *nima sababdan?* (по какой причине?) degan savolga javob beradi: *U sevinganidan qichqirib yubordi.*

**5. Maqsad holi** harakatning bajarilish maqsadini anglatadi va *nima maqsadda?* (с какой целью?) degan savolga javob beradi: *Buvimni ko`rgani kasalxonaga bordim.*

**6. Daraja-miqdor holi** harakatning, ba`zan predmetning ham miqdor va darajasiga ishora qiladi hamda *qancha?* (сколько?), *necha marta?* (сколько раз,), *nechanchi marta?* (в который раз?), *qanchalik?* (насколько?), *qanchalab?* (по сколько?) savollari javob bo`ladi: *Senga necha marta aytaman?*

**7. Shart holi** harakatni bajarish shartini ko`rsatadi va *qay sharoitda?* (при каких условиях?) dagan savolga javob bo`ladi, shart maylidagi fe`l bilan ifodalanadi: *U bugun ulgursa keladi.*

**8. To`siqsizlik holi** harakatning bajarilayotgan harakatini kesim bo`lib ko`rsatadi, shart maylidagi fe`l *ham* so`zi bilan birga ifodalab keladi: *Nodira charchasa ham ishida davom etdi*

**9-mashq.** Birikmalarni rus tiliga tarjima qiling.

*Vatanni sevmoq, o`tmishi bilan faxrlanmoq, kitobdan o`qimoq.*



**10-mashq.** O`zbek tiliga tarjima qiling.

1. Салим прекрасно владеет английским языком. 2. Атабек настолько увлекся игрой, что забыл про встречу с Маъруфом. 3. Мне необходимо быть у директора к семи часам. 4. Я принесу тебе книгу, если найду. 5. Иногда он читал нам свои стихи. 6. Отец Абдурашида здорово поет.



**11-mashq.** Maqollarni oqing, yod oling. Hol vazifasidagi so`zlarni toping. Holning turini aniqlang.

1. *Yaxshi topib gapiradi, yomon qopib gapiradi.* 2. *O`ynab-gapirsang ham, o`ylab gapir.* 3. *Yer haydasang, kuz hayda.* 4. *Ishni ko`p ko`zla, gapni oz so`zla.* 5. *Ishtaha ovqat mahalida keladi.*



**12-mashq.** Holning har bir turini qatnashtirib gap tuzing.

## 24-DARS

### MUSIQA SAN'ATI

#### *Og`zaki nutq:*

Musiqa qadimiy tarixga ega. Arastu: «Musiqa ko`ngilga axloqan muayyan ta'sir ko`rsatuvchi quvvatga ega. Shunday ekan, u yoshlarni tarbiyalashda muhim rol o`ynaydi», – degan edi. Darhaqiqat, insonni tarbiyalashda, uning estetik didini o`stirishda musiqaning ahamiyati tengsiz.

Musiqa san'ati Sharqning buyuk allomalari – Beruniy, Forobiy, Ibn Sinolarni ham qiziqtirib kelgan. Bu haqda ular maxsus asarlar ham bitganlar. Masalan, Ibn Sinoning «Al-muddohil ila san'atal musiqiy» asari fikrimizning dalilidir. U mazkur asarda shunday yozadi: «Musiqa hayotbaxsh, olijanob, axloqiy xususiyatlarni rivojlantiradi, u insonga xizmat qiladi. Uning ruhiy va axloqiy qiyofasini shakllantiradi». Olimning musiqaning tarbiyaviy ahamiyati haqidagi qarashlari Arastu fikrlari bilan hamohangdir.

Bundan tashqari, Ibn Sino o`zining tibbiyotga oid «Kitoban-Najot», «Kitob ash-Shifo», «Donishnoma» kabi asarlarida ham musiqa nazariyasi va amaliyoti xususida nodir fikrlarni bayon etib qoldirgan.

O`rta Osiyo olimlari Forobiy, Ibn Sino, Najmiddin Kavkabiy, Darveshali Changiy kabi allomalarning musiqa haqidagi kitoblari dunyoning turli tillariga tarjima qilingan va musiqa ilmi rivoji uchun hozir ham xizmat qilib kelmoqda.

Shuni ham aytish lozimki, Sharq mutafakkirlari musiqa, ashula va maqomlarning yaratilish tarixi, shuningdek, kuylarni tinglash va ijro etishda vaqt va makonning roli xususida ham ibratli fikrlarni bayon etadilar.

Masalan, Mirzo Ulug`bek «Bulujiy», «Shodiyona», «Axloqiy», «Tabriziy», «Usuli ravon» va «Usuli otlig`» kuylarini, Alisher Navoiy «Isfaxoniy» kuyini ijod qiladilar. Jomiy va Binoiylar musiqaga oid asarlar yozadilar. Musiqa san'ati ahllarining ijodiy faoliyati bilan IX–XII asrlarda

vujudga kelgan “duvozda” (12) maqom kuyi bu davrda yangi taraqqiyot pog`onasiga ko`tariladi, takomillashadi va yangi kuylar bilan boyiydi.

Demak, musiqa san`ati ham san`atning boshqa turlari va she`riyat bilan uzviy aloqada rivojlandi, mohir san`atkor mashshoqlar, bastakor va hofizlar yetishib chiqdi. Nodir va bebaho musiqiy asarlar yaratildi.

Sharq va G`arb tillaridagi ko`pgina manbalarda Forobiyning musiqa nazariyasiga bag`ishlangan qomusiy xarakterdagi «Kitob al musiqiy al kabir» («Buyuk musiqa kitobi») yaratganligi va bu kitob so`nggi davrlargacha O`rta va Yaqin Sharqda musiqa nazariyasi va san`atning rivojlanishida muhim qo`llanma bo`lib xizmat qilganligi aytiladi.

Shunday qilib, musiqa deb atalmish ilohiy bu mo`jizada shunday bir sehr mujassamki, uni tushunish ta`sirini sezish uchun hech qanday tarjimonning keragi yo`q.

**1-mashq.** O`zingiz yoqtirgan musiqa janri haqida gapirib bering.

**2-mashq.** Musiqa san`atida erishilayotgan yutuqlar va kamchiliklar haqida fikr bildiring.

*Yozma nutq:*



**3-mashq.** “Musiqa mening hayotimda” mavzusida esse yozish.



**4-mashq.** Vatanni madh etuvchi musiqa matini yod olish va uni kuylash.

## **Grammatika:**

### **UNDALMA**

Undalma bu – nutq kimga qaratilgan bo`lsa, o`shani chaqiruvchi so`z (so`zlar guruhi). Yozuvda u vergul bilan ajratiladi. Undalma maxsus ohang bilan talaffuz etiladi:

*Vatan, sen bunchalar ko`rkam.*

*Dunyoni qizg`onma mendan, azizim. (A.Oripov).*

*Sabr qil, bolam, avval akang kelsin.*

### **KIRISH SO`Z VA BIRIKMALAR**

Kirish so`z (so`z birikmasi) quyidagilarga ishora qiladi:

– fikr manbasiga: *Menimcha, bu yigit universitetimizda o`qiydi.*

– fikr ketma-ketligiga: *Avval o`yla, keyin so`yla.*

– fikr xulosasi, yakuni va ifoda etish usuliga: *Xullas, safar hammamiz uchun ham foydali bo`ldi.*

– ishonchni bildirishga: *Albatta, biz bilan ketasiz.*

– shubhaga: *Ehtimol, biz bilan ketarsiz.*

### **GAPNING UYUSHIQ BO`LAKLARI**

Gapning uyushiq bo`laklari bir xil sintaktik vazifani bajaradigan va bir xil so`roqqa javob beradigan gap bo`laklari hisoblanadi, ular teng bog`lovchilar bilan bog`langan. Har qanday gap bo`lagi uyushiq bo`laklar bo`lishi mumkin:

ega: *Shahrimizda ko`plab yangi maktab, litsey va kollejiar qurildi.*

kesim: *O`zbek tili darsida biz o`qiyamiz, yozamiz va tarjima qilamiz.*

aniqlovchi: *Shahrimizda baland va ko`rkam binolar ko`p.*

to`ldiruvchi: *Ma'ruf do`kondan daftar, qalam va bo`yoqlar sotib oldi.*

hol: *Kecha va bugun yomg`ir yog`di.*

undalma: *Xayr, yashil o`rmonzor, moviy dengizlar.*



**5-mashq.** O`zbek tiliga tarjima qiling.

1. По-моему, вы заблуждаетесь. 2. Пешеходы, будьте осторожны, переходя дорогу. 3. Сегодня, ребята, мы пойдем в музей. 4. В университете действуют спортивные секции, различные кружки.



**6-mashq.** Rus tiliga tarjima qiling.

1. *Oy yoritadi, biroq isitmaydi.* 2. *Lekin seni yo`qotdim, birinchi muhabbatim.* 3. *Hasharda talabalar ham, o`qituvchilar ham qatnasnishdi.* 4. *O`ylashimcha, siz bu yerlik emassiz.* 5. *O`qishdan keyin sof havoda dam olamiz, albatta.*

**7-mashq.** O`zbek tiliga tarjima qiling.

## БЕСПЛАТНЫЙ ОБЕД

Десять молодых людей решили отметить окончание университета обедом в ресторане. Когда все собрались и надо было садиться за стол, возник спор: как сесть? Одни предлагали сесть в алфавитном порядке, другие – по возрасту, третьи – по успеваемости, четвертые – по росту. Спор затянулся, блюда начали остывать. Тогда на помощь молодым людям пришел официант: «Сядьте как придется и запишите, в каком порядке вы сидите. Завтра вновь приходите сюда и садитесь в ином порядке. И так будете продолжать до тех пор, пока не перепробуете все возможные размещения. Когда же придет очередь снова сесть так, как сегодня, я буду ежедневно угощать вас бесплатно самыми лучшими блюдами». Предложение понравилось. Решено было ежедневно собираться в этом ресторане, чтобы скорее начать пользоваться бесплатными обедами. Однако молодые люди не дождались этого дня. Как вы думаете почему?

(Потому что число всех возможных перемещений за столом – 3 628 800. Бесплатными обедами молодые люди смогли бы пользоваться только через 10 000 лет.)

## 25-DARS

### USTOZ MAKTABI

#### *Og`zaki nutq:*

O`zbekiston tasviriy san`atida yorqin iz qoldirgan rassomlarimiz talaygina. Chingiz Ahmarov, Ro`zi Choriyev, Rahim Ahmedov, O`rol Tansiqboyev, Akmal Ikromjonov va boshqa ko`plab mo`yqalam sohiblari shular jumlasidandir. Ularning shogirdlari, izdoshlari bo`lgan quyidagi rassomlar Mustaqillik yillarida ham samarali ijod qilib kelmoqda.

**Akmal Nuriddinov** (Nur) ijodida muhabbat mavzusi yetakchilik qiladi. “Muhabbat olmasi”, “Muhabbat bog`i”, “Muhabbat daryosi”, “Muhabbat oroli” nomli ishlar shular jumlasidandir. Rassom ushbu asarlarda turli ramziy obrazlardan – oy, baliq, qayiq, buqa, shox va boshqalardan foydalangan. Biroq ularning yagona motivi olma bo`lib, u birinchi planga olib chiqilgan.

O`zbekiston xalq rassomi, rang-tasvir ustasi **Alisher Mirzayev** asarlari bugungi kunda xalqimiz hurmatini qozonish bilan birga, ko`pgina xorijiy davlatlarda ham ma`lum va mashhurdir. Bu borada, ayniqsa, Germaniya, Bolgariya, Ruminiya, Italiya, Fransiya kabi xorijiy davlatlarda qo`lga kiritgan muvaffaqiyatlarini ta`kidlamoq kerak. Rassom ona tabiat bag`rida o`zbekona an`analarni, to`ylarni, beg`ubor o`zbek bolalarini, lohar qizlarni, mushtipar onalar kabi obrazlarni aks ettira olishiga muvaffaq bo`lgan. Jumladan, “Toshkent – tinchlik va do`stlik shahri” triptixi, “Bolaxonada”, “Intizorlik”, “Yosh oila haqida qo`shiq” kabi o`nlab asarlari moybo`yoqlarda o`z aksini topdi.

**Bahodir Jalolov** – Xalq rassomi, Uning ijodiga Sharq va G`arb, akademizm va modernizm, reallik va fantaziya, intuitsiya va yechimning aniqligini taqqoslash, dastgohlilik va mahobatlilik, tekislilik va fazoviylik xos. Bahodir Jalolov portret san`atida ko`p yutuqlarga erishdi. Uning to`laqonli asarlarida o`zbek xalqining sevimli farzandlari siymosi o`z ifodasini topgan. Bu o`rinda ayniqsa akademik rassom O`rol Tansiqboyev, buyuk olim, akademik Vohid Zohidov, san`atning mashhur darg`alari

Komil Yormatov, Malik Qayumov, Muhiddin Rahimov, Hamro Rahimova, Akrom Toshkanboyev, Damir Ro`ziboyev kabi ulug`lar siymosi so`zimizga misoldir.

**Rustam Xudoyberganov** Uning monumental asarlari Toshkent davlat konservatoriyasi (Vitraj), Toshkent, Termiz, Urganch, shuningdek, Rossiya, Turkmaniston, Tojikiston kabi chet el shaharlaridagi jamoa binolarini bezab turmoqda. Rassomning “Amir Temur portreti”, “Bobur”, “Jaloliddin Manguberdi”, “Sulton Abdusaid mirzo”, “To`maris”, “Feruz portreti”, “Spitamien”, “Momo”, “Hojar xola”, “Otam portreti” va “Aslo taslim bo`lmaymiz” (J.Manguberdi) tarixiy kartinalari kabi portret asarlari tomoshabinlar e`tiboriga tushgan.


**1-mashq.** Mavzuga oid matnni o`qing, mazmunini to`liq tinglab tushuning.

**2-mashq.** Matnda bayon etilmagan mashhur rassomlar haqida bilganlaringizni so`zlab bering.

### Mustaqil ta`lim

*Ustozlarga bag`ishlangan she`r yod olish.*

### Yozma nutq:

 **3-mashq.** Kasbiy faoliyatda ustoz va shogird an`analari to`g`risida matn tuzing.

 **4-mashq.** Ustozingiz haqida esse yozing.



## **Grammatika:**

### **GAPNING TUZILISHIGA KO`RA TURLARI**

Tuzilishiga ko`ra gaplar o`zbek tilida ikkiga bo`linadi: **sodda gap** (простое предложение) va **qo`shma gap** (сложное предложение).

Sodda gap deb, tarkibida ega va kesim bo`lgan, bitta harakat to`g`risida darak beradigan gapga aytiladi:

*Yurtimizda so`lim joylar ko`p.*

Sodda gaplar bosh bo`laklarning borligiga qarab **bir tarkibli gap** (односоставное предложение) va **ikki tarkibli gap** (двусоставное предложение)larga ajratiladi.

Ikki bosh bo`lakli gap deb gapda har ikkala bosh bo`lak – ega ham, kesim ham ishtirok etgan gapga aytiladi.

*Nodira bu yil universitetni tamomlaydi.*

Bir tarkibli gap deb gap tarkibida bitta bosh bo`lak – yoki ega, yoki kesim ishtirok etgan gapga aytiladi. Ular quyidagilardan iborat:

**shaxsi ma'lum gap** (определенно – личные) – eganing shaxsini kesimga qarab aniqlash mumkin: *Bolaligidan musiqa va sportga qiziqaman.*

**shaxsi noma'lum gap** (неопределенно – личные предложения) – eganing shaxsini kesimga qarab aniqlab bo`lmaydi, chunki u uchinchi shaxs ko`plik bilan ifodalanadi: *Marg`ilonda kichiklarni ham sizlashadi.*

**shaxsi umumlashgan gap** (обобщенно – личные предложения) – bunday gaplarning kesimi ikkinchi shaxs birlikdagi fe`l bilan ifodalangan, ammo fikr barcha shaxsga tegishli. Aksariyat maqollar va hikmatli so`zlar bir bosh bo`lakli gaplar hisoblanadi: *Nima eksang, shuni o`rasan.*

**shaxsi topilmas gap** (безличные предложения) – ularda shaxsni aniqlab bo`lmaydi: *Xom suvni ichib bo`lmaydi.*

**atov gap** (номинативные предложения) – predmet yoki hodisaning borligi, mavjudligini ko`rsatadi: *Bahor. Barqut kiyib bezandi bog`lar.*

**so`z-gap** (слова-предложения) – bir so`zdan, ko`pincha modal so`zdan iborat gap: *Ertaga muzeuga borasizmi? – Ha.*

So`z gaplar **modal so`z-gaplar** (модальные), **undov so`z-gaplar** (слова-предложения междометия), **tasdiq-inkor so`z-gaplar**

(утвердительные-отрицательные), **taklif so`z-gaplar** (означающие приглашение, предложение)ga bo`linadi.

## TO`LIQ VA TO`LIQSIZ GAPLAR

To`liq gap deb barcha zarur gap bo`laklari mavjud bo`lgan gapga aytiladi:

*Manzura, bugun kutubxonaga kiramizmi?*

To`liqsiz gap deb tushib qolgan gap bo`lagini kontekst yoki vaziyatga qarab osonlik bilan o`z orniga qo`yish mumkin bo`lgan nutqda, matnda uchrab turadigan gapga aytiladi:

*Manzura, sen bugun kutubxonaga kirasanmi? – Kiraman.*

To`liqsiz gap umimiy qonun va qoidalarga rioya qilmaydi. Faqat nutq jarayonida qaysi gap bo`lagi tushib qolishi kerakligi ma`lum bo`ladi.

**5-mashq.** To`liq gaplarni to`liqsiz gaplarga aylantirib yozing.

*Nodir, bugun kutubxonaga borasanmi? – Ha, do`stim, darsdan keyin boraman. – Sen kutubxonadan qaysi kitoblarni olmoqchisan? – Men pedagogikadan amaliy mashgulotga tayyorlanaman. Shunga men Kaykovusning «Qobusnoma» kitobini olaman.*

**6-mashq.** Rus tiliga tarjima qiling. Bir bosh bo`lakli gap turini aniqlang.

1. *Mana Hirot. Husayn Boyqaro saroyi. Hamma motamda.* 2. *Vaqtни to`xtatib bo`lmaydi.* 3. *Erta eksang, erta o`rasan.* 4. *Sharqda keksalarni donishmandlarga tenglashtirishadi.* 5. *Ertaga barvaqtroq kelaman.*

## 26-DARS

### TEATR

#### *Og`zaki nutq:*

Tomosha san`ati turlaridan biri – teatrdir. Bu san`at turi qadimiy Yunonistonda paydo bo`lgan. Buyuk dramaturglar Esxil, Sofokl, Evripid va boshqalar yetishib chiqdi va ilk teatr binolari shu yerda qurildi. Bu san`at turi yillar o`tishi bilan Rimga va Rim orqali boshqa Yevropa mamlakatlariga kirib bordi. O`rta Osiyoda qiziqchilar, askiyachilar, dorbozlar – bularning hammasi xalq teatrini tashkil qilar edi.

Teatr san`ati vaqt va o`rin belgilariga ega. Spektaklda ko`pgina san`at turlari qatnashadi. Undagi buyum-jihozlar muhiti, sahna bezaklari, kiyim-kechak va nihoyat aktyorning o`zi muayyan fazoli xususiyatga ega.

Spektaklda vaqt mezoni ham muhim o`rin tutadi. Sahna asari doimo biror-bir vaqt oralig`ida sodir bo`ladigan alohida harakatni namoyish etadi.

Teatr so`zi yunoncha «teatron» so`zidan olingan bo`lib, qadimda yunonlar ommaviy tomoshalar bo`ladigan joylarni «teatron» deb ataganlar. O`sha zamon yunon tomoshagohlari minglab odamlarni bag`riga olar, ular ovoz eshitilishi (akustika) qonunlariga rioya qilingan holda yirik shaharlar yaqinida qurilar edi.

Teatrning bir qancha turlari mavjud. Masalan, drama teatri, qo`g`irchoq teatri, opera va balet teatri, musiqiy drama teatri, bir aktyor teatri. Bunday teatrlar O`zbekistonning barcha viloyat va shaharlarida faoliyat ko`rsatmoqda.

Shunday san`atkorlar bo`ladiki, ismi sharifini tilga olsangiz, ularning sahnada ijro etgan obrazlari ko`z oldingizda gavdalanadi. Abror Hidoyatov – Otello, Shukur Burxonov – Shoh Edip, Sora Eshonto`rayeva – Jamila, Nabi Rahimov – Xlestakov, Zaynab Sadriyeva – Farmonbibi, Soyib Xo`jayev – Toshbolta, G`ani A`zamov – usta Mo`min, Obid Yunusov – O`tkuriy, Mahmudjon G`ofurov – Tohir. Umuman olganda, jahon teatr san`atida bunday holatlar ko`p uchraydi. Demak, teatr san`ati

aktyorlarning ijrochilik mahoratiga bog`liq izlanishlari natijasida shakllanadi.


Qo`g`irchoq teatriga qadam qo`yar ekanmiz, xuddi bolalik dunyosiga qaytganday, sehrli, mo`jizakor olamga kirib qolganday bo`lamiz. Pardalar ochilib spektakl boshlangach, sahnada hayvonu qushlar, sehrgaru jodugarlar, afsonaviy mahluqlar ijobiy va salbiy qahramonlarni ko`rib, hayratga tushamiz. Bunday mo`jizakor olamning yaratuvchisi oddiy inson emas, sehrgar bo`lishi lozim, deb o`ylaymiz. Bolalarni estetik go`zallik olamiga yetaklovchi bu san`at turi necha asrlardan buyon o`z vazifasini to`liq ado etib kelmoqda. Qo`g`irchoq teatrida nafaqat sahna bezaklari, balki boshqa san`at turlari, grafika, rang tasvir, dizayn, karikatura, haykaltaroshlik kabilardan keng foydalaniladi.


**1-mashq.** Mavzuga oid matni o`qing, mazmuni to`liq tinglab tushuning.

**2-mashq.** Matndagi atama va iboralarning ma`nosini izohlang.

**3-mashq.** Teatr haqida so`zlab bering.

*Yozma nutq:*

 **4-mashq.** “Teatrning vujudga kelishi va rivojlanishi” mavzusida matn tuzing.


 **5-mashq.** Teatr turlari haqidagi ma`lumotlardan taqdimot tayyorlang.

**6-mashq.** Biror vaziyatlarini aks ettiruvchi teatr ssenariysini tuzing va uni inssenirovka qiling.

## Grammatika:

### QOSHMA GAP

Qo`shma gap ikki yoki undan ortiq sodda gaplardan tarkib topadi:  
*Qo`ng`iroq chalindi va dars boshlandi.*



### BOG`LANGAN QO`SHMA GAP

**Bog`langan qo`shma gap** ikki yoki undan ortiq sodda gaplardan tuzilib, ular o`zaro bog`lovchi hamda bog`lovchi o`rnida qo`llangan so`zlar bilan bog`langan. Bunday gaplarning komponentlari bir biriga tobe emas. Bog`langan qo`shma gaplarning quyidagi turlari bor:

biriktiruv munosabatli bog`langan qo`shma gap (сложносочиненные предложения с сочинительными союзами) harakatning bir paytning o`zida yoki ketma-ket sodir bo`lishini anglatadi: *Bahor keldi va kunlar iliy boshladi.*

ayiruv munosabatli bog`langan qo`shma gap (сложносочиненные предложения с разделительными союзами) ayiruv *yo, yoki, yohud* bog`lovchilari bilan birga har xil komponent bilan aytilgan bitta harakatning bajarilishiga ishora qiladi: *Bugun yo biz g`olib bo`lamiz, yo durang bo`ladi. Goh, dam, ba'zan* ayiruv bog`lovchilari bilan kelgan bog`langan qo`shma gaplar almashinib turadigan harakat (holat)ni anglatadi: *Goh yomg`ir yog`adi, goh quyosh charaqlaydi.*

zidlov munosabatli bog`langan qo`shma gap (сложносочиненные предложения с разделительными союзами) qarama-qarshi munosabatni bildiradi: *Biz ko`p kutdik, biroq undan darak bo`lmadi.*


inkor munosabatli bog`langan qo`shma gap (сложносочиненные предложения с отрицательными союзами). Bunday gaplarda, garchi

kesim tasdiq shaklida bo`lsa ham komponentlar inkor yuklamalari bilan bir-birini inkor etib bog`lanadilar: *Na sen kelding, na men bordim.*

**Yodda tuting:** *-(y)u* yuklamasi bog`langan qo`shma gaplarda teng va ayiruv bog`lovchilari o`rnida qo`llanilishi mumkin:

*Qo`ng`iroq chalindi-yu, dars boshlandi.*

*Havo bulut bo`ladi-yu, yog`ingarchilik bo`lmaydi.*

 **7-mashq.** Rus tiliga tarjima qiling.

1. *Havo bulut bo`ladi, lekin yog`ingarchilik bo`lmaydi.* 2. *O`qituvchi sinfga kirdi va bolalar bilan salomlashdi.* 3. *Go`zal goh kuladi, goh ko`z yoshi yuzini yuvadi.* 4. *Tadbir so`ngida konsert berildi va badiiy film namoyish qilindi.*

 **8-mashq.** O`zbek tiliga tarjima qiling.

1. Я много думал, но так и не пришел к конкретному решению. 2. Было многолюдно и мы чуть не потеряли друг – друга. 3. Раньше я его не знал, но был о нем наслышан. 4. То солнце светит, то ветер поднимает пыль с полей и становится прохладно.

**9-mashq.** Bog`langan qo`shma gapning har bir turiga ikkitadan misol yozing.

## 27-DARS

### INTERYER DIZAYN

#### *Og`zaki nutq:*

*Qosimov Oybek*

Interyer dizayn bu shaxsiy hayotni tartibga solish haqidagi fan va san'atdir. Haqiqiy interyer dizayn o'z egasining ichki dunyosini ochishga, har bir bo'shliqni go'zallik va ma'no bilan to'ldirishga qaratiladi.

Har qanday xalqning tarixi, ularning yashash muhiti shu xalqning geografik iqlimidan, dini va madaniyatidan kelib chiqib turar joylari o'ziga xos ravishda loyihalashtirilgan. O'zbek milliy interyerlari ham shinamligi va amaliyligi bilan ajralib turgan.

O'tmishda ota-bobolarimiz qolgan juda katta meros biz uchun o'sha davrlarning o'zbek iteryer dizayni xususida boy tasavvur uyg'otadi. Bizning hovlilarimiz ikki qism (ichki va tashqi)ga bo'lingan bo'lib, ko'cha eshikdan kirib kelishingiz bilan tashqi hovliga kirasiz. Tashqi hovli birmuncha bezatilgan, mehmonlar kutish uchun mo'ljallangan, ichki hovlida esa ko'proq kichik tomorqadan foydalanish, hayvon boqish yoki biror bir hunarmandchilik ishlari bajarilgan. U yerda ko'proq ayollar o'z vaqtlarini o'tkazganlar.

Interyerida esa shiplarda qamishdan foydalanilgan, devorlar somon aralash loy suvoq bo'lgan. Devorlarda mehroblar bo'lib, u yer sandiq va sandiq ustida taxmon bilan to'ldirilgan. Sandiq uchun qulf zarurati bo'lmagan. Chunki, mehroblar – osilgan palak, so'zana, keyinchalik gilamlar bilan yopilgan.

Xonada yana kichik tokchalar ham bo'lgan, ularga har xil shisha, sopol yoki chinni idishlar joylashtirilgan. Polda jundan to'qilgan (kigiz) qalin, issiq, gilamga o'xshash narsa to'shalgan. Uy to'risida tancha (sandal) bo'lib, u taomlanish uchun xontaxta va qishda isinish uchun joy vazifasini o'tagan. Devorda mixlar qoqilgan bo'lib, joynamoz, chopon ilinib turgan.

Hozirgi zamonaviy o`zbek interyerlariga yevro uslublar kirib keldi. Bu, albatta, avvalo, mebellarda o`z aksini topdi. Devor, shiplarga yog`och, ganch o`ymakorlik ustalari o`zlarining ijodiy qobiliyatlarini namoyon qilgan holda ajoyib san`at asarlarini yaratmoqdalar.


Mohirona interyer dizayni – bu muayyan shaxsning muhitiga muhim o`zgarishlarni tadbiiq etishga imkon yaratuvchi san`at asaridir. Noyob interyer dizayn ishlanmasi jiddiy mehnatni talab etadi. Turli xil uslubiy yo`nalishlar va dizayn shakllari bilan turar joy maydonining original ko`rinishi ishlab chiqiladi.

**1-mashq.** Mavzuga oid matnni o`qing, mazmuni to`liq tinglab tushuning.

**2-mashq.** Matndagi atama va iboralarning ma`nosini izohlang.

*Yozma nutq:*

 **3-mashq.** “O`zbek milliy inreryer dizayni” mavzusida esse yozing.

 **4-mashq.** Mamlakatimizda iqtidorli yosh dizaynerlar uchun yaratilayotgan sharoitlar haqida ma`lumot yozing.

*Grammatika:*

## ERGASHGAN QO`SHMA GAP

**Ergashgan qo`shma gaplar** bir yoki undan ortiq bir biriga teng munosabatda bo`lmagan sodda gaplardan tarkib topadi. Ergashgan qo`shma gap tarkibida **bosh gap** (главное предложение) hamda **ergash gap** (придаточное предложение) bo`ladi.

Bosh gap asosiy fikrni ifoda etadi, ergashgan gap esa bosh gap (yoki uning alohida gap bo`lagi)ni izohlaydi. Misol uchun,

*Biz zalga kirganimizda, konsert hali boshlanmagan edi.*//Когда мы вошли в зал, концерт еще не начинался.



Bu yerda bosh gap ikkinchi komponent hisoblanadi, birinchi komponent (ergash gap) esa bosh gapda berilan harakatning bajarilgan vaqtini ko`rsatmoqda.

*Kim halol mehnat qilsa, o'sha elda hurmat topadi.*//Кто трудится честно, тот заслуживает уважения.

Bunda ergash gap (birinchi komponent) bosh gap tarkibidagi faqat egani izohlab kelmoqda.

Bu gaplarni shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchisi bosh gap tarkibidan tushib qolgan yoki olmosh bilan ifodalangan ega, kesim, aniqlovchi, to`ldiruvchi (bular aniq bir gap bo`lagiga tegishli) ergash gapli qo`shma gaplardir.

Masalan:

*Shunisi ma'lumki, u kecha mashg'ulotlarga qatnashmagan.*//Известно то, что он отсутствовал вчера на занятиях.

Bosh gapda ega *shunisi* ko`rsatish olmoshi bilan ifodalangan, ergash gap uni izohlamoqda.

*Bilginki, sening ulug' noming bor.*//Знай, что у тебя гордое имя

Ergash gap bosh gap tarkibidan tushib qolgan to`ldiruvchining ma'nosini izohlamoqda va h.

Ikkinchi guruhga boshqa hamma ergashgan qo`shma gap turlarini kiritish mumkin. Ular bosh gapda belgilangan harakatning sodir bo`lish usuli, o`rni, payti, maqsadi, oqibati, bajarilish sharti, meyorini izohlaydi. Masalan:

*Shamol oldindan esar edi, shuning uchun yurish qiyin bo`ldi.*//Ветер бил на лицо, по этому ходить было трудно.

Bu gapda ergashgan gap (birinchi komponent) bosh gapda ko`rsatilgan harakatning sababini ko`rsatmoqda.

**1. Ega ergash gapli qo'shma gap.** Bunda ergash gap olmosh yoki bosh gap tarkibida tushib qolgan egani izohlaydi:

*Shunisi hayajonliki, men uning ko'zlarida zarracha ham yosh ko'rmadim.*//Волнует то, что в её глазах я не видел капли слез).

**2. Kesim ergash gapli qo'shma gap.** Bunda ergash gap bosh gap tarkibida ko`rsatish olmoshi bilan ifodalangan kesimni izohlaydi:

*Gapning rosti shuki, yig'loqi torlarni chertishga o'zimning ham toqatim yo'q.*//Правда в том, что играть на печальных тонах я и сам не желаю.

**3. Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap.** Bunda ergash gap bosh gap tarkibida ot bo`lib kelgan gap bo`lagi belgisini izohlaydi:

*Kimning bilimi kuchli bo'lsa, uning mulohazalari ham chuqur bo'ladi.*//У кого глубокие знания, у того и широкие рассуждения.

**4. To'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap.** Unda ergash gap bosh gap tarkibidan tushib qolgan yoki olmosh bilan ifodalangan to'ldiruvchini izohlaydi:

*Bilasizmi, xo'jayinning Nuri degan qizlari bor.*//Знаете, у хозяина есть дочь Нури.

**5. Payt ergash gapli qo'shma gap.** Unda ergash gap bosh gapda ifodalangan harakatning bajarilish vaqti ko`rsatiladi:

*Qachon uni ko'rmay, u yoshlar orasida bo'ladi.*//Когда его ни увижу, он среди молодежи.

**6. O'rin ergash gapli qo'shma gap.** Unda ergash gap bosh gapda ifodalangan harakatning bajarilgan o`rniga ishora qiladi:

*Ko'z qayerda bo'lsa, ko'ngil ham shu yerda bo'ladi (maqol).*//Где глаза, там и душа.

**7. Sabab ergash gapli qo'shma gap.** Bunda ergash gap bosh gapda ifodalangan harakatning kelib chiqish sababini ko`rsatadi:

*Olim qiziqroq gap aytdi shekilli, Nodir qah-qah urib yubordi.*//Кажется, Олим сказал что-то интересное, Умиджан захохотал.

**8. Maqsad ergash gapli qo'shma gap.** Ergash gap bosh gapda ifodalangan harakatdan kelib chiqadigan maqsadni ko`rsatadi:

*Hovuz atrofi soya-salqin bo'lsin deb, turli daraxtlar ekdik.*//Дабы возле пруда было прохладно, мы посадили разные деревья.

**9. Natija ergash gapli qo'shma gap.** Ergash gap bosh gapda ifodalangan harakatning oqibati, natijasiga ishora qiladi:

*Bo'lim mudiri shunday kuldiki, ko'zoynagi siljib ketdi.*

**10. Shart ergash gapli qo'shma gap.** Bunda ergash gap bosh gapda ifodalangan harakatning bajarilish shartini ko`rsatadi:

*Qalb salomat bo'lsa, fikr ham salomat bo'ladi (Said Ahmad).*

**11. Tosiqsiz ergash gapli qo'shma gap.** Ergash gap bosh gapda belgilangan harakatning to'siqsiz sodir bo'layotgan harakatini ko`rsatadi:

*Havo bulut bo'lsa ham, yog'ingarchilik bo'lmaydi.*


**5-mashq.** Rus tiliga tarjima qiling.

1. *Istagim shu, hech so'nmasin yongan chirog'ing.* 2. *Biz istaymiz, barcha ellar, elatlar bir-birila bo'lsin yana yaqinroq.* 3. *Shuni unutmangki, biz ozod zamonda yashayapmiz...* 4. *Kimki halol bo'lsa, u*

*hurmatga loyiq. 5. Hech shubha yo'qki, biz g'olib bo'lamiz. 6. Yurak tandır emaski, o't yoqib qizdirsang.*

 **6-mashq.** Rus tiliga tarjima qiling.


*1. Qayoqqa qaramang, u yerda odamlar yaratuvchilik mehnati dilan band. 2. Fan cho'qqisin egallasin deb, oliy maktab quchog'in ochgan. 3. Qoshlari chimirilib Mahkam Eshonboyevga qaradi. 4. U sayohatga borolmadi, chunki akasi mehnat safaridan qaytishi kerak edi.*

 **7-mashq.** Rus tiliga tarjima qiling. Ergashgan qo'shma gap turini aniqlang.

*1. Mening fikrim shu, siz uni bekorga xafa qilyapsiz. 2. Biznikiga kelsang, birga dars tayyorlaymiz. 3. Bahor kelsa ham, kunlar ancha sovuq. 4. Umid qilamanki, bizni unutib yubormaysiz. 5. Yulduzlar bitta-bitta so'nib, ufq oqara boshladi. 6. Sizdan o'tinib so'rayman, biz bilan qoling.*

**8-mashq.** O'zbek tiliga tarjima qiling.

*1. Когда я окончу учебу, мы переедем в Самарканд. 2. Если хорошо постараться, эту работу можно закончить за два дня. 3. Карим настолько увлекся чтением, что не заметил как я ушел. 4. Мы все знаем, что счастья можно добиться лишь честным трудом. 5. Несмотря на то, что шел дождь, болельщики не покидали стадион.*

 **9-mashq.** Maqollarni yod oling, rus tilida muqobili bo'lsa, ayting. Qo'shma gap turini aniqlang.

- 1. O'ychi o'yini o'ylagunicha, tavakkalchining ishi bitibdi.*
- 2. Kim birovga chuqur qazisa, unga o'zi yiqiladi.*
- 3. Kimning ko'ngli to'g'ri bo'lsa, uning yo'li ham to'g'ri bo'ladi.*
- 4. Katta arava qayoqqa yursa, kichigi ham shu yoqqa yuradi.*
- 5. Qozonga nima tushsa, cho'michga ham o'sha chiqadi.*

6. *Og'zi qiyshiq bo'lsa ham, boyning bolasi gapirsin.*
7. *O'ynab gapirsang ham, o'ylab gapir.*
8. *Oy yoritadi, biroq isitmaydi.*
9. *Har kimniki o'ziga, oy ko'rinar ko'ziga.*
10. *Jahl kelganda, aql ketadi.*

## 28-DARS

### O`ROL TANSIQBOYEV

#### *Og`zaki nutq:*

O`rol Tansiqboyev o`zbek manzarachi Xalq rassomi, O`zbekiston Davlat mukofoti laureati 1904-yilda tug`ilgan. O`rol Tansiqboyev asosan, liroepik rassom edi. Uning har bir asarida jonajon o`lkaga nisbatan cheksiz muhabbat bor. Ana shu muhabbat bilan O`zbekiston manzarasining ulug`vor tasvirini chizdi. U jamoat arbobi sifatida ham qator ishlarini amalga oshirdi.



1924-1928 yillarda Toshkent san`at muzeyi qoshidagi rassom N. Rozanov studiyasida, 1929-yilda Penza Badiiy pedagogika texnikumida rus realistik san`atining mohir ustalaridan biri I. Gorushkin Sorokopudov qo`lida ta`lim oldi. Ijodini portretlar yaratishdan boshlagan. Tansiqboyev asosan 30-yillarda rassom sifatida shakllandi, o`z asarlarini xalqqa yaqin va tushunarli bo`lishi uchun tinmay mehnat qildi.

Bu vaqtda «O`zbek portreti», «Oltin kuz», «Karvon», «Hosil» kabi portret, manzara asarlarini yaratdi. «Ozod bo`lgan sharq ayollari», «16-yil qo`zg`oloni» asarlari rassomning monumental rassomlik sari dadil qadam tashlaganini ko`rsatdi.

1940-yili yaratilgan «Alisher Navoiy» portreti uning ijodida alohida o`rin tutadi. Ikkinchi Jahon urushi yillarida «Vahshiyning yo`li», «Ozod qilingan yerlarda», «Partizan ayol» asarlarini yaratish bilan birga jonajon o`lka manzaralarini gavdalantiruvchi «Qoplonbekda kuz», «Tungi sug`orish», 15 polotnodan iborat «Urush yillarida» kabi kartina turkumlarini ham yaratdi.

Keyinchalik rassom ijodida manzara yetakchi o`rinni egalladi. «Peshin. Ovqat payti», «G`o`za sug`orish», «O`zbekistonda bahor»

kartinalari shular jumlasidandir. Uning «Taxiyatosh» «Qayroqqum GESi tonggi», «Yangi yerda», «Tog`da kuz», «O`zbekistonda mart», «Kattaqo`rg`on suv ombori» «Bo`stonliqda bahor» «Tog`dagi yaylov» kabi asarlari ham tasviriy san`atning yangi yutug`i sifatida kutib olingan bo`lsa, «Chorvoq qurilishida», «Mirzacho`l kanali» va boshqa bir qator kartinalari uni mohir rassom, tabiat kuychisi sifatida elga tanitdi.

1959-60-yillarda O`zbekiston Rassomlar uyushmasining raisi lavozimida ishlab, yosh ijodkor musavvirlarga yaqindan yordam berdi.

Taniqli rassom O`rol Tansiqboyev 1974-yilda Toshkent shahrida vafot etdi. Undan boy va rang-barang meros qoldi. Uning asarlari mamlakatning yirik muzeylari — Tretyakov galereyasi, Sharq madaniyati Davlat muzeyi, Olma-ota, Samarqand, Nukus va boshqa shaharlardagi rasmlar galereyasi hamda muzeylaridan munosib o`rin egallagan.


**1-mashq.** Mavzuga oid matni o`qing, mazmuni to`liq tinglab tushuning.

**2-mashq.** Matndagi atama va iboralarning ma`nosini izohlang.

**3-mashq.** Yetuk mutaxassis haqidagi tasavvurlarni gapirib bering.

**Yozma nutq:**

 **4-mashq.** “Sohamiz ravnaqi” mavzusida matn tuzing.

 **5-mashq.** Mutaxassisning kasbiy komponentlari ro`yxatini tuzing va ularni misollar bilan izohlab bering.

**Grammatika:**

## **BOG`LOVCHISIZ QO`SHMA GAP**

Bog`lovchisiz bog`langan sodda gaplardan tashkil topgan qo`shma gap bog`lovchisiz qo`shma gap deyiladi. Masalan:

*Yomgir tingan, osmon tiniq, mayin shabada esadi.*//Дождь перестал, небо ясное, веет приятный ветерок.

**6-mashq.** Rus tiliga tarjima qiling. Tinish belgilariga e'tibor bering.

1. *Qo'shning tinch – sen tinch.* 2. *Suv keldi – nur keldi.* 3. *Vaqting ketdi – naqding ketdi.* 4. *Men shu yerda kutib turaman, o'zing borib kela qol.* 5. *Xalqimiz mehmondo'st: topgan-tutganini mehmonining oldiga qo'yadi.* 6. *Qayerdadir xo'roz qichqirdi: tong otishi yaqin.*

## KO'CHIRMA VA O'ZLASHTIRMA GAP

Hech qanday o'zgarishsiz yetkazilgan o'zganing gapi ko'chirma gap deyiladi. Muallifning gapi ko'chirma gap bilan **demoq** so'zi yordamida bog'lanib, u ko'chirma gapning boshida, o'rtasida yoki oxirida kelishi mumkin.

- *Rustam ichi shoshib so'radi: «Xo'sh, qanday yangiliklar bor?»*
- *«Kambag'al bo'lsang ko'chib boq», – dedi kulib O'ktam.*
- *«Gap avvalo, kadrlarda, – deb ta'kidladi ma'ruzachi. – Kadrlar tayyorlash sifatiga e'tiborni kuchaytirish zarur».*
- *Salima uyalibgina: «Bilmasam, ixtiyor sizda», – deb qo'ya qoldi.*

O'zganing gapini yetkazishda uning grammatik va leksik nuqtayi nazardan o'zgartirilishiga o'zlashtirma gap deyiladi. Bunday gaplarning kesimi o'zbek tilida *haqida, to'g'risida* ko'makchilari yoki tushum kelishigi shaklidagi fe'lning sifat-dosh shakli, jumladan, to'liqsiz *ekan* fe'li bilan birlashgan *aytmoq, gapirmoq, so'ramoq* fe'llari hisoblanadi:

- *O'tkir ish qay ahvolda ekanini so'radi.*
- *Salima sovuqdan oyoqlari zirqirab og'riyotganini aytdi.*
- *Umidjon maktabida dzu-do to'garagi ochilgani haqida aytdi.*

**7-mashq.** Gaplarni o'zlashtirma gapga aylantiring. Rus tiliga tarjima qiling.



1. «Uy vazifasini bajarishdan avval qoidani takrorlang», – tayinladi o‘qituvchimiz. 2. Salim dedi: «Bizni unutib yubormang, kelib turing». 3. «Hozir qo‘l qovushtirib o‘tiradigan payt emas, – dedi Tohir, – harakat qilish lozim». 4. «Ot o‘rnini toy bosadi», – kulib dedi dadam.



**8-mashq.** So‘z birikmalari ishtirokida gaplar tuzing.

*Palov pishirishni, har xil ziravorlar, mayda to‘g‘ramoq, achchiq damlangan.*

**9-mashq.** Matnni o‘qing. Rus tiliga tarjima qiling.

## PALOV

Palov – o‘zbek milliy taomlaridan eng mashhuri, deb bemalol aytish mumkin. Uni ba‘zan osh deb ham atashadi. To‘ylar, bayramlar, sayllar usiz o‘tmaydi. Bu taomni har kim turlicha tayyorlaydi, har kim o‘zgacha palovni xush ko‘radi. Odatda, palov tayyorlanishdan oldin sabzini archib qalamcha shaklida to‘g‘raladi. Qo‘y go‘шти mayda to‘g‘raladi. Biroz qizdirilgan qozonga maydaroq to‘g‘ralgan dumba solib eritiladi. Tayyor jizzani olingach, qozonga piyoz solinib, qizartiriladi. Keyin go‘شت solinadi. Bir oz qovurilgach, sabzi solinadi. U ham qovurilgach, ziravorlar solinib, qozonga suv quyiladi. Bu orada guruch tozalab yuviladi va ivitib qo‘yiladi. Qozondagi masalliqalar bir oz qaynatilgach, guruch solinadi. U suvni shimib olguniga qadar aralashtirib turiladi. Bunda sabzi-piyoz aralashtirilmaydi. Guruch suvni shimib olgach, qozon o‘rtasiga to‘planib, bir necha yeridan qoshiq yordamida o‘yilib, qozon yopiladi. Osh 15-20 daqiqa damlanadi. Ba‘zan palovga behi, olma solib ham damlashadi.

**10-mashq.** Sizning uyda palov qanday tayyorlanishini aytib bering.



**11-mashq.** Maqollarni yod oling.

1. *Xo'ra oshdan o'lar, to'ra tomoqdan.* 2. *Sihat tilasang oz ye.* 3. *Ishtaha ovqat paytida keladi.* 4. *Nonning uvog'i ham non.* 5. *Nimani xor qilsang, shunga zor bo'lasan.*

## 29-DARS

### NOTIQLIK SAN'ATI

#### *Og`zaki nutq:*

Jamoat oldida so`zga chiqib, biron narsani tushuntirish yoki isbotlab berish zaruriyati qadimdan odamlarni so`zamollikka chaqirib kelgan. Biroq notiqlikning qadimgi namunalari yozma shaklda bizga yetib kelgan emas.

Qadimgi Afina davlatidagi sud tartiblari ham notiqlik san'atining keng rivoj topishiga kuchli ta'sir ko`rsatgan. Sudga ishi tushgan odam sud majlisiga kelib da'volarini bayon etishi yoki o`zini himoya qilishi lozim edi. Shu tariqa sudda gapirish uchun maxsus nutqlar yozib beradigan bilimdon va tajribali qonun-shunoslarga katta ehtiyoj tug`iladi. Natijada hozirgi advokatlarga o`xshagan «logograflar» deb ataluvchi maxsus kasb kishilari paydo bo`ladi.

Notiqlik san'atining 2 turi maydonga keladi: siyosiy notiqlik, sud notiqligi. Keyinchalik uchinchi turi – epidertik, ya'ni tantanali nutq notiqlari paydo bo`ldi.

Epidertik notiqlar ulug` zotlarni va mashhur voqealarni madh etib, tantanali yig`inlarda nutq so`zlaganlar. Notiqlik san'atini birinchi marta adabiy janr darajasiga ko`targan kishilar so`fiy<sup>7</sup>lar bo`lgan.

Ular notiqlik san'atining nazariy asoslarini, ya'ni « ritorika » ilmini yaratadilar... «Ritor» so`zi, umuman, notiqlarga nisbatan ishlatilgan bo`lsa, keyinchalik notiqlik san'atiga o`rgatuvchi maxsus mualliflarni shu nom bilan ataydilar.

Notiqning eng muhim vazifasi tinglovchini ishontirish, uni maftun qilish, rom etishdir.

---

<sup>7</sup> Суфйзм или тасаввуф (араб. التصوف). Эзотерическое течение в исламе, проповедующее аскетизм и повышенную духовность, одно из основных направлений классической мусульманской философии. Последователей суфизма называют *суфиями*.


Qadimda soʻz aytuvchi notiqni – voiz<sup>8</sup>, uning nutqini esa vaʻz<sup>9</sup> deb ataganlar. Ming-minglab xalq oldida vaʻz aytish juda ogʻir yumush boʻlib, uni hamma ham uddalay olmasdi. Chunki voizlik bilimdonlikni, salohiyatni, soʻzga boylikni, vaʻz ayta olish isteʼdodini, yoqimli ovozni talab etardi. Biron gapni xalqqa maʼqul qilish, ularga oddiy, sodda qilib tushuntirish uchun notiqlar soʻzlarning tovlanishini, sinonim-omonimlarni bilish bilan birgalikda davlat qonun-qoidalaridan, mamlakat hayotidan toʻla xabardor boʻlishlarini taqozo etardi. Oʻz fikrini xalqqa manzur qila olmagan notiq ikkinchi marta minbarga chiqa olmas edi. Shuning uchun notiqlar minbarga chiqishdan oldin doimo puxta tayyorgarlik koʻrardilar. Soʻz aytishning turli-tuman xillarini, vositalarini oʻylab topardilar. Shuning uchun Oʻrta asrlarda notiqlik sanʼati, ayniqsa, Oʻrta Osiyoda keng rivojlandi.

**1-mashq.** Mavzuga oid matnni oʻqing, mazmuni toʻliq tinglab tushuning. Matndagi atama va iboralarning maʼnosini izohlang.

**2-mashq.** Matnga munosabat bildirib soʻzlang. Kasbiy faoliyatda nutq madaniyatining ahamiyati haqida gapirib bering.

### **Yozma nutq:**

 **3-mashq.** “Mutaxassisning nutq madaniyati” mavzusida matn tuzing.

 **4-mashq.** Ish jarayonidagi muomala madaniyati haqida kasbiy oʻyin ssenariysini tuzish va uni inssenirovka qilish.

---

<sup>8</sup> Проповедник. Тот, кто произносит речь религиозно-поучительного характера.

<sup>9</sup> Поучение

## *Grammatika:*

### **NUTQ USLUBLARI**

O`zbek tilida xuddi rus tilidagidek 5 ta nutq uslublari mavjud.

**1. So`zlashuv uslubi.** Bu uslub til birliklarini qo`llash ixtiyorining erkinligi bilan ajralib turadi. U o`z xususiyatlariga ko`ra ikkiga bo`linadi: adabiy so`zlashuv uslubi va og`zaki so`zlashuvning uslubi.

**2. Adabiy so`zlashuv uslubi.** Bu usul umumxalq adabiy tilining barcha sohalari uchun keng tarqalgan va qulaydir. U kundalik nutqda qo`llaniladi. Ta`lim, tarbiya, targ`ibot ishlari mazkur uslubda olib boriladi. Shuningdek, badiiy adabiyot asarlari yaratiladi.

**3. Og`zaki so`zlashuv uslubi.** Mahalliy so`zlashuv uslubi muloqot jarayonida adabiy til va shevaning keng qo`llanilishi bilan xarakterlanadi. Bu uslubda gapdagi soz`lar tartibining buzilishi (*kecha konsert bo`ldi klubda*); shevga xos ko`chma, hissiy va ramziy ma`nolar kop`roq (*gayrat qil, shalvirama; Alini qarang, og`zi qulog`ida*) yuzaga keladi. Bu uslubda to`liqsiz gaplar va ishoralar (*Kelyapti (navbatchi), Ketdimi? – Ha.*) takror so`zlar (*Kelib-kelib shu gapni topdingmi?*) ko`p uchraydi. Yana talaffuzda erkinlik paydo bo`ladi (*na`lat (la`nat), harqattan (haqiqatan)*). Mahalliy so`zlashuv uslubi badiiy adabiyotda qahramon nutqini o`ziga xos bo`lishida ham keng qo`llaniladi.

**4. Rasmiy-idoraviy uslub.** Bu uslub jumlalarning aniqligi va qisqaligi bilan ajralib turadi, unda aniq nutq shtamlari, atamalar, tayyor sintaktik qurilmalar keng foydalaniladi. Ular nutqqa aniqlik va ravshanlik baxsh etadi. Tayyor nutqiy formulalar (*shu asosida, ... ni e`tiborga olib, biz, quyida imzo chekuvchilar* va h.) xujjatga axborot-iformatsion xususiyat bag`ishlaydi. So`zlarning bir ma`noda qo`llanilishi, majhul nisbat va fe`lning buyruq maylidan keng foydalanilishi, qo`shma gap turlarining ishlatilishi bu uslubga xos.

**5. Ilmiy uslub.** Tabiat va ijtimoiy hayotdagi barcha predmet va hodisalar haqida aniq, asoslangan, tizimlashtirilgan axborot berish uchun ilmiy uslubdan foydalaniladi. Predmetni – hodisaning mohiyatini ta’riflash, tahlil, sabab va dalillarni aniqlash, asosli natijalarni bayon etish muhim hisoblanadi. Bu uslubning leksikasini maxsus atamalar tashkil etadi. Adabiy me’yorga jiddiy rioya etgan holda, bu uslubda majhul nisbatdagi fe’llardan va murakkab konstruksiyali gaplardan foydalaniladi. Bayon etishda hissiylik va ramziylik mavjud keng ommaga tushunarli uslub *ilmiy-ommabop uslub* (научно-публицистический) deyiladi. Unda maxsus atamalar kamroq qo’llaniladi (izohlanadi).

**6. Publitsistik uslub.** Bu uslub siyosiy-ijtimoiy doiralardagi munosabat uchun xizmat qiladi. Uning yozma shakliga publitsistik maqola, feleton, maktublar kiradi, og’zaki shakli esa – ma’ruza, va’z, notiqlik. Uslub siyosiy faollikda o’tkir va samarali notiqlik, mantiqiy mulohazalar va asosli izohlarning ustunligi bilan ajralib turadi.

**7. Badiiy uslub.** Bu uslub inson hayotining barcha sohalarini qamrab olganligi, o’quvchi va tinglovchiga hissiy-estetik ta’sir o’tkazishga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Undan muallif asarning estetik ta’sirini oshirish maqsadida turli tasviriy vositalar bilan, xususan, yangilarini yaratib, tilning leksik-grammatik imkoniyatlaridan mohirona va ijodiy foydalanadi. Hamma adabiy asarlar mazkur uslubda yoziladi.

**5-mashq.** Har bir uslubga xos qisqa matnlar tuzing.

## 30-DARS

### SAHRODAGI MUZEY

#### *Og`zaki nutq:*



I. Savitskiy nomidagi Qoraqalpoq davlat san'at muzeyi mustaqillik yillarida o'zbek va qoraqalpoq xalqlarining boy madaniyati, milliy qadriyatlarini tarannum etuvchi yuzlab osori-atiqalar bilan boy muzeydir.

Ushbu muzeyning asoschisi Igor Savitskiy hisoblanadi. Igor Savitskiy Ikkinchi jahon urushi mobaynida V. Surikov nomidagi Moskva davlat rassomchilik instituti talabasi sifatida Samarqandga evakuatsiya qilingan. 1960-yillar boshida Savitskiy Nukus shahriga ko'chib o'tib, O'zbekiston Fanlar Akademiyasining Qoraqalpog'istondagi bo'limida ishlay boshladi. 1966-yilda Savitskiy tashabbusi bilan Nukus shahrida muzey barpo etilib, san'atshunos olim uning direktori vazifasini bajara boshladi. U o'sha yillarda mazkur muzey uchun san'at olamida rasman tan olinmagan va mashhur bo'lmagan iqtidorli rassomlarning asarlaridan iborat noyob kolleksiyani yaratdi. Avvaliga u musavvirlarning san'at asarlari kolleksiyasini yaratdi. Keyinchalik u boshqa asarlarni xarid qilib, rassomlar va asarlar doirasini kengaytirdi.


Qisqa vaqt ichida ushbu muzey 90 mingdan ortiq rangtasvir, hunarmandlik buyumlari va boshqa san'at durdonalariga ega ma'rifat maskaniga aylanib ulgurdi. Aytish kerakki, jahon muzey kolleksiyalari tarixida bunday hodisa hali uchragan emas. Xorijiy mutaxassislar va OAV vakillarining ta'kidlashicha, muzey galereyasi Osiyo mintaqasidagi eng salmoqli badiiy kolleksiyaga ega bo'lib, ahamiyati va hajmi jihatdan Sankt Peterburg muzeyidan keyin ikkinchi o'rinda turadi.

1991-yilda Nukus muzeyiga birinchi toifa maqomi berildi. Shu tariqa u Tretyakov galereyasi, Rus muzeyi va Ermitaj kabi nufuzli ma'naviyat maskanlari qatoridan o`rin oldi.

**1-mashq.** Mavzuga oid matnni o`qing, mazmuni to`liq tinglab tushuning.

**2-mashq.** Matnni davom ettirgan holatda so`zlab bering. Ilmga filoiylik tushunchasini misollar bilan ta`riflab bering.

### **Yozma nutq:**

 **3-mashq.** Ixtisoslik sohasining ahamiyati to`g`risida ilmiy uslubdagi ma'lumotnoma matnini tayyorlang.

### **Mustaqil ta'lim**

*Fan rivojiga salmoqli hissa qo`shgan olimlar haqida referat tayyorlash.*

### **Grammatika:**

## **ILMIY USLUB**

Ilmiy uslub – ilm doirasida xizmat qiluvchi adabiy tilning funksional uslublaridan biridir. Ilmiy nutqda axborot vazifasi ustun turadi, tadqiqot faoliyati natijalari haqida xabar beradi.

Bu uslubning amalga oshish shakli – monologdir. Ilmiy nutqda til vositalarini oldindan tanlab olish muhim ahamiyatga ega. Unda ko`pincha quyidagilar foydalaniladi:

- atamalar (*malekula, morfema, molbert*);
- mavhum ma'noli so`zlar (*jarayon, hodisa, xususiyat*);
- ot-fellar (*turish, tushuntirish, asoslash*);
- ko`p miqdorda sifatdosh va ravishdoshlar (*ko`ringan, foydalanilgan, e'tiborga olib, umumlashtirib*);
- majhul nisbatdagi fe'llar (*qo`llaniladi, ko`rib chiqilmoqda*);



- murakkab ko`makchi va bog`lovchilar (*xulosa qilib aytganda, shuni hisobga olib, natijalarga ko`ra*);
- ifodaning mantiqiyiligini ta`kidlash uchun kirish so`zlar (*birinchidan, ikkinchidan, demak, natijada, shunday qilib*);
- gapda so`zlarning to`g`ri tartibi;
- bog`langan va ergashgan qo`shma gaplar;
- shaxsi yo`q gaplar;
- namuna, ilova, izoh.

Matnda ilmiy uslubdagi so`zlar, asosan, to`g`ri ma`noda qo`llaniladi. Emotsional bo`yoqdor so`zlar juda kam ishlatiladi.

Ilmiy uslub janrlari: darslik, dissertatsiya, monografiya, ilmiy maqola, taqriz, tavsifnoma, diplom ishi, kurs ishi, referat, ilmiy hisobot, ma`ruza, annotatsiya, lug`aviy va ensiklopedik maqola.

*Masalan:*

*O`zbekistonda mustaqillik davrida yuz berayotgan madaniy jarayonlar jamiyat hayoti faoliyatining barcha sohalarida turli-tuman madaniy-ma`rifiy vazifalarni hal qilish zaruratini taqozo etmoqda. Hozirgi davrda tasviriy va bezakli-amaliy san`at bilan bog`liq masalalar mustaqil O`zbekiston madaniy siyosatining asosiga aylanmoqda. (K.Akilova)*

## **REFERAT**

**Referat** (lotincha «*referre*» – hisobot berish, axborot berish) ma`lum mavzuga, qandaydir yo`nalish bo`yicha manbaalar izohiga bag`ishlangan uncha katta bo`lmagan yozma ish. Odatda referatning maqsadi aniq mavzu yoki muammoga tegishli bilimlarni to`plash va bir tizimga solish hisoblanadi.

Har qanday referatni yozish tartibi shartli ravishda ikki bosqichga bo`linishi kerak: nazariy va amaliy. Birinchi bosqichda talaba tadqiqot mavzusini aniqlab oladi.

Referat kirish, asosiy matn, xulosa va adabiyotlar ro`yxatidan iborat. Referat, zarur holatda, ilovani ham o`z ichiga oladi. Har bir qism yangi sahifadan boshlanadi.

Mavzular bo`lim, kichik bo`limlar mazmunini aniq va lo`nda aks ettirishi kerak. Mavzularni katta harflar bilan yozish maqsadga muvofiq. Mavzuning so`zlarida ko`chim bo`lishi mumkin emas. Agar mavzu ikkita gapdan iborat bo`lsa, nuqta bilan ajratiladi. Mavzuning oxirida nuqta qo`yilmaydi. Mavzu bilan matn orasida 10 mm kam bo`lmagan oraliq bo`lishi kerak.

### **Titul varag`i**

Titul varag`i referatning birinchi beti hisoblanadi. U ma`lum qat`iy qoidalar bilan to`ldiriladi va alohida varaqda yoziladi.

Titul varag`ini yozish meyorlari kafedra qabul qilgan standartlarga bog`liq bo`lishi mumkin. Shuning uchun, yuqori kurs talabalarining ishlari bilan tanishib chiqish tavsiya etiladi. Shunday bo`lsa-da, referat titul varag`ining umumiy qabul qilingan standarti bor.

### **Mundarija**

Mundarija titul varag`idan keyin joylashadi. "Mundarija" so`zi mavzu ko`rinishida (o`rtadan) yoziladi. Mundarijada ishning hamma mavzulari va betlari yoziladi. Mundarija matn mavzisini aniq takrorlashi kerak.

Referatning kirish qismida ish mavzusining dolzarbligi, maqsadi, ko`rsatilgan maqsadga erishish uchun muammo yechimini topish kerak bo`lgan vazifalari aks etadi. Bundan tashqari, kirish qismda ishning tuzilishi va foydalanilgan informatsion manbalar (adabiyotlar)i haqida qisqacha ta`rif beriladi. Kirish qismiga referat uchun – 1-1,5 sahifa ajratiladi.

### **Asosiy matn**

Asosiy matn bo`limlarga ajratiladi. Agar matn yetarlicha katta bo`lsa, bo`limlar yana qo`shimcha kichik paragraflarga bo`linadi. Bo`limlar xulosalar bilan tugashi mumkin, ammo bu referat uchun majburiy talab emas. Referatning bo`lim va paragraflari raqamlanadi. Raqamlardan keyin

nuqta qo'yilmaydi. Referat paragrafi raqami nuqta bilan ajratilib bo'lim raqamiga mos raqamni ham o'z ichiga oladi. Masalan, «1.3»

Mavzularda ko'chim bo'lmaydi, tagiga chizilmaydi, ammo ularni yarim qalin va kursiv qilsa bo'ladi.

Agar referat kichik hajmli (umumiy hajmi – 8-10 bet) bo'lsa, u holda bo'limlarga ajratilmaydi, shunchaki “Asosiy qism” deb yoziladi va bitta bo'limning mavzusi sifatida yoziladi. Biroq, bari-bir matn bo'limlarga (hech bo'lmaganda ikkiga) ajratilgani afzal. Odatda referatda 3-4 ta bo'limi bo'ladi. Har bir yangi bo'lim yangi sahifadan yoziladi. Referatning asosiy qismi uchun 6 dan 16 sahifagacha ajratish mumkin.

### **Xulosa**

Xulosada ishda erishilgan natijalar keltiriladi, shuningdek, mavzuning kelgusida o'rganilish yo'llari tavsiya qilinadi. Bunda referatda o'rganilayotgan muammolar nima sababdan muhim va dolzarb ekanligini ta'kidlash zarur. Xulosada kirish qismda belgilangan vazifalarga yechim ko'rsatilishi kerak. Referat maqsadining yutuqlari haqida xulosalar va umumiy xulosa berilishi kerak. Xulosa qisqa, aniq bo'lishi kerak, u asosiy qism mazmunidan kelib chiqishi kerak.

### **Adabiyotlar ro'yxati**

Adabiyotlar ro'yxatini tuzishda umumiy qabul qilingan standartga rioya qilish tavsiya etiladi. Referatning adabiyotlar ro'yxati 4 dan 12 tagacha bo'lishi mumkin. Adabiyotlar ro'yxatida ko'rsatilgan ishlar, iloji boricha yangi, oxirgi 5-10 yilda chiqarilgan bo'lishi maqsadga muvofiq. Bundan eski adabiyotlardan, faqan noyobligi uchungina foydalanish mumkin. Adabiyotlar ro'yxatini shakllantirish haqida 44-darsda suhbatlashamiz.

### **Ilovalar**

Ilovalar arab sonlari bilan tartiblanadi. Yuqoridagi o'ng burchakka “1-ilova” deb yoziladi. Yangi qatordan esa ilovaning nomi yoziladi.

 **4-mashq.** Quyida berilgan eslatmani ko'chiring va yod oling.

### Referatning yozilish tartibi

1. Titul varag`i (familiya, ismi, qabul qiluvchining ismi va familiyasi, o`quv yurt nomi va predmet nomi)
2. Referat mavzusi va rejası
3. Kirish (1,5-2 bet)
4. Asosiy qism (1, 2, 3 paragraf – 12-15 bet)
5. Xulosa (1-2 bet)
6. Adabiyotlar ro`yxati (8-10 nomdagi)
7. Ilovalar (majburiy emas)



**5-mashq.** Matnni o`qing va rus tiliga tarjima qiling.

Talabalarni muammoga oid ma'lumotlarni to`plash, ularni tahlil qilish, umumlashtirish, mohiyatini yoritish, muammoni hal etish usul va vositalarini tavsiflash, ularning ahamiyatini asoslashga o`rgatishning yaxshi usullaridan biri “referat”dir. U mustaqil o`quv faoliyatining bir turi bo`lib, bir nechta bosqichlarda amalga oshiriladi.<sup>10</sup>

1. Referat mavzusini tanlash.
2. Mavzuga oid adabiyot va meyorıy manbalarni tanlash.
3. Tanlangan adabiyotlarni o`rganish.
4. Referat rejasini tuzish.
5. Manbaa axborotlarini referat rejasiga maqsadli qayta taqsimlash.
6. Turli ma'lumotlarni to`plagach, shaxsiy tahliliy fikrlar bilan mualliflar nuqtai nazaridagi tanqıdiy baholarni bog`lab mantiqiy matn tuzish.
7. Referatni o`qib chiqish.
8. Matnni tahrirlash va referatning yozilish tartibiga tushurish.
9. Himoyaga olib chiqiladigan fikrlarni qoralash.
10. Referatning baholanishi.

**6-mashq.** Quyidagi matnni o`qing. Uning qaysi mutaxassislikka oidligi va qaysi uslubda yozilganini ayting.

<sup>10</sup> Симакова С.И. Реферат как самостоятельной учебной деятельности (методика написания)// Челябинский гуманитарий. – 2010, № 10

O`rta asr Sharq mamlakatlarida tasviriy san`at sohasida kitob grafikasi bilan bog`liq miniatyura keng rivoj topgan. Natijada, Arab (Bag`dod), Eron (Tabriz), Isfaxon, Sheroz, Turk, Movoraunnahr, Xindiston, Ozarbayjon, Hirot, Buxoro, Samarqand mo`jaz rangtasvir maktablari paydo bo`lib, ularning tepasida Miraq naqqosh, Kamoliddin Behzod, Qosim Ali, Ustod Gung, Abdulloh Ibn Fazil, Og`a Miroq, Kesu, Ustod Shamsiddin, Abdul Boqi Tabriziy kabi bir qator rassomlar turar edilar. Ular orasidan O`rta Osiyo tasviriy san`at maktabiga asos solganlar yetishib chiqadi. Xususan, Movaraunnahr mo`jaz rangtasvirining dastlabki namunalari mashhur qomusiy olim, tarixchi, tilshunos, tabib va yirik davlat arbobi Rashididdin Fazlulloh ibn Imouddavla Abulxayr al-Hamadoniyning “Jome’ ut-tavorix” (“Tarixlar majmuasi”) nomli asarida aks etgan<sup>11</sup>, unda bir qator mo`g`il xonlarining obrazlari tasvirlangan. XV asrdagi Sharq mutafakkirlaridan Firdavsiy, Navoiy, Sa`diy, Hofiz, Jomiy kabilarning kitoblari ham mo`jaz rangtasvir asarlari bilan bezatilgan.

---

<sup>11</sup> Bu tarjimaning noyob qo`lyozmasi O`zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida 2-tartib raqami ostida saqlanmoqda.

## 31-DARS

### BADIIY ADABIYOT

#### *Og`zaki nutq:*

San`atning eng qadimiy va ommaviy turlaridan biri badiiy adabiyotdir. Badiiy adabiyot so`z orqali namoyon bo`ladi. Shuning uchun badiiy adabiyot so`z san`ati ham deb ataladi. So`z san`ati ikki xil, yozma va og`zaki ko`rinishga ega. Har bir badiiy asarni o`qigandan keyin zehnimizda asarda tasvir etilgan kishilarning obrazlari qoladi. Alisher Navoiyning dostonlarini o`qib, Farhod va Shirin, Layli va Majnun, Iskandar, Bahrom, Hisrav kabi qahramonlarning obrazlarini eslab qolamiz. Badiiy adabiyot – badiiy tafakkur mahsulidir.

Obraz – insonning tasviri bo`lib, u hayotdagi odamlarning asl nusxasini emas, balki yozuvchining ma`lum davrda va sharoitda yashovchi insonlar haqidagi tasavvurining ifodasidir. Badiiy adabiyotda tasvir etilgan barcha inson obrazi umumlashtiruvchi kuchga ega. Unda ma`lum davr va muhit kishisining xarakterli xususiyatlari mujassamlashgan bo`ladi. Shu sababli, obrazlilik – badiiy adabiyotning eng muhim xususiyatlaridan biridir.

Badiiy adabiyot san`at turi sifatida o`zining ichki tizimiga, uslubiga va o`ziga xos ko`rinishiga ega. Masalan, qadimgi Yunoniston badiiy madaniyati tarixida badiiy adabiyot doirasi uning uch katta adabiy turini – epik, lirik, dramatik ko`rinishlarini qamrab olgan edi. Epik tur, avvalo, voqealarni badiiy o`zlashtirish bilan, lirik tur – kayfiyat yoki ruhiy holat bilan, dramatik tur – harakat bilan bog`liq holda amal qiladi. Bu uch turning barcha belgilari badiiy aks ettirish uchun zarur bo`lgan voqelik bilan chambarchas bog`liq edi.

Badiiy adabiyotning epik turi muayyan badiiy sifat ham kasb etadi. Shu bois, ba`zi san`at asarlariga nisbatan «epik roman», «epik kenglik», «epik osoyishtalik» kabi iboralar qo`llaniladi. Badiiy asar muayyan inson

taqdirini aks ettirish va uni davr ma'naviy hayotining bir qismi sifatida tasvirlaydi.

Badiiy adabiyot san'atning barcha turlariga ta'sir o'tkazib keladi. Bu san'at turi ta'siridan xoli badiiy ijod sohasi yo'q bo'lib, unda ilk bor qalamga olingan mavzu, g'oya, ohang, qiyofa, xulq-atvor, keyinroq san'atning boshqa turlariga ham ko'chishi mumkin. San'atning teatr va kino kabi aralash, tomoshaviy turlariga ham badiiy adabiyot ilk asos vazifasini bajaradi. Nihoyat, san'at taraqqiyotining hozirgi bosqichiga xos bo'lgan badiiy asarlar vujudga kelishida ham adabiyot asosiy uyg'unlashtiruvchi va jamlovchi omillardan biri bo'lib xizmat qiladi.


Xalq dostonlari adabiy musiqiy asarlardir. Ularning tarkibida nasriy va nazmiy (she'riy) qismlar bo'lib, ular mazmuni o'zaro bog'liq bo'ladi. Doston ijrochilarini shoir yoki baxshi deb ataydilar. Baxshilar san'atida so'z, qo'shiq, soz (do'mbira) cholg'uchiligi birlashgan bo'ladi. Asrlar osha sevib ijro etib kelinayotgan «Alpomish», «Go'ro'g'li», «Avazxon» kabi dostonlar xalqimizning estetik tarbiyasiga katta ta'sir ko'rsatadi.


**1-mashq.** Mavzuga oid matnni o'qing, mazmuni to'liq tinglab tushuning.

**2-mashq.** Matnni qisqartirib so'zlab bering.

**3-mashq.** Badiiy adabiyotning inson tarbiyasiga qo'shadigan hissasi haqida gapirib bering.

*Yozma nutq:*

 **4-mashq.** “Yoshlar tarbiyasida badiiy adabiyotning o'rni” mavzusida matn tuzing.

 **5-mashq.** Badiiy asarlarning turlari haqida ma'lumot yozing.

*Grammatika:*

## BADIIY USLUB

Badiiy uslub yozuvchilarning, shoirlarning o`ziga xos ifoda usuli bo`lgani uchun, qoidasiga ko`ra u yozma nutqda qo`llaniladi. Og`zaki shaklida (masalan, pyesada) ham oldindan yozilgan matn o`qib beriladi. Qadimgi badiiy uslub adabiyotning uch avlodida faoliyat yuritadi – nazm (she`rda, poemada), drama (pyesalarda) va epos (hikoya, povest, romanlar)da.

### **Badiiy uslubning xususiyatlari quyidagicha:**

1. Muallif bilan hikoya qiluvchining bir biriga mosligi, mualliflik “men”ining yorqin va erkin ifodasi.

2. Til imkoniyatlaridan foydalanib, badiiy obrazni, hikoya qiluvchining hissiy holatini va kayfiyatini yetkazib berish usuli

3. Hissiy ekspressiv leksikadan, iboralardan, metafora, qiyoslash, matonimiya kabi uslubiy shakllardan foydalanish.

4. Bir necha uslubga egalik. Boshqa (so`zlashuv, publitsistik) usullarning til manbalaridan unumli foydalanishi ijodiy g`oyani yuzaga chiqarishga bo`ysunadi. Bunday uyg`unlik, borgan sari, muallifning shaxsiy usuliga aylanib boradi.

5. Nutqdagi ko`pmanolilikdan foydalanish – so`zlar shunday tanlanadi-ki, ular yordamida nafaqat obrazlar tasvirlanadi, balki ularga yashirin ma`no yuklaydi.


6. Odatda axborot berish yo`llari yashirin bo`ladi. Badiiy uslub maqsadi muallif hissiyotini yetkazish, o`quvchida kayfiyat, emotsional kayfiyat paydo qilish.

Parcha:

*Aytishlaricha, mussavvir uchinchi ko`zga ega bo`lar ekan. Haqiqiy rassom siyrati toladek nozik, ba`zan xayolparast va ta`sirchan bo`ladi. Uning uchun sarhad bilmas “tun”, “tong”, “kun” tushunchalari “sehr”, “mehr”, “joziba” tushunchalari bilan hamohangdir. O`zi kashf etgan olamda yashagani yetmaganidek, o`z ruhiy holatigan gohida hayron, gohida sarson kezgan ko`ngil ko`chalarida ba`zan adashib, ba`zan shahdam qadam bosadigan san`at ustalari buyuk asarlar yaratishga qodir bo`ladi. Shuning uchun ham, odatda oddiy odamlar ularning ayrim*



*kamchiliklarini to'g'ri tushunadilar va kechiradilar. Ammo qalb kishisidan hech qachon yomonlik chiqmasligini biladilar. Biz ana shunday ilohiy hislat egalarini har qancha e'tirof etsak, shuncha oz. Zero, go'zallik dunyoni qutqaradi. Go'zallikni esa san'at ustalarigina o'z qarichida ilg'ab istifoda etadi.*

 **6-mashq.** «San'at» haqida badiiy usulda qisqa esse yozing.

## ESSE

Esse bu – aniq sabab yoki muammo yuzasidan shaxsiy taassurot va mulohazalarni erkin gap tuzilmalari bilan bayon etuvchi kichik hajmli insho.

Essening ayrim xususiyatlari:

- ✓ aniq mavzu, muammoning borligi.
- ✓ aniq sabab yoki muammo yuzasidan shaxsiy taassurot va mulohazalarni predmetni aniqlovchi yoki inkor etuvchi talqiniga atayin da'vo qilmay bayon etish.
- ✓ esse mohiyatida, birinchi o'rinda, muallif shaxsiyati, uning dunyoqarashi, fikri va hissiyotlari baholanadi.

Essening maqsadi mustaqil ijodiy tafakkurni va shaxsiy fikr-mulohazalarni yozma bayon etish ko'nikmalarini rivojlantirishdan iborat.

Esse yozish o'ta foydali, chunki, bu muallifga fikrni aniq va ravon shakllantirishni, axborotni bir tizimga solishni, asosiy tushunchalardan foydalanishni, sabab va oqibatlarni farqlashni, muayyan misollar bilan tajriba oshirishni, o'z xulosalarini asoslashni o'rganishga imkon beradi.

**7-mashq.** Mazkur essenini o'qing va ko'chma ma'noli so'z va so'z birikmalarini ko'chirib yozing.

*Yoshligimdan tasviriy san'atga befarq bo'lmaganligim sababli, otam meni rassom bo'lsa kerak deb o'ylagan. Hattoki, shu ixtisoslikka yo'naltirilgan maktabga o'qishga jo'natgan. Ammo san'at olamining*

*ostonasiga bir qadam qo'yib-da qo'ymay, taqdir shamoli meni tasviriy san'atdan unchalik yiroq bo'lmagan ixtisoslik tomon burib yubordi.*

*Adabiyot, jurnalistika va undan so'ngra tilshunoslik so'qmoqlarida kezgan umrim bugun yana tasviriy san'at chorrahasiga yuz tutib turibdi. Adashib dunyo kezgan qush kabi bugun qo'nim topgandek ko'nnglim taviriy san'atning sokin muhitida halovat topmoqda. Qiziq, rassomlarning faoliyati ham mehnat, ham rohat ekanligini o'zlari bilarmikan?! Mashhur musavvir Alisher Mirzoning fikricha, sa'natning mazkur turi eng qiyin hisoblanar ekan. Chunki yaratguvchining o'zi olamning tasvirini eng go'zal qilib yaratdi va unga jon baxsh etdi. Musavvir ana shu go'zallikni boricha qog'ozga tushurishi uchun ilohiy qobiliyat, ilohiy ong va tasavvurga ega bo'lishi kerak. Tasviriy san'at festivali doirasida o'tkazilgan bir anjuman qatnashchilari XX asrning 30-yillarida shoir So'fizodaning rassomlar bilan bo'lgan muloqotidan keyin "Shamolning rasmini chizgan xudojniklar omon bo'lsin" degan fikrini yodga olishdi. Darhaqiqat, biz bugun nafaqat shamolning rasmini, balki inson qalbining turfa xildagi kechinmalarining, kayfiyatning, maza-ta'mning, dardning, umrning, umuman borliqning ko'zga ko'rinmas, his etib bo'lmas voqeliklarining aksini iqtidorli rassomlarimiz polotnolarida ko'rib turibmiz. Bu mo'jiza emasmi?!*

**8-mashq.** O'zingiz yoqtirgan badiiy adabiyot xususida esse yozing.

## 32-DARS

### KINO SAN'ATI

#### *Og`zaki nutq:*

Kino ham san'at turi bo'lib, hayotdagi voqealarni o'z holicha yo maxsus inssenirovka qilib yoki multiplikatsiya, kompyuter vositasida qayta tasvirlab suratga tushirish yo`li bilan asarlar yaratadi.

Kino san'atida adabiyot, teatr va tasviriy san'at, musiqaning o`ziga xos estetik jihatlari ifoda vositalari bilan uyg`unlashib ketadi.

Bu san'at tomoshabinlarni voqelik haqidagi tasavvurlarini, estetik didini shakllantirishda muhim vositadir.

Ushbu san'atning to`rt asosiy turi mavjud: badiiy kinematografiya, hujjatli kinematografiya, ilmiy-ommabop kinematografiya, multiplikatsiya.

Badiiy kinematografiyada epos, lirika, drama imkoniyatlaridan foydalaniladi.

Hujjatli kinematografiya adabiyot, jurnalistika janrlarining xususiyatlarini o'z ichiga oladi. Ilmiy-ommabop kinematografiya tabiat va jamiyat hayoti va kashfiyotlar bilan tanishtiradi.

Multiplikatsion kinematografiya ko`pincha bolalarga mo`ljallangan bo'lib, grafik obrazlar yoki qo`g`irchoq personajlarni jonlantirish orqali yaratiladi.

Kino san'ati — fan-texnika laraqqiyoti mo`jizasiga aylandi. Kino boshqa san'at turlari, xillari, ko`rinishlari, ifoda vositalaridan qorishma hosil qiladi. Kino san'atiga adabiyotning ta`siri juda kuchli. Yetuk adabiy manba yetuk kinofilm yaratish garovidir.

Harakatdagi kinokamera tomoshabin va san'atkor o`rtasidagi munosabatlarni tubdan o`zgartiradi. Eng avvalo ular o`rtasidagi masofa qisqaradi, tomoshabin his-tuyg`usi o`sadi, u voqea-hodisalarning ishtirokchisiga aylanadi.

**1-mashq.** Kino san'atining o'zingiz yoqtirgan yo'nalishi (melodrama, tarixiy, detektiv, harbiy, drama va b.) haqida gapirib bering.

**2-mashq.** Multiplikatsiyaning ahamiyati va vazifasi xususida fikr bildiring.

*Yozma nutq:*

 **3-mashq.** Biror kinoning annotatsiyasini yozing.

 **4-mashq.** “Men sevgan kinokartina” mavzusida matn tuzing.

*Grammatika:*

## **RASMIY-IDORAVIY USLUB**

Rasmiy-idoraviy uslub bu – qonunchilik va ma'muriy-jamoatchilik sohasining tili hisoblanadi. Undan hujjatlarni, davlat idoralarining, sud ishining qog'ozi va maktublarini yozishda, shuningdek, turli ko'rinishdagi ish yuzasidan olib boriladigan muzokaralarda foydalaniladi.

Kitob uslublari orasida rasmiy-idoraviy uslub nisbatan muqimligi va hissizligi bilan ajralib turadi. Vaqt o'tishi bilan, tabiiyki, ayrim o'zgarishlarga duch keladi, ammo ko'p qirralari: qadimdan shakllanib kelgan janrlari, o'ziga xos leksikasi, morfologiyasi, gap qurilmalari – unga konservativ xususiyat berib turadi.

Rasmiy-idoraviy til quruq, hissiy bo'yoqdor so'zlardan holi, qisqa va ixcham bo'ladi. Rasmiy-idoraviy til hayotda o'ylaganimizdan ham ko'p uchraydi. Siz uni ko'rsatmalarda, (davlat yoki hususiy)tashkilotning barcha hujjatlarida, qonun hujjatlarida, metodik ishlanmalarda va boshqalarda ko'rishingiz mumkin.

Bu uslubning asosiy, vazifasi ma'lumotni imkon darajada qisqa va lo'nda yetkazib berish hisoblanadi. Shuning uchun, rasmiy-idoraviy usulda yozilgan matnlarda axborot zichligi sababki, uni qabul qilish qiyin bo'lsa ham juda mukammal.

## ANNOTATSIYA

Annotatsiya bu — kitob matni, maqola kabilarning umumlashtirilgan qisqacha tavsifi.

Matndan avval annotatsiyada chiqish ma'lumotlari (muallif, mavzu, nashr joyi va vaqti) nominativ shaklda beriladi. Bu ma'lumotlarni annotatsiyaning birinchi qismiga kiritsa ham bo'ladi.

Annotatsiya ikki qismdan iborat bo'ladi. Birinchi qismda kitobning, maqolaning, filmning asosiy mavzusi; ikkinchi qismida asosiy qoidalar sanab (chiqiladi) o'tiladi.

Annotatsiyada harakatning subyektini odatda aytilmaydi, chunki, u matndan aniq va ma'lum; passiv (fe'l va sifat-doshli) qurilmalar faolroq qo'llaniladi.

**5-mashq.** Rus tiliga tarjima qiling.

H.Umurovning “adabiyot nazariyasi” (Toshkent, Sharq, 2002) darsligining  
ANNOTATSIYASI

Respublika universitetlarining O'zbek filologiyasi yo'nalishi (fakultetlari)da “Adabiyot nazariyasi” bakalavriatning 4-kurslarida o'rganiladi. Unda adabiyot, badiiy asar, ijodiy jarayonning muhim qonuniyatlari, adabiy tur va janr, ijodiy metod va uslub muammolarining mohiyati, so'z va so'zshunoslikning sehra jozibasi haqida zarur nazariy ma'lumot beriladi.

Ushbu darslik Oliy o'quv yurtlarining filolog talaba-bakalavrlari, magistr-lari, tadqiqotchilari, va adabiyotga qiziquvchi barcha ijodkorlarga mo'ljallangan.

**6-mashq.** “O'zbek tili” o'quv qo'llanmasida annotatsiya yozing.

## 33-DARS

### TASVIRIY VA AMALIY SAN'AT FESTIFALI

#### *Og`zaki nutq:*

Har yili O`zbekiston Badiiy akademiyasi “Tasviriy va amaliy san’at festivali”ni o`tkazib keladi. Tadbirning tarixi 2000-yillarga borib taqaladi. “Rassomlar kuni” va keyinchalik “San’at haftaligi” g’oyasining muallifi – rangtasvirchi Jur’at Rahmonov edi.

21-aprelda O`zbekiston badiiy akademiyasining Markaziy ko`rgazmalar zalida “Rassomlar kuni” nishonlanar va “Tasviriy san’at haftasi” o`tkazilar edi. Ekspozitsiyada yuzdan ortiq mo`yqalam sohibi va o`ymakor ustalarning, zargar, shuningdek, boshqa san’at yo`nalishi egalarning ishlari namoyish qilinar edi. Tasviriy san’at haftasi doirasida mashhur ustalar markaziy ko`rgazmalar zali atrofidagi ochiq havoda o`z malbertlari bilan joylashib olib mahorat saboqlarini o`tkazar va o`z mahoratining sir-sinoati bilan o`rtoqlashar edilar.

Ko`rgazmada nafaqat rassom va Respublika “Hunarmand” uyushmasi xalq ustalarining ijodidan bahramand bo`lish balki ma’qul bo`lgan san’at asarlaridan sotib olish mumkin edi. Ekspozitsiyani tashkil etish hamda yasatish borasida O`zbekiston Badiiy akademiyasi bilan birgalikda mamlakatning Rassomlar ijodiy uyushmasi, Kamoliddin Behzod nomidagi MRDI, poytaxtdagi kollej va litseylar, shuningdek, badiiy galereya va antikvar do`qonlar o`z hissasini qo`shar edi.

Keyinchalik bu an’anaga aylanib qoldi va bugungi kunga qadar mazkur tantana, nafaqat poytaxt balki butun Respublikada o`tkazilib kelinmoqda. Ko`p yillar davomida u “O`zbekiston tasviriy san’at haftaligi” nomi ostida faoliyat ko`rsatdi. Tadbir ijodkor ziyolilar, san’at ixlosmandlari va mamlakatning yoshlarini tasviriy san’atimizning an’analari, tadrijiy taraqqiyoti va erishilgan yutuqlari bilan tashishishda, iqtidorli yoshlarni aniqlash, qo`llab-quvvatlash va maqsadga yo`naltirishida katta rol o`ynadi. San’at bayramiga aylagan katta marosim yildan yilga rivojlanib joriy yil bilan atalib, siyosiy tus olib mamlakatda

ro'y berayotgan hodisalar bilan bog'liq ravishda o'tkazila boshlandi. Masalan, "O'zbekiston tasviriy san'at haftaligi – 2009" Toshkentning 2200 yilligiga bag'ishlandi. Hozirda ham bu an'anaga rioya qilinmoqda.

2011-yillarda mazkur ijodiy bayram "Tasviriy san'at + 5" nomi bilan yuritilar edi. O'shanda ham an'anaviy tarzda joylarda madaniy-ma'rifiy tadbirlar, ijodiy uchrashuvlar o'tkazilardi. Bora-bora u xalqaro darajadagi maqomga ega bo'ldi. Ayniqsa, 2013-yil O'zbekistonning san'at bayrami o'zining yangi-yangi qirralari bilan porlay boshladi. "Oltin gepart" kinoforumi, "Theatre Uz" xalqaro teatr festivali shular jumlasidandir. O'sha yillari Art Week Style.Uz nomi bilan o'tkaziladigan bayramning tantanali ochilish marosimlarida Ispaniya yosh dizaynerlari kolleksiya namoyishlari, O'zbekiston – Rossiya video-ishtalyatsiyalari, Yaponiya vakillari hamda Nika Sayersaning "Show Home" nomli ko'rgazmalari taqdim etilgan edi. Haftalik san'atning barcha sohasini qamrab olgan va juda keng yoyilib, tarqoq va betartib tus olgan ediki, bu bayramning dastlabki g'oyasidan birmuncha uzaqlashishiga olib keldi. Shuning uchun, Art Week Style.Uz nomi ko'p yashamadi. Ammo 2015-yillarda "Tasviriy san'at festivali" nomi ostida san'at ustalarining an'anaviy nishonlanajak bayrami bo'lib qolaverdi. Respublika miqyosida o'tkazilib kelingan mazkur tadbir yanada rivojlanib, endilikda bayramning haqiqiy egalari bilan nishonlana boshlandi. Hozirda "Tasviriy va amaliy san'at festivali" yoshlarning ijodiy qobiliyatini ko'rsatishda katta rol o'ynamoqda. Madaniyat, san'at va moda masalalarida milliy va xorijiy tajribalarni almashishda bir imkoniyat vazifasini o'tamoqda. Mamlakatimizning san'at, moda va dizayn sohasidagi ijodiy yutuqlarini ko'rsatishda va hamkorlik o'rnatishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

**1-mashq.** Mavzuga oid matnni o'qing, mazmunni to'liq tinglab tushuning.

**2-mashq.** Matndagi atama va iboralarning ma'nosini izohlang.

**3-mashq.** Matnga munosabat bildirib so'zlang.

## Yozma nutq:

🏠 **4-mashq.** “San’at mening hayotimda” mavzusida esse yozing.

🏠 **5-mashq.** Mutaxassislikka oid terminlar lug’atini shakllantiring.

### Mustaqil ta’lim

*“Tasviriy san’at festivali to’g’risida o’ylarim” nomli talabalar to’plamiga maqola yozish.*

## Grammatika:

### PUBLITSISTIK USLUB

**Publitsistik uslub** siyosiy-ijtimoiy sohasidagi munosabatlar uchun xizmat qiladi.

Publitsistik uslubni OAV (Ommaviy axborot vositalari)ning rasmiy uslubi deyiladi. Shu jumladan, maqolalar, reportaj, eslatma, intervyu kabilarning ham uslubidir. Bu uslub ko’proq yozma nutqda ishlatiladi. Og’zaki shakli reportaj yoki jamoat arboblarning ommaviy chiqishlarida qo’llaniladi.

Bu uslubning umumiy xususiyatlari quyidagilardir:

- ✓ Nutqning hissiyligi va ramziyligi – kerakli muhitni yaratish uchun;
- ✓ Baho beruvchi va ishonch – qiziqtirish uchun;
- ✓ Inkoriy bo’lmaydigan dalillarga asoslanib bayon etilgan mantiq – nutqga ishonchlilik va informativlik berish uchun;
- ✓ O’quvchilarni (tinglovchilarni) harakat va borliqqa tashviqot qilish;
- ✓ Yengil va tushunarli bayon etish.

Publitsistik uslub – eng taraqqiy topib borayotgan va “harakatchan” uslublardan biridir: u boshqa uslublarning xususiyatlarini, jumladan, yaxshi qabul qilinishi va ta’sir etishi uchun badiiy uslubga ifodaviylik va hissiylik qo’shgan holda leksikasi (ilmiy atamalar, rasmiy-idoraviy uslub qoliplarini)ni yaxshi o’zlashtiradi.



Mazkur tahlil niqtai nazaridan publitsistik uslubning kichik turlari paydo bo`ladi:

- Oddiy publitsistik;
- Ilmiy publitsistik (ilmiy maqolalar);
- Badiiy publitsistik (ko`ngilochar maqolalar).

Ilmiy publitsistik uslubni ko`rib chiqamiz.

Matnning kommunikativ maqsadi, avvalo, axborot berish va ta'sir etish hisoblanadi. Shuningdek, axborotda keltirilgan dalillarning dolzarbligi va alohida ahamiyati ta'kidlanadi (*ta'kidlash joizki, iqtisodiy islohotlar rejasi hech qachon e'lon qilinmagan*). Gap qurilishida aniq va to`g`rilikka, sodda va ravshanlikka ahamiyat berish lozim.

Yana:

➤ Leksikaning keng ko`lami: ilmiy-texnik atamalardan tortib, to kundalik so`zlashuv so`zlarigacha (*vahshiylik (дикость), talon-taroj qilinmoqda (разграбляются), valutaning tushishi (падение валют), iqtisodiy islohotlar (экономические реформы)*);

➤ Noan'anaviy leksik bog`lanishlar orqali taqdim etilgan qat'iy baholarning mavjudligi (*milliy falokat (национальная катастрофа)*);

➤ Bir paytning o`zida tilning ekspressiv hamda oddiy manbaalaridan ixtiyoriy foydalanish (*havfli hukmlar (грозные приговоры)*);

➤ Aniq va mavhum tushunchalarni leksikada bog`lash (*milliy faxr (национальное достоиние)*) publitsistik uslubning xususiyatlari hisoblanadi.

Publitsistik uslub, ehtimol, bugun eng ko`p qo`llaniladigan va keng tarqalgan uslub hisoblanadi. Uning xususiyatlari haqida nafaqat jurnalist, rerayter yoki bloger, balki yozuvchilar ham bilishi kerak. Biz har doim reportaj tinglab va yangilarni o`qib, bevosita OAV tili va nutqiy birliklarini o`rganib olamiz va bevosita yozma nutqda qo`llaymiz. Biroq OAV tilida ishlatiladigan hamma birliklar ham o`z uslubiga xos badiiy matnda qo`llanavermaydi.

### **5-mashq.** Matnni oqing, rus tiliga tarjima qiling.

Ostap Kavalchuk milliy madaniyatimizni o'zida aks ettirgan ko'hna va navqiron liboslarimiz ko'rgazmasini mehr bilan tomosha qildi. Uning ko'zidagi hayrat o'zbek mentalitetiga bo'lgan munosabatdan darak beradi. U o'z intervyusida quyidagi fikrlarni bayon etadi. *“Bu yil O'zbekistonga kelib uning naqadar go'zallashib ketganligidan lol qoldim. Me'morchilik va san'at uyg'un holatda o'sib ketgan. Men Milliy rassomlik va dizayn institutiga tashrif buyurib, professor-o'qituvchilar bilan tanishdim. U yerdagi talabalarning zamonaviy mavzulardagi diplom ishlari Yevropa san'ati bilan hamohang bo'lgan o'zbek san'atining taraqqiyotidan so'zlaydi. Ayniqsa, xalq san'ati an'analarini saqlashga bo'lgan intilishning kuchliligi tahsinga loyiq.”*

### **6-mashq.** O'zbek tiliga tarjima qiling.

С 17 по 21 апреля в Центральном выставочном зале Академии художеств Узбекистана и областях республики открывается традиционный **«Фестиваль изобразительного и прикладного искусства Узбекистана»**. В этом году праздник искусства посвящен «Году поддержки активного предпринимательства, инновационных идей и технологий».

В рамках фестиваля планируется проведение различных выставок, смотров национальной одежды, концертов, обсуждение искусствоведами и художниками проблем современного изобразительного искусства.

Наряду с известными художниками свои произведения будут демонстрировать молодые начинающие художники. Работы будут демонстрироваться на улицах и площадях вокруг Центрального выставочного зала, в историко-архитектурных комплексах и парках.

### **7-mashq.** Matnni o'qing, publitsistik uslubga xos bo'lgan o'rinlarni topib, ularni izohlang.

Shu kuni (23.04.2013) Ikuo Xiroyama xalqaro madaniyat karvon saroyida Milliy rassomlik va dizayn instituti tomonidan tashkil etilgan kelin salom barcha mehmonlarning qalbini zavqqa to'ldirdi. Salomlarning surxondaryocha, qashqadaryocha, xorazmcha, andijoncha, toshkentcha kabi variantlari namoyish etildi. Ular nafaqat urfi, madaniyati bilan, balki liboslari bilan ham tubdan farq qiladi. Bu liboslarning har bir qarichi mental muhitning ramziy ifodasi bo'lib xizmat qiladi.

Har bir jamiyatning umumiy xarakteri bo'lganidek, liboslardagi ranglar ham xalqning sajiya<sup>12</sup>sidan yorqin namuna hisoblanadi. Ularning aksariyati bugungi kunda ko'zga tashlanmayotgan bo'lsa-da, o'z izini hali yo'qotganicha yo'q. Yuqorida ta'kidlanganidek, an'analarning saqlanishi bugun muhim masala. Modomiki, mental madaniyat haqida so'z borar ekan, libos muammosi nafaqat madaniy, balki axloqiy masalalardan biri bo'lib qoladi. Shu ma'noda, o'zbek urf-odati, madaniyati, liboslari bilan bugungi yoshlarimizning ko'zini pishitib, ularga nisbatan mehr uyg'otib borishimiz ham farz, ham qarzdir.

---

<sup>12</sup> Xarakter

## 34-DARS

### MIRTOJIYEV JALOLIDDIN

(1954-2015)

#### *Og`zaki nutq:*

O`zbekiston xalq rassomi, “O`zbekistonda xizmat ko`rsatgan madaniyat xodimi”, Bobur nomidagi xalqaro mukofoti sohibi, Tokiodagi Fudji muzeyining medali, Rossiya Badiiy Akademiyasi medali sovrindori, Xitoydagi Shanxay universiteti va Harbin universiteti faxriy professori Jaloliddin Mirtojiyev 61 yoshida bevaqt olamdan o`tdi.

J.Mirtojiyev 1979-1996-yillarda Andijon badiiy ishlab chiqarish ustaxonasida haykaltarosh, 1997-yildan 2015-yilgacha K.Behzod nomidagi Milliy Rassomlik va dizayn instituti katta o`qituvchisi, 1996-2005-yillarda Badiiy Ijodkorlar Uyushmasi haykaltaroshlik sho`basi raisi, Badiiy Ijodkorlar Uyushmasi viloyat bo`limlari bilan ishlash bo`yicha akademik kotibi, 2005-yildan O`zbekiston Badiiy akademiyasi Raisi o`rinbosari lavozimlarida ishlab kelgan. Mehnat faoliyati davomida J.Mirtojiyev chet ellik ijodkorlar bilan ijodiy almashuvlar, uchrashuv va safarlar tashkilotchisi, o`zbek milliy haykaltaroshlik an`analarini rivojlantirishdagi tashabbuskor sifatida Badiiy Akademiya va tizim tashkilot, muassasalari, respublikamiz va xorij davlatlari ijodkorlari o`rtasida hurmat va e`tiborga sazovor bo`ldi.

Haykaltarosh Jaloliddin Mirtojiyevning Bobur Mirzo (Andijon, 1993), Abdurauf Fitrat (Buxoro, 1996), Cho`lpon (Andijon, 1997), Elbek (Toshkent, 1998) haykallari respublikamizning turli shaharlarida o`rnatilgan, el-yurt, jamoatchilik nazariga tushgan edi. Birgina shu dalillarning o`ziyoq haykaltaroshning ijodiy faolligidan, sermahsulligidan darak berib turadi. Ular orasida Bobur haykali haykaltaroshning belgili xizmati va tashrif qog`ozi sifatida namoyon bo`lib, uning faqat keyingi ijodi yuksalishida ko`prik bo`ldi. J.Mirtojiyev yaratgan ulkan siymolar galereyasi ko`zga tashlanadi. Mirzo Ulug`bek (Moskva, 2001), Alisher Navoiy (Moskva, 2002), Mirzo Ulug`bek (Riga, 2004), Alisher Navoiy

(Yaponiya, Tokio, 2004), Beruniy (Toshkent, 2005), Ibn Sino (Latviya, Riga, 2006), “Ahmad Farg`oniy” (Misr, Qoxira 2007), “Alisher Navoiy (Ozarbayjon, Boku 2008), Ro`dakiy (Samarqand, 2009), Mirzo Ulug`bek (Samarqand, 2010) haykallari shular jumlasidan.

O`zbekiston milliy bog`ida barpo etilayotgan qator turkum allomalar, shoir va yozuvchilarning haykallari yaratilishida Jaloliddin Mirtojiyevning hissasi katta. Jumladan, uning G`afur G`ulom (2003), Zulfiya (2008), Oybek (2010), Said Ahmad va Saida Zunnunova (Toshkent, 2013) kabi adabiyotimizning yirik vakillari haykallari nafaqat zamondoshlarimizga, balki kelgusi avlodlar uchun ham xotira ko`zgusi bo`lib xizmat qiladi. “El-yurt tayanchi” haykali (Qarshi, 2006), “Vatanga qasamyod” haykallari esa (Toshkent, 2010) o`z yurti, xalqiga sadoqatli bo`lishga chorlaydi. Jizzaxda (1999), Andijonda (2000) Farg`onada (2000) o`rnatilgan turli hajmdagi “Motamsaro ona” monumentlari Ona vatanning bevaqt halok bo`lgan o`z farzandiga sukutli marsiyasidir. J.Mirtojiyev mahobatli haykaltaroshlik san`atida samarali ijod qilgan bo`lib, O`zbekiston tasviriy san`atiga katta hissa qo`shgan ijodkor sifatida avlodlar xotirasida saqlanib qoladi.

**1-mashq.** Mavzuga oid matnni o`qing, mazmuni to`liq tinglab tushuning.

**2-mashq.** Matndagi atama va iboralarning ma`nosini izohlang.

**3-mashq.** Matnni ijodiy so`zlang.

*Yozma nutq:*



**4-mashq.** Buyuk haykaltaroshlar ro`yxatini tuzish.



**5-mashq.** Buyuk iqtidor egalarining yaratgan mashhur san`at asarlari haqida ma`lumot yozish.

## **Grammatika:**

# **O‘ZBEK TILIDA ISH YURITISH**

## **ARIZA**

**Ariza** – biror iltimos, taklif yoki shikoyatni o‘z ichiga olgan ma’lum tashkilot, amaldor shaxs nomiga yozilgan hujjat. Arizaning muhim belgilari quyidagilardir:

1. Ariza yo`naltirilgan tashkilot yoki amaldor shaxsning F.I.O.
2. Ariza yozuvchining F.I.O., manzili.
3. Hujjat nomi (Ariza)
4. Asosiy matn (taklif, iltimos, shikoyat)
5. Ilova qilinadigan hujjatlar (zarur bo`lganda)
6. Ariza yozuvchining imzosi va F.I.O.
7. Ariza yozilgan sana.

Arizaning muhim qismlari har doim ham bir xilda takrorlanavermaydi, misol uchun, o‘zi ishlayotgan tashkilot rahbari nomiga ariza yozgan xodim manzilini yozmaydi, balki ish joyining bo`limi va lavozimini ko`rsatadi.

Ariza qismlari quyidagicha joylashadi:



Kamoliddin Behzod nomidagi  
MRDI rektori H.R.Aminovga  
Toshkent shahri A.Qodiriy  
ko'chasi 60-uyda yashovchi  
Azizova Gulnora Botirovnadan

ARIZA

Meni Tillar va adabiyot kafedrasiga o'qituvchi lavozimiga ishga  
qabul qilishingizni so'rayman.

Arizaga oliy ma'lumot to'g'risidagi diplom nusxasini ilova qilaman.

2018.31.08.

imzo

G.B.Azizova

Kamoliddin Behzod nomidagi MRDI  
San'atshunoslik fakulteti dekani  
dotsent L. Raupovaga  
IV kurs "A" guruhi talabasi  
Avazov Ahrorbek Azizovichdan

ARIZA

Kasalligim tufayli shu yilning 10-sentyabridan 25-sentyabrigacha  
pedagogik amaliyotda qatnasha olmadim. Pedagogik amaliyotni 26-  
sentyabrdan davom ettirishimga ruxsat etishingizni so'rayman.

Ilova qilindi: Shahar 1-sonli kasalxonasidan olingan ma'lumotnoma.

2018.25.09.

imzo

A.A.Avazov

Toshkent viloyati Qibray tumani  
Salor shaharchasi IIB boshlig'i  
O.Muhammadovga Salor  
shaharchasi Quliston ko'chasi  
40-uyda yashovchi Olim Oqilovdan

ARIZA

Meni 2018-yil 12-avgust kuni avtobusda ketayotib Qibray tumani IIB  
tomonidan berilgan fuqarolik pasportimni yo'qotdim. Menga yangi pasport  
berishingizni so'rayman.

Ilova qilindi: Topilmalar idorasidan ma'lumotnoma. Tug'ilganlik  
haqida guvohnoma

2018.17.08.

imzo

O.Oqilov

**5-mashq.** Namunalar asosida bir-ikkita ariza matni yozing.



**6-mashq.** Rus tiliga tarjima qiling.

1. *Yakka tartibda uy-joy qurush uchun yer uchastkasi ajratishingizni so'rayman.* 2. *Betobligim sababli darslardan ozod qilishingizni so'rayman.* 3. *Egallab turgan lavozimdan o'z ixtiyorim bilan ozod qilishingizni so'rayman.* 4. *O'rindoshlik asosida ishlashimga ruxsat berishingizni so'rayman.*



**7-mashq.** O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Прошу выделить путевку в санаторий-профилакторий университета. 2. Прилагается: больничный лист за №170632. 3. Прошу выдать новый студенческий билет. 4. Прошу принять соответствующие меры.

## TAKLIFNOMA

**Taklifnoma** – biror bir tadbirga taklif etish uchun foydalaniladigan yozma axborot.

Asosiy muhim belgilari:

1. Nomi (Taklifnoma).

2. Matn:

- taklif ko`rinishiga ko`ra: taklif etilayotgan F.I.O.;
- taklif etilayotgan tashkilot nomi;
- qanday tadbirga taklif etilyapti.

3. O`tkazilayotgan tadbir sanasi va vaqti.

4. O`tkazilish joyi.

5. Imzo (tadbir o`tkazayotgan tashkilot nomi). Agar tadbir bir nechta tashkilotlar bilan birga o`tkazilayotgan bo`lsa, u holda ularning nomlari matnda alohida ko`rsatiladi, ammo taklifnoma so`ngida taklif etilayotganlarni ko`rsatish muhim bo`lmaydi.



TAKLIFNOMA

Hurmatli \_\_\_\_\_

O‘zbekiston Badiiy Akademiyasi Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti sizni buyuk rassom

RAHIM AHMEDOV

tavalludining 100 yilligiga bag‘ishlangan ilmiy anjumanga taklif etadi.

Ilmiy anjuman shu yil 26-iyul soat 10 da MRDI majlislar zalida boshlanadi.  
(Mironshoh ko‘chasi, 123-uy, 2-qavat).

TAKLIFNOMA

Hurmatli \_\_\_\_\_

Sizni 2018-yil 21-aprel kuni soat 10.00 da Ikuo Hiroyama Xalqaro madaniyat saroyida bo‘lib o‘tadigan Shavkat Muzaffarning shaxsiy ko‘rgazmasining ochilish marodsimga taklif etamiz.

Tashkiliy qo‘mita

Taklifnoma matnlari erkin yoziladi. Shuning uchun muhim belgilariga qat’iy rioya qilinmaydi.

Taklifnomada tadbirning dasturi yoki tartibi aks etishi mumkin. Biroq, odatda, u dastur sifatida alohida ilova qilinadi.

Rasmiy taklifnomalarda, odatda, taklif etiluvchining familiyasi yoziladi. Hususiy taklifnomalarda faqat ism yoziladi, ayrim hollarda, taklif etilayotganning hurmati yuzasidan turli qarindoshlik ma’nosini beruvchi soʻzlar qoʻllaniladi.

## TAKLIFNOMA

Muhtaram(a) \_\_\_\_\_

Sizni farzandimiz Iqboljonning sunnat to‘yi munosabati bilan 2018-yil 10-yanvarda nahorda yoziladigan dasturxonimizga taklif etamiz.

Hurmat bilan Qobilovlar oilasi  
Manzil: “Tabassum” kafesi

## ASSALOMU ALAYKUM!

Hurmatli \_\_\_\_\_

Sizni va oila a‘zolaringizni aziz farzandimiz Dilnozaxon va Dilshodbeklarning nikoh to‘ylari munosabati bilan 2018-yil 19-oktabr soat 19.00 da yoziladigan dasturxonimizga kelib, quvonchimizga sherik bo‘lasiz degan umiddamiz.

Hurmat va ehtirom ila Turdi Eralievlar oilasi

Manzil: J.Obidova ko‘chasi 2-uy, 80-xonadon



**8-mashq.** O‘zbek tiliga tarjima qiling.

1. Мы будем рады видеть вас за нашим столом. 2. Нас очень обрадует ваш визит. 3. Приглашаем вас и членов вашей семьи... . 4. Приглашаем вас на конференцию посвященную... . 5. Торжества пройдут по адресу... .



**9-mashq.** Rus tiliga tarjima qiling.

1. *Quvonchimizga sherik bo‘lasiz degan umiddamiz.* 2. *Sizni ... yoziladigan dasturxonimiz atrofida ko‘rishdan mamnun bo‘lar edik.* 3. *To‘y oshi ... da tortiladi.* 4. *Ilmiy kengash yig‘ilishining muddati haqida sizga alohida xabar qilinadi.*

**10-mashq.** Yuqorida keltirilgan namunalar va jumladan foydalanib, bir nechta taklifnoma matni tuzing.

## 35-DARS

### QO`SHIQCHILIK VA RAQS SAN`ATI

#### *Og`zaki nutq:*

Qo`shiqchilik va raqs san`ati O`rta Osiyo hududida yashagan xalqlarda turmush sharoiti, marosimlar, bayramlar bilan bog`liq holda qadim zamonlardan beri rivoj topgan. Qoyatoshlardan topilgan rasmlar, arxeologik materiallar buni tasdiqlaydi.

Zamonaviy xoreografiya janr, tur va uslublarga boy. O`zbek raqslari gavdaning nafis harakatidan iborat, klassik raqslarda baxt va baxtsizlik, quvonch va xafagarchilik, hayot va o`lim qayg`usi bilan ifodalanadi.

Klassik raqsning Farg`ona, Xorazm, Buxoro uslublari mashhurdir. Tarixiy sharoit taqozosi bilan Farg`onacha uslub keng rivoj topgan. 1923-yilda atoqli o`zbek ashulachisi M. Qoriyoqubov mashhur musiqachi va yosh raqs ustalaridan iborat konsert truppasi tuzdi. Truppa qatnashchilaridan Tamaraxonim va M. Qoriyoqubov Parijda o`tkazilgan I jahon bezak san`ati ko`rgazmasida ishtirok etib, muvaffaqiyat qozonganlar.

O`tgan asr 20-yillarida o`zbek davlat konsert etnografik ansamblining faoliyati qo`shiqchilik va raqs san`ati rivojida muhim rol o`ynadi. Dastlabki o`zbek ommaviy raqsi usta Olim Komilov, Tamaraxonim, Yusufjon qiziqlar boshchiligida yaratildi.

1928-yilda birinchi eksperimental musiqa teatri tashkil topdi. 1956-yilda «Shodlik» ashula va raqs ansambli tashkil etildi va bu ansambl o`zbek klassik va xalq raqs san`atining eng yaxshi an`analarini rivojlantirdi. 1957-yilda «Bahor», 1958-yilda «Lazgi» xorazmcha ashula va raqs ansambli tashkil etildi. O`zbek raqslari orasida «Munojot», «Tanovor», «Dilhiroj», «Lazgi», «Dildor», «Uchrashuv», «Tong navosi», «Andijon polkasi», «Go`zal» kabi raqsar keng tarqalgan.

Hozirgi kunda ham ko`plab qo`shiqchilik va raqs dastalari kishilarga estetik zavq bag`ishlab kelmoqda. Balet san`ati 1928-yilda etnografiya truppa qoshidagi studiyada Tamaraxonim tashabbusi bilan yigit va qizlar

Yevropa klassik baleti elementlarini o`rgana boshladilar. Keyinchalik o`zbek musiqali teatrida balet-meysterlar balet san'atini o`rgatishdi.


1939-yilda o`zbek Davlat muzika teatri o`zbek Davlat opera va balet teatriga aylantirilib, milliy balet spektakllari yaratildi. Hozirgi Alisher Navoiy nomidagi opera va balet teatri jahon balet san'atining mashhur asarlarini muvaffaqiyat bilan sahnalashtirmoqda.

**1-mashq.** Sevimli janringiz haqida so`zlab bering.

**2-mashq.** Zamonaviy o`zbek qo`shiqchiligi haqidagi ma'lumotlarni gapirib bering.

**3-mashq.** Mashhur o`zbek raqqos va raqqosalari ijodidan so`zlab bering.

*Yozma nutq:*

 **4-mashq.** “Qo`shiqning kishi ruhiy dunyosiga ta`siri” mavzusida esse yozing.

 **5-mashq.** Zamonaviy raqs san'ati haqida matn tuzing.

*Grammatika:*

## TARJIMAI HOL

**Tarjimai hol** – biror shaxsning o`z hayoti va faoliyati haqida bayoni. U qat'iy shakla ega emas, qisqa va to`liq bo`lishi ham mumkin. Biroq erkin tartibda yozilsa ham, tarjimai holning muhim belgilari ham bor:

1. Hujjat nomi
2. Matn:

Muallif F.I.O.;

- Tug`ilgan yili va joyi;
- Ota-onasi haqida qisqacha ma'lumot (F.I.O. ish joyi);
- Ta'lim sohasi va mutaxassisligi;
- Ish faoliyat turlari;
- Oxirgi ish joyi va lavozimi;
- Mukofot va rag`batlari;
- Jamoat ishlaridagi ishtiroki;
- Oilaviy ahvoli;
- Manzil;

3. Sana.

4. Imzo.

**6-mashq.** O'qing, namunadan foydalanib, tarjimai holingizni yozing.

### *TARJIMAI HOL*

*Men, Azizov Avazbek Alisherovich, 1993-yil 22-martda Toshkent viloyati Zangiota tumanida tug'ildim. Otam, Azizov Alisher Hosilovich, 1975-yilda tug'ilgan, tadbirkor. Onam, Azizova Latofat Yoqubobna, 1977-yilda tug'ilgan, o'qituvchi. Men 2014-yilda Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutini tamomlab, kompyuter grafikasi ixtisosligini oldim. O'sha yildan beri «Gulshan» jurnalida, dizayner bo'lib ishlab kelyapanman. Uylanganman, bir nafar farzandim bor. Uy manzilim: Toshkent viloyati Zangiota tumani Sohibkor ko'chasi, 71-uy.*



**7-mashq.** O'zbek tiliga tarjima qiling.

Окончил Ташкентский Авиационный институт, проходил военную службу, работает главным инженером на заводе Ташсельмаш, удостоен звания «Заслуженный строитель Республики Узбекистан», назначен директором.



**8-mashq.** Rus tiliga tarjima qiling.

1. 2000-2018 – yillarda mazkur zavod direktorining o‘rinbosari. 2. 2015-yildan beri nafaqada. 3. 300-bolalar bogchasiga qatnaydi. 3. 2017-yil imtiyozli diplom bilan tamomladim. 4. Xorijga ishga yuborildim.

## 36-DARS

### “SAN’AT” (“ART”, “ИСКУССТВО”) JURNALI

#### *Og`zaki nutq:*

“San’at” jurnali O`rta Osiyodagi mazkur maqomdagi yagona nashrdir. Jurnal o`quvchilarga ajoyib qadimiy obidalar, O`zbekiston xalqlarining an’anaviy hunarmandchiligi va san’ati turlari, me’morchilik va rangtasvir tarixining qiziqarli sahifalari, shuningdek, dizaynerlik san’ati, musiqa, teatr va kino olami haqida ma’lmotlar beradi. Jurnal bo`limlaridan biri madaniyat va san’at sohasining xalqaro aloqalariga bag`ishlangan bo`lib, unda o`quvchi yaqin va uzoq xorijiy mintaqalarning madaniy hayotida ro`y berayotgan voqealar, xalqaro ko`rgazmalar, o`zbekistonlik san’at arboblarning chet ellik hamkasblari bilan o`zaro aloqalari va munozaralaridan voqif bo`ladi. Jurnal sahifalarida, shuningdek, O`zbekiston Badiiy akademiyasi, uning o`quv yurtlari va tarmoqlari faoliyati yoritiladi. Estetik tarbiya masalalari bo`yicha mulohazalar muhokama qilinadi, san’at asarlariga holisona baho beriladi.

Jurnal O`zbekiston Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 11-martdagi «O`zbekiston Badiiy akademiyasi faoliyatini tashkil etish to`g`risida»gi qaroriga muvofiq yuzaga kelgan bo`lib, O`zbekiston Badiiy akademiyasi uning ta’rischisi hisoblanadi.

Uch oyda bir marta, o`zbek, rus, ingliz tillarida chop etiladigan jurnal tahririyati xalqaro ijodiy uchrashuvlar, seminar va konferensiyalar o`tkazilishida faol qatnashadi, dizaynerlik ishlari va kompyuter grafikasi bilan shug`ullanadi. Shuningdek, maktabgacha bo`lgan maxsus maktablar, litsey, kollej, va oliy o`quv yurtlari uchun madaniyat va san’at bo`yicha o`quv qo`llanmalar tayyorlashda ishtirok etadi. “San’at” jurnali barcha mualliflar, tashkilotlar, fuqarolarning shaxsiy qarashlaridan qat’iy nazar har qanday materialni ko`rib chiqadi. Dunyoning turli joylaridagi alohida shaxslar va tashkilotlar jurnalga bevosita, yil davomida, istalgan oydan, istalgan muddatga va o`zbek, rus, ingliz tillarida xohlagan hajmdagi nusxasiga obuna bo`lishlari mumkin.

**1-mashq.** Mavzuga oid matni o`qing, mazmuni to`liq tinglab tushuning.

**2-mashq.** Matndagi atama va iboralarning ma`nosini izohlang.

**3-mashq.** Matndagi asosiy fikrni aytib bering.

*Yozma nutq:*



**4-mashq.** Sevimli jurnal to`g`risida esse yozing.



**5-mashq.** O`zbekiston hamda xorijiy jurnallar namunalari ro`yxatini yozing.

*Grammatika:*

## MAJLIS BAYONI

**Bayonnoma** – majlis, uchrashuv kabilar ishtirokchilarining chiqishlarini shuningdek, qarorlarini ro`yxat qiluvchi rasmiy hujjat. U qisqa (kun tartibi, muzokarada so`zga chiqqanlarning familiyasi, chiqarilgan qaror) va to`liq (ishtirokchilarning hamma so`zlari keltiriladi) bo`lishi mumkin.

Bayonnomaning muhim xususiyatlari:

1. Tashkilot, muassasaning nomi
2. Sarlavha (muhokama bo`layotgan bo`lim yoki majlis)
3. Hujjat nomi (bayonnoma).
4. Sana
5. Raqam
6. Majlis joyi
7. Muassasaning ro`yxat raqami (zarur bo`lganda)
8. Majlis raisi va kotibi familiyasi
9. Matn:
  - Ishtirokchilarning ro`yxati yoki soni;



- Kun tartibi;
- Eshitildi;
- Soʻzga chiqdi;
- Qaror qilindi.


10. Ilovalar (agar boʻlsa).

11. Imzolar.


Bayonnoma quyidacha shakllantiriladi:

Tashkilot nomi		
MAJLIS BAYONI		
Sana. Joyi.		
Qatnashdilar:		
Kun tartibi:		
1.		
2.		
ESHITILDI:		
Maʼruzachi ism-familiyasi (maʼruza ilova qilinadi).		
SOʻZGA CHIQQILAR:		
Soʻzga chiquvchilar ism-familiyasi ... .		
QAROR QILINDI:		
Rais	imzo	Familiyasi I.O.
Kotib	imzo	Familiyasi I.O.

**6-mashq.** Sxemadan foydalanib, guruh majlisi bayonini yozing.

 **7-mashq.** Oʻzbek tiliga tarjima qiling.

Внес предложение, предложил, возложить на доцента Имамова, объявить выговор, представить на утверждение Научного совета университета, утвердить состав комиссии в следующем порядке, контроль за исполнением возложить на ... .

 **8-mashq.** Rus tiliga tarjima qiling.

1. ... borasida olib borilayotgan ishlar qoniqarli deb topilsin. 2. Ilmiy rahbar etib tayinlansin. 3. ...haqidagi taklifi maʼqullansin. 4. ... guruh sardori etib tayinlansin. 5. Tegishli boʻlinmalar oʻz faoliyatlarini mazkur qaror asosida tashkil etsinlar.

## 37-DARS

### XALQARO MUZEYLAR KUNI

#### *Og'zaki nutq:*

Muzeylar o'tmishdan kelgan madaniyat, ma'rifat, tabiat yodgorliklarining yaxlit tizimga solingan yig'indisi bo'lib, amaldagi qonun-qoidaga muvofiq saqlanadi va namoyish qilinadi.

Muzeylar dastlab badiiy asarlar majmuiga, keyin esa moddiy va ma'naviy-ma'rifiy yodgorliklarni yig'uvchi va saqlovchi muassasaga aylangan. Muzeylar insoniyat xotirasi, boy va betakror o'tmishi hamda jamiyat taraqqiyoti bosqichlarini namoyon etuvchi bebaho yodgorlikdir. Istiqlolimizning dastlabki kunlaridanoq davlatimiz tomonidan muzeylar va ularni moddiy hamda ma'naviy yodgorliklar bilan boyitish borasida qator qaror va farmoyishlar qabul qilindi.

Bugungi kunda respublikamizning turli viloyat va shaharlarida faoliyat ko'rsatayotgan 73 ta muzeydan 22 tasi o'lkashunoslik, 14 tasi tarix, 10 tasi badiiy, 12 tasi memorial va 1 tasi tabiiy-ilmiy muzeydir. 1996-yil 1-sentyabrdan esa Toshkentda Osiyoda yagona bo'lgan Olimpiya shon-shuhrat muzeyining faoliyat ko'rsata boshlagani tariximiz ko'zgusi bo'lgan muzeylarga berilayotgan e'tibor namunasidir. 1992-yil Buxoro, 2000-yil Samarqand shahrida muzeylarga bag'ishlab o'tkazilgan xalqaro simpozium va seminarlarda MDH davlatlari va Yevropaning bir qator mamlakatlaridan shu soha xodimlarining ishtirok etishi O'zbekistondagi bunday muassasalar va ularning tarixini bosqichma-bosqich o'rganish imkonini berdi. Yurtimiz me'moriy yodgorliklarga boy bo'lib, uning 10 ta shahri tarixiy shaharlar ro'yxatiga kiritilgan. Shuningdek, 2500 me'moriy obida, 2700 arxeologik yodgorlik, 1800 monumental san'at asarlari ham davlat muhofazasida.

Har yilning 18-may kuni Xalqaro muzeylar kuni nishonlanadi. Ushbu kun 1977-yildan buyon jahon miqyosida bayram qilinadi. Xalqaro muzeylar kuni O'zbekiston shaharlarida ham nishonlanadi. Ushbu kun barcha muzeylarga kirish bepul bo'ladi.

O`zbekistonda Muzeylar ilg`or tajribaga ega davlatlar bilan hamkorlikda o`z ishini olib boradi, IKOM<sup>13</sup> doirasida o`tkaziladigan ilmiy-ma`rifiy tadbirlarda ishtirok etadi. Chunki sohaga oid yangiliklardan xabardor bo`lish zamon talabidir.

2017-yil 11-dekabrda O`zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining “2017-2027-yillarda davlat muzeylari faoliyatini takomillashtirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo`yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to`g`risida”gi qarori qabul qilingach, bu masalada muzeyshunoslar zimmasiga yanada chuqurroq mas`uliyat yukladi.

**1-mashq.** Mavzuga oid matnni o`qing, mazmuni to`liq tinglab tushuning.

**2-mashq.** Matndagi atama va iboralarning ma`nosini izohlang.

**3-mashq.** Matndagi asosiy fikrni aytib bering.

**Yozma nutq:**

 **4-mashq.** Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan muzeylar ro`yxatini tuzing.

 **5-mashq.** Rivojlangan mamlakatlardagi biror muzey haqida ma`lumot to`plang va yozing.

### **Mustaqil ta`lim**

*Xalqaro muzeylar kuniga bagishlangan konferensiyalarda ishtirok etib, maqola yozish.*

<sup>13</sup> IKOM (International Council of Museums, ingl. ICOM) – nodavlat kasbiy xalqaro tashkilot 1946-yilda Parijda (Fransiya) tashkil topgan. IKOM tashkiloti YUNESKO va BMTning Iqtisodiy va ijtimoiy kengashida “A” kategoriyasidagi oliy maslahat mavqega ega. IKOM – moddiy va nomoddiy merosni asrab avaylash bilan shug`ullanuvchi muzeylar va muzey xodimlarining xalqaro tashkiloti hisoblanadi.

## **Grammatika:**

### **MAJLIS BAYONIDAN KO'CHIRMA**

Majlis bayonidan ko`chirma zarur bo`lganda majlisda qabul qilingan qarorlardan shakllantiriladi. Ko`chirma ham imzolar bilan tasdiqlanadi. U quyidagi muhim belgilarga ega:

1. Tashkilot, muassasaning nomi
2. Hujjat nomi (Majlis bayonidan ko`chirma)
3. Sana (majlis sanasi)
4. Shartli raqam
5. Ko`chirma shakllantirilgan joy
6. Matn:
  - kun tartibi;
  - eshitildi;
  - so`zga chiqdi.
7. Imzolar
8. Ko`chirmaning tasdiqlanganligi haqidagi muhr

Ba`zan ko`chirmada majlis qatnashchilarining, shuningdek, muzokarada qatnashganlarning, garchi ahamiyatsiz bo`lsa ham, familiyasi yoki soni keltiriladi.

Ko`chirma matnida biror bir shaxsga yoki tashkilotga yetkazilishi kerak bo`lgan qismigina yoziladi. Agar bir nechta masala ko`rilgan bo`lsa, u holda, faqat zarur muammoning qarori yoziladi. Ko`chirmaning qismlari quyidagicha joylashtiriladi:

Tashkilot nomi		
MAJLIS BAYONIDAN KO'CHIRMA		
Sana. Joyi.		
Kun tartibi:		
3.		
ESHITILDI: Ma`ruzachi ism- familiyasi (ma`ruzaning qisqa bayoni).		
QAROR QILINDI:		
3.		
	Rais	imzo
	Kotib	imzo
		Familiyasi I.O.
		Familiyasi I.O.

O'zbekiston Badiiy Akademiyasi  
Kamoliddin Behzod nomidagi MRDI Ilmiy kengashining 11-raqamli majlis  
bayonidan

KO'CHIRMA

2018. 21. 04.

Toshkent shahri.

Kun tartibi:

3. «Tilshunoslik atamalarining izohli lug'ati» kitobini nashrga tavsiya etish. X. Qodirova axboroti.

3. Eshitildi:

X. Qodirova kengash a'zolarini «Tasviriy san'at atamalarining izohli lug'ati» bilan batafsil tanishtirdi. Ushbu lug'at 1200 ta so'zni qamraganligi, ularning har biri bugungi kun talablari darajasida izohlanganini aytib o'tdi.

**Qaror qilindi:**

1. «Tasviriy san'at atamalarining izohli lug'ati» kitobi nashrga tavsiya etilsin.

2. Ma'sul muharrir etib filologiya fanlari doktori X. Qodirova tasdiqlansin.

Rais

(imzo)

M. Ulmasbayeva

Kotib

(imzo)

M. Bozorova



**6-mashq.** Rus tiliga tarjima qiling.

*Mazkur qarorni tasdiqlash ... dan so'ralsin, ilmiy rahbar etib ... tayinlansin, belgilab qo'yilsinki ..., ... qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, ... qarorning 3-bandi quyidagicha o'zgartirilsin.*



**7-mashq.** O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Признать результаты голосования действительными. 2. Очередное заседание научного совета назначить на ... . 3. Ответственным за выполнение назначить ... . 4. Утвердить постановление совета стоматологического факультета от ... .

**8-mashq.** Yotoqxonada o'tkazilgan ota-onalar majlisi bayonnomasidan ko'chirma tayyorlang.

## 38-DARS

### AMALIY BEZAK SAN'ATI

#### *Og'zaki nutq:*

Xalqimizning amaliy san'ati boy an'analarga va uzoq tarixga ega. Dunyodagi boshqa xalqlar qatori o'zbek xalqi ham o'z madaniy merosini o'zi vujudga keltirgan. Arxeologik qazilmalar natijasida topilgan badiiy ijod namunalari xalq amaliy san'atining tarixi tosh asriga borib taqalishini ko'rsatadi.

